AMONBOYEV MAHAMMADSIDIK

BOZOR INFRATUZILMASI NAZARIYASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

AMONBOYEV MAHAMMADSIDIK

BOZOR INFRATUZILMASI NAZARIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan magistraturaning 5A340201 –Menejment (infratuzilma) mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

«TAFAKKUR-BO‘STONI»
Toshkent – 2012

UDK: 339.1(075)
65.9(5O‘)-96
A58 6x43
Amonboyev M.

Bozor infratuzilmasi nazariyasi: o‘quv qo‘llanma/Amonboyev M.; O‘zR OO‘MTV. – T.: «Tafakkur-Bo‘stoni», 2012. – 224 bet.

KBK 65.9(5O‘)-96

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi o‘zida iqtisodiyot turli soha va tarmoqlarining mustaqil taraqqiyoti va har tomonlama mustahkam iqtisodiy o‘sishini taqozo etadi. Tarmoq va sohalar iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda bozor infratuzilmasining rivojlanishi ham ahamiyatlidir. Bozor infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining muhim shart-sharoitlari, qulay muhitini vujudga keltirishda davlat tomonidan tartibga solish katta ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda esa iqtisodiy qonunlar bilan birga hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar uyg‘unligini ta’minlash va ularning bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqilishini yo‘lga qo‘yish muhim sanaladi.

O‘quv qo‘llanma infratuzilma, shu jumladan, bozor infratuzilmasini tadqiq etishga qaratilgan. O‘quv qo‘llanmada infratuzilmalarning turli jihatlarini ochib berish bilan birga, ushbu sohada O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning umumiy jihatlarini yoritishga alohida e’tibor qaratilgan. Qo‘llanmada bozor infratuzilmasining turlari, vazifalari, tamoyillari va turkumlanishiga alohida yondashuvlar keltirilgan.

O‘quv qo‘llanmadan Oliy ta’lim tizimida – 5A340201 “Menejment” (infratuzilma) magistratura mutaxassisligi talabalari hamda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlovchi o‘quv yurtlari va kasb-hunar kollejlarida o‘quv manba sifatida foydalanish mumkin.

Taqrizchilar:
N. O‘rmonov – i.f.n., “Korporativ boshqaruv” kafedrasi dotsenti.
M. Saidov – i.f.n., TAQI Menejment kafedrasi dotsenti

ISBN - 978-9943-362-58-1

©«Tafakkur-Bo‘stoni», 2012 y.

MUNDARIJA:

KIRISH.....5

1-BOB. Bozor infratuzilmasi nazariyasi fanining predmeti va vazifalari.....8

1.1. Bozor infratuzilmasi nazariyasi fani mazmuni, ahamiyati va boshqa fanlar bilan aloqadorligi.....8

1.2. Bozor infratuzilmasining maqsadi, asosiy vazifa va tamoyillari.....12

1.3. Bozor infratuzilmasi nazariyasini o'rganishdagi muhim yondashuvlar.....21

2-BOB. Bozor infratuzilmasi nazariyasi shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari.....26

2.1. Bozor infratuzilmasi nazariyasining shakllanishi va O'zbekistondagi uning asosiy jihatlari.....26

2.2. Bozor infratuzilmasini turkumlashga zamonaviy yondashuvlar.....30

3-BOB. Hozirgi zamon bozor infratuzilmasining turlari va tarkibiy qismlari.....37

3.1. Bozor infratuzilmasining turlari va tarkibiy qismlari..37

3.2. Bozor aloqalarini jadallashtirishga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalari.....46

3.3. Moliya bozori infratuzilmasi bozor infratuzilmasining asosiy yo'nalishi sifatida.....64

4-BOB. Bozor infratuzilmasining amal qilish shakllari va mexanizmlari.....87

4.1. Bozor infratuzilmasi faoliyatining shart-sharoitlari, shakllari va usullari.....87

4.2. O'zbekistonda bozor infratuzilmasining amal qilish mexanizmlari va faoliyat natijalari.....91

5-BOB. O'zbekistonda bozor infratuzilmasining shakllanish xususiyatlari va rivojlanishi.....101

5.1. O'zbekistonda bozor infratuzilmasining shakllanishida fond bozorining ta'siri.....101

5.2. Bank tizimi bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini sifatida.....111

5.3. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda bozor infratuzilmasining roli.....120

5.4.Bozor infratuzilmasi faoliyati uyg'unligini ta'minlash va uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....140

Glossariy.....155

Bozor infratuzilmasi nazariyasi fanidan test topshiriqlari.....180

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....203

Ilovalar.....210

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, taraqqiyotimizning asosini belgilab beruvchi iqtisodiy sohadagi islohotlarga ustuvor e'tibor qaratildi. Shaxsan Prezidentimiz I.Karimov tomonidan asos solingan taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning hayotga izchillik bilan tatbiq etib borilishi tarixan qisqa davr ichida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ahamiyatli sifat o'zgarishlarga erishish imkonini yaratdi. Jumladan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosida turli shakldagi muikchilik tizimini shakllantirish, ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish, iqtisodiyotning barcha sohalarini erkinlashtirish, tadbirkorlik faoliyati, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, o'rta mulkdorlar sinfini qaror toptirish, xorijiy investorlar uchun zarur kafolatlarni ta'minlash kabi o'ta muhim tadbirlar O'zbekistonning jahon hamjamiyatida o'z o'rni va nufuziga ega bo'lishi uchun iqtisodiy asos bo'lib xizmat qildi.

Biroq, sanab o'tilgan yutuqlar mamlakatimiz oldida turgan ozod va farovon hayotni barpo etishdan iborat ezgu-maqsadlarga yetaklovchi navbatdagi salmoqli qadam, bosqichlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqsadga to'liq erishish uchun oldimizda qator vazifalar turibdi. Bu borada mamlakatimiz rahbari ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan nutqida "Bizning vazifamiz mamlakatimizni, jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilash yo'lidagi harakatlarimizni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va so'zsiz bu borada amalga oshirgan ijobiy ishlarimizni qat'i yat bilan davom ettirish, ularni xalqimiz orzu qilgan manzilga yetkazishdir" deya Ta'kidlab, mazkur dasturning negizini tashkil etuvchi ustuvor vazifalar qatorida "Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti

bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat"[1] bo'lgan ustuvor yo'nalishni alohida ko'rsatib berdi. Shu bilan birga 2008-yildan buyon o'zini ko'rsatib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqrozi va uning oldini olishga qaratilgan, O'zbekistonda amaliy dastur sifatida foydalanilayotgan Prezidentimiz I.Karimov tomonidan batafsil yoritilgan "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqrozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida ham "Mamlakatimizni modernizatsiyalash va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim"[2] deb ta'kidladilar.

Ijtimoiy yo'naltirilgan, ma'rifatli bozor iqtisodiyotiga asoslanuvchi demokratik jamiyat qurishni maqsad qilib qo'ygan mamlakatimiz oldida bu maqsadlarga erishish yo'llarini bosib o'tish, ular taqozo etuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi turadi. Shu o'rinda, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizim amal qilgan chog'da inkor etilgan, jamiyat a'zolari farovonligining yuksak darajasiga erishishda "halal beruvchi", "yot unsur" sifatida qarab kelingan iqtisodiy hodisa va jarayonlarga qaytadan nazar tashlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini obyektiv jihatdan baholash zaruriyati vujudga keldi. Bunday tushunchalardan biri – bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti yuksak natijalari, aholi turmush darajasining muhim tomoni hisoblanuvchi infratuzilma sohasi hisoblanadi. Bu sohaning "yaratuvchanlik kuchi", "mo'jizakor" tabiati, iqtisodiyot jadal harakatining muhim omili ekanligi rivojlangan mamlakatlar tomonidan allaqachonlar e'tirof etilgan hamda yuksak darajada baholangan. Shunga ko'ra, infratuzilma, ayniqsa, bozor infratuzilmasining iqtisodiy tabiatini

[1] O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Prezident I.Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasi. - «Ishonch» gazetasi, 2002-yil 30-avgust, № 139(1356).

[2] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari - T.: "O'zbekiston", 2009, 16-b.

o`rganish, uning taraqqiyot omili sifatidagi imkoniyatlarini ochib berish, tarkibiy qismlarini qar tomonlama rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimini takomillashtirish borasida parlament tomonidan o`tgan davr mobaynida xususiy mulkni huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, fermerlik harakatini mustahkamlash, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishni ta`minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, keng tarmoqli bozor infratuzilmasini barpo etish kabi vazifalarni amalga oshirishga mo`ljallangan qonun hujjatlari qabul qilindi. Shuningdek, parlament aholi daromadlari va xalq farovonligini uzluksiz oshirib borish, keng miqyosdagi ijtimoiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish masalalariga ham alohida e`tibor berib kelmoqda.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, mazkur o`quv qo`llanmada infratuzilma tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ayniqsa, bugungi kunda ushbu tizimda muhim ahamiyat kasb etib borayotgan bozor infratuzilmasining iqtisodiy tabiati va iqtisodiyotda tutgan o`rni, uning tarkibiy qismlarining vazifalari va o`ziga xos rivojlanish xususiyatlari, hozirda mamlakatimizda bozor infratuzilmasi sohasining rivojlanganlik darajasi va uni yanada yuksaltirish chora-tadbirlari borasida so`z yuritiladi.

1-bob. BOZOR INFRATUZILMASI NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. Bozor infratuzilmasi nazariyasi fani mazmuni, ahamiyati va boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Hozirgi kunda tobora rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari o'zining taraqqiyoti davomida bozor qonuniyatlari va mexanizmlarining amal qilishini to'g'ri baholay oladigan ichki tuzilmalari va xo'jalik yurituvchi subyektlariga muxtojlik sezadi. Shu bilan birga, ularning shakllanishi va rivojlanishi davlat tomonidan muhim shart-sharoitlar va qulay muhitning tashkil etilishini talab etadi. Bu jarayonda esa iqtisodiy qonunlar bilan birga hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar uyg'unligini ta'minlash va ularning bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqilishini yo'lga qo'yish muhim sanaladi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishini, ma'lum soha va tarmoqlarda mavjud muammolarni ilmiy tahlil etish va yangi bozor infratuzilmasini yaratayotgan xo'jalik subyektlarining faoliyatini nazariy tadqiq etish iqtisodiy fanlarning yangi turiga ehtiyojni kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bozor infratuzilmasi nazariyasi fanini o'rganish zarurati tug'iladi. Bu fanning shakllanishi uchun ham boshqa fanlar kabi amaliy hayotdagi muammolari, o'rganilishi taqozo etilayotgan qonuniyatlar, ochib berilishi zarur bo'lgan holatlar borki, ular mazkur fanni nazariy jihatdan o'rganishning dolzarbligini namoyon etmoqda.

"Bozor infratuzilmasi nazariyasi" fanini o'qitishning asosiy maqsadi talabalar tomonidan bozor infratuzilmasi nazariyasini chuqur va puxta o'zlashtirish, infratuzilma muassasalari faoliyatining amal qilish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish hisoblanadi. Bu fanning o'qitilishi orqali talabalar bozor infratuzilmasi tashkil topishi va rivojlanishining nazariy asoslari va uning amal qilish qonuniyatlari bilan yaqindan tanishadilar. Mazkur fan ularga bozor infratuzilmasi nazariyasining iqtisodiy qonunlari, hodisa va jaray-

onlarining mohiyatini chuqur va har tomonlama tushunishda zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni o'zlashtirishga amaliy yordam beradi. Shuningdek, talabalarda bozor infratuzilmasi va tizimli-iqtisodiy munosabatlar to'g'risida amaliy tajribalarni shakllantirish fanning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. "Bozor infratuzilmasi nazariyasi" fani orqali olingan bilimlar iqtisodiyot sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarga mamlakatdagi bozor munosabatlarining samarali tashkil etilishi va amal qilishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalari faoliyatining nazariy va amaliy masalalarini chuqur anglash hamda bu boradagi muammolarni to'g'ri hal etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Iqtisodiy fanlarning umumiy o'rganish obyektlari bo'lib o'z ichiga ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol jarayonlarini oluvchi iqtisodiy faoliyat bosqichlari hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning qisqacha tahliliga ko'ra ishlab chiqarish shunday jarayonki, agar xomashyo, aylanma mablag', ishchi kuchi va boshqa materiallar yoki ishlab chiqarish omillarining o'zaro muvofiq holdagi birikishi yuz bergan chog'dagina tovar ishlab chiqarish o'z natijasini beradi. Lekin bu ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'molchisini topish zamonaviy iqtisodiyotning oldidagi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bozor aynan ayriboshlash yoki taqsimlash jarayonini ta'minlab, iste'molchini topishga yordam berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bozorlarning me'yordagi faoliyatini ta'minlash va ularning samaradorligini oshirish esa bozor infratuzilmalari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan olsak, bozor infratuzilmalarining mavjudligi, samarali faoliyati va davomiyligini ta'minlash nafaqat iqtisodchi olimlar, balki, iqtisodiyotning har bir bo'g'ini mutasaddi rahbarlarining, shuningdek, iqtisodiy fanlarning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bozor infratuzilmasini nazariy tahlil qilish iqtisodiyotning boshqa infratuzilmalaridan ma'lum ma'noda alohida xususiyatga ega. Biz bu borada fikr yuritishdan oldin umumiy infratuzilmalar haqidagi tushunchaga ega bo'lishimiz kerak.

Infratuzilma – bu har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lish sharti hisoblangan tarkibiy qismidir. So'zma-so'z ifodalaganda, infratuzilma – bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi demakdir.

«Infratuzilma» atamasi lotincha «infra» – quyi, osti; «structura» – tuzilma, joylashuv so'zlaridan paydo bo'lgan. «Infratuzilma» atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, bu tushunchani turlicha talqin qilish hollari uchrab turadi. Bir guruh olimlar infratuzilmaning funksiyasini ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatishda deb qarab, uni xizmat ko'rsatishning yaxlit tizimi sifatida belgilaydilar.

Bu fan bozor infratuzilmasining rivojlanish bosqichlari, hozirgi zamon bozor infratuzilmasining aralash iqtisodiyot tizimi sifatida, mamlakatlar va xalqlarning madaniylashgan, ijtimoiy-adolatli jamiyat sari harakat bosqichi sifatida tushuntirilib, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida chuqur bilimlar beruvchi fan hisoblanadi. Bozor infratuzilmasining amal qilishi masalalariga, O'zbekiston bozor infratuzilmasini o'rganishga, milliy iqtisodiyotdagi infratuzilmaning jahon xo'jaligiga qo'shilish masalalariga katta ahamiyat beriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda infratuzilma sohasi tarkibiga kiruvchi tuzilmalardan foydalanish amalda ancha ilgari boshlanganligiga qaramay, unga mukammal tizimga ega bo'lgan mustaqil soha sifatida e'tibor qaratish nisbatan kech ro'y berdi. Zero, "infratuzilma" atamasi fanga kiritilishining aniq sanasi ma'lum bo'lmay, ko'pchilik tadqiqotlarda ushbu tushuncha XX asr 40-yillarining oxirida paydo bo'lgan deyilsa, ba'zilarida esa amerikalik iqtisodchi P.Rozenshteyn-Rodan tomonidan 1955-yilda ilmiy atama sifatida qo'llanilganligi qayd etilgan[3]. Ma'lumotlarga ko'ra, XX asr boshlarida "infratuzilma" atamasi iqtisodiy tahlilda qurolli kuchlarning hayotga layoqatliligini ta'minlovchi obyekt va inshootlarni ifodalash uchun qo'llanilgan. 40-yillarda G'arbda infratuzilma tushunchasi orqali moddiy ishlab chiqarishning yetarli

[3] Стаханов В.И. Экономика инфраструктуры общественного производства: Учеб. пос. Ростов н/Д, 1989, 8-b.

darajada amal qilishi uchun xizmat qiluvchi tarmoqlar majmui tushunila boshlandi.

Ba'zilar infratuzilmani "insonning hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarishda xizmatlar ishlab chiqarishdagi o'ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi[4]", "moddiy ishlab chiqarishga ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatuvchi, xalq xo'jaligida iqtisodiy aylanishni ta'minlovchi, aholi uchun xizmatlar va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqaruvchi, atrof-muhitni takror ishlab chiqarish va muhofaza qilish uchun mavjud xalq xo'jaligining tarmoqlari va tarmoq ichi sohalari yig'indisi" sifatida ta'riflasalar[5], ba'zilari infratuzilmaning ahamiyatini "ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini yaratish", "asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash" orqali belgilab, u orqali faqat ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish tizimini tushunadilar.

"Bozor infratuzilmasi nazariyasi" fani boshqa fanlar kabi bir qator iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabalar tomonidan uni o'rganish jarayonida o'zaro bog'liq fanlar bo'yicha ham muayyan bilim va ko'nikmalarning mavjud bo'lishi talab qilinadi. Iqtisodiyotning har bir alohida sohasiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning mavjudligi hamda ularni boshqarishda turli xil yondashuvlar ham bu fanning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlaydi. Ta'kidlash lozimki, birinchi navbatda bozor infratuzilmasi nazariyasi fani iqtisodiy fanlarning asosi bo'lgan iqtisodiyot nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'rganishda qo'llanilgan uslub va dastaklar aynan va bosqichma-bosqich amal qiladi. Bozor infratuzilmasi har bir sohaning mavjud bo'lishi va hayotiylik davrini belgilab beruvchi quyi tizilmalar yig'indisi bo'lib, ular faoliyatining daromadlilik darajasining ortishi huddi shu sohaning

---

[4] Стаханов В.Н. Экономика инфраструктуры общественного производства: Учеб. пос. Ростов н/Д. 1989. 6-b.

[5] Шарипов А.Ю. Экономическая сущность инфраструктуры при социализме. Управление отраслями инфраструктуры в системе региона. Л., 1980. 5-b.

rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday ekan, boshqa sohalarni o'rganuvchi fanlarning barchasi ham shu sohaning infratuzilmasini o'rganuvchi fanning qonun-qoidalarini va amal qilish mexanizmlarini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Shuningdek, bozor infratuzilmasi barcha tarmoq va sohalar o'rtasidagi savdo aloqalarini, ular o'rtasidagi oldi-berdi munosabatlarini shakllantiruvchi muassasalar majmui bo'lganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan har bir tuzilgan shartnoma ma'lum bir bozor infratuzilmasining quyi tizilmalari xizmatidan foydalanadi.

Bozor infratuzilmasi barcha sohalar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, xizmatlar va davlat korxonalarining mazmun-mohiyatini o'rganishdagi qonun-qoidalarini o'rganishda foydalanidagan fan sifatida shakllanmoqda. Shu bilan birga, bozor infratuzilmasi nazariyasi fani menejment, marketing,biznes, tarmoqlar iqtisodiyoti va boshqa shu kabi iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi.

Boshqa iqtisodiy fanlarda fanning iqtisodiy qonuniyatlari, modellari,uslublari va o'rganishdagi o'ziga xoslikka e'tibor berilsa, shu bilan birga bozor infratuzilmasi nazariyasi fani ularning bozorga moslashuvchanligi va infratuzilmalarining qanday amal qilishini va rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni yoritishga e'tibor qaratadi.

1.2. Bozor infratuzilmasining maqsadi, asosiy vazifa va tamoyillari

Bozor infratuzilmasi infratuzilmaning nisbatan yangi turi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotda bozor mexanizmining rivojlanib borishi bilan alohida bozorlarning ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyatning maxsus turini yaratish zaruriyati vujudga keladi. Bozorning paydo bo'lishi uning madaniylashgan ko'rinishda amal qilishini ta'minlovchi yangi tashkilotlar, muassasalarning shakllanishini taqozo etadi.

Mustaqil tizim sifatidagi bozorga nisbatan olganda,

infratuzilma – bu tovar va xizmatlarning harakatini, oldi-sotdi jarayoniga vosita bo'lib xizmat qiluvchi tashkiliy-huquqiy shakllarning yig'indisi yoki bozorga xizmat ko'rsatuvchi hamda uning amal qilishining normal sharoitini ta'minlash bo'yicha ma'lum funksiyalarni bajaruvchi muassasalar, tizimlar, xizmatlar, korxonalarning majmuidir.

Infratuzilmaning quyida keltirilgan turli ko'rinishlari va ular faoliyati yo'naltirilgan soha hamda tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yanada yaqqolroq tasavvur etish uchun chizma ko'rinishidagi tasvirdan foydalanish mumkin (1.2.1-rasm).

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida bozor infratuzilmasining ahamiyati tobora oshib borar ekan, uning mohiyati, iqtisodiy mazmunini o'rganish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy tushunchalar lug'atida "Bozor infratuzilmasi (inglizcha *market infrastructure*) – asosiy vazifasi tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berishdan iborat bo'lgan tarmoq, kichik tarmoq hamda faoliyat sohalari (transport, ta'minot, mol tarqatish, savdo va h.k.)ning majmui" sifatida ta'riflanib, "rivojlangan bozor infratuzilmasi iqtisodiyotdagi mablag'lar aylanishining tezlashuvi, yangidan yaratilgan qiymatning realizatsiyasi jarayoni uchun shart-sharoit yaratadi[6]".

---

[6] Язык бизнеса: термины. Под общ. ред. В.А.Чжена. Т.: ИПК «Шарк». 1995, 185-b.



— — -infratuzilma sohasi;
— • • -infratuzilma xizmatiga yo'naltiruvchi asosiy soha va tarmoqlar;
- - - - - -har bir infratuzilma faoliyatining chegarasi

1.2.1-rasm. Infratuzilma turlari va ular faoliyati yo'naltirilgan sohalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida bozor infratuzilmasining roliga katta ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida mazkur sohani rivojlantirish borasida alohida to'xtalib: "Bozor infratuzilmasiga xos barcha muassasalarning rivojlanishi ustuvor ahamiyat kasb etmog'i zarur. Bunda biznes xizmati bilan uzviy bog'liq bo'lgan konsalting, marketing, injiniring, lizing, sug'urta tizimlari va boshqa tuzilmalar faoliyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi[7]", deb ko'rsatib o'tishi ham mazkur jarayonning naqadar ahamiyatli ekanini e'tirof etadi. Shu bilan birga, Prezidentimiz I.Karimov 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida "Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi[8]" deb ta'kidladilar.

Bozor infratuzilmasi mahsulot (xizmat) ishlab chiqaruvchisi va iste'molchini yagona bozor makonida bog'lovchi, ishlab chiqarish miqyosi va iste'mol o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etuvchi, uning barcha ishtirokchilariga qo'yilgan maqsadlariga erishishni ta'minlovchi muassasalar va vositachilik tuzilmalari tizimini namoyon etadi. Bozor infratuzilmasining mohiyatini namoyon etuvchi uning maqsadi, asosiy vazifa va tamoyillarini

[7] Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Prezident Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasi. 2000-yil 25-yanvar.

[8] Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. I.Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi. 29- yanvar 2010-yil.

1.2.2-rasm orqali yaqqol tasavvur etish mumkin.

Bozor infratuzilmasining maqsadi – bu cheklangan to'lovga qobil talab sharoitida, bozor ishtirokchilari manfaatlari muvozanatini ta'minlash borasidagi kelishuv asosida foydasini maksimallashtirishdan iborat.

Bozor infratuzilmasining vazifalari sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– bozor munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarining amalga oshirilishini yengillashtirish;

– infratuzilma subyektlarining o'z foydasini yuqori darajaga yyetkazish maqsadida bozor ishtirokchilari xarajatlarini minimallashtirish;

– iqtisodiyotning alohida subyektlari va faoliyat turlarining ixtisoslashuvi asosida bozor munosabatlari subyektlari ishining tezkorligi va samaradorligini oshirish;

– bozorda tarkib topgan konyunkturadan kelib chiqqan holda mahsulot tayyorlashga bo'lgan buyurtmalarni ko'paytirgan yoki kamaytirgan holda ishlab

chiqarish uchun bozor talabi indiqatori vazifasini bajarish;

– bozor munosabatlarini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirish;

– birja mexanizmidan foydalangan holda iste'mol mollari, ko'chmas mulk, ishlab chiqarish vositalarining ijtimoiy-zaruriy narxini belgilash;

– biznesni davlat va jamoat tomonidan tartibga solish, huquqiy va iqtisodiy jihatdan nazorat qilish shakllarini yengillashtirish;

– tovar va xizmatlarning bozor marketingi asosida barcha iste'molchilar nomidan maydonga tushuvchi buyurtmachi funksiyasini bajarib, ishlab chiqarishni tartibga solish va boshqarish imkonini yaratish.



1.2.2-rasm. Bozor infratuzilmasining maqsadi, asosiy vazifa va tamoyillari.

461235

Bozor infratuzilmasi tushunchasi, uning maqsadi va vazifalarini yoritishga yana ko‘plab olimlar o‘zlarining qarashlarini berishgan. Xususan, A.Bekmurodov boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan "Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari" nomli o‘quv qo‘llanmasida infratuzilmaning turlarini va vazifalarini yoritishga quyidagicha yondashilgan. Bu yondashuvlar bozor infratuzilmasining ma'lum taraflarini yoritsada, ba'zi bir holatlarni kengroq yoritish mumkinligini ko‘rishimiz mumkin (1.2.3-rasm).



1.2.3-rasm. Hozirgi bozor infratuzilmasi va uning vazifalari[9].

[9] Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o‘zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo‘llanma. (Bekmurodov A.Sh., Gimranova O.B., Shanshiyeva Z.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009. - 92 b. (elektron versiyasi bilan).

Aynan bozor infratuzilmasini yoritishga mualliflar tomonidan bozorlarning turlari va ularning infratuzilma sifatida amal qilishini ta'minlovchi infratuzilmalarini uslubiy jihatdan tushuntirishga harakat qilingan. Bu borada bozor infratuzilmasining vazifalariga yondashuvda ularning iqtisodiyotning barcha sohalaridagi faoliyatini, ularning uslubiy jihatdan sohalar bilan aloqalari va ta'sir etish jihatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Bozor infratuzilmasining yuqorida sanab o'tilgan vazifalari doimo ham bir xil darajada muvaffaqiyatli amalga oshavermaydi. Bunda, eng avvalo, muayyan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi, iqtisodiy tizimning tarkibiy tuzilishi, infratuzilma unsurlarining harakat doirasi uchun sharoitlarning yetarliligi, bozor mexanizmiga to'sqinlik qiluvchi omillarning mavjudligi kabi holatlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, iqtisodiyotda bozor infratuzilmasining amal qilish jarayoni samarali bo'lishi uchun quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

–***harakatchanlik.*** Iqtisodiyotning barcha jabhalari singari bozor infratuzilmasi sohasida ham resurslarning sarflanishi erkinlik va raqobat kurashi ta'sirida yuqori harakatchanlik xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Bu esa mazkur sohaga yo'naltirilgan resurslarni bir joydan ular yanada samarali foydalanishi mumkin bo'lgan boshqa joyga tashlash, safarbar etish imkoniyati orqali baholanadi;

–***bozorning barcha ishtirokchilari uchun foydalanish imkoniyati.*** Bozor infratuzilmasi unsurlarining tarkib topishi tabiiy ravishda – ehtiyoj va imkoniyatlar asosida borishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ma'lum maqsadlarning mushtarakligi tamoyiliga ham muvofiq kelishi lozim. Ya'ni, infratuzilmaning turli unsurlari mamlakatning barcha hududlarini qamrab olishi, joylashgan manzilidan qat'i y nazar, mijozlarni o'z xizmatlari bilan ta'minlashi lozim;

–***moslashuvchanlik.*** Bozor infratuzilma bo'g'inlari iqtisodiy konyunktura, talab va taklif, raqobat darajasi va boshqa jarayonlarning holatidan kelib chiqqan holda o'zaro birlashish, ajrala-

ish, o'ziga yangi vazifalarni qabul qilish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

–***ishonchlilik.*** Yuqorida ta'kidlanganidek, infratuzilmaga uncha ahamiyatli bo'lmagan, ikkinchi darajali soha sifatida qarash mumkin emas. Shu bilan birga, mazkur sohaning ahamiyatini oshirishga shartnoma va bitimlar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni qat'i y belgilangan muddatlar va muayyan sifatda bajarilishini ta'minlash orqali erishish lozim;

–***barqarorlik.*** Bozor infratuzilmasi sohasining eng «nozik» tomoni – uning barqarorligining asosiy tarmoq va sohalar barqarorlik darajasiga bog'liqligidir. Shunga ko'ra, bozor infratuzilmasi nomuvofiq talab va taklif sharoitida ishlash uchun zaxiralarning mavjudligi taqozo etiladi;

–***har bir bo'g'inning ishida ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti hisobiga erishiluvchi samaradorlik.*** Aynan bozor infratuzilmasi muassasalari tabiati uchun faoliyat yo'nalishlarining serqirraligi, yuqori darajadagi diversifikatsiya emas, balki ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti tavsifli hisoblanadi. Bozor infratuzilmasi asosiy soha uchun shug'ullanish noqulay yoki samarasiz bo'lgan «maydoncha»ni aniqlab, unga ixtisoslashuv orqali faoliyat ko'rsatishi asosiy qoida hisoblanadi;

–***o'zini-o'zi tartiblash.*** Korxona belgilagan narx va uning chakana narxi o'rtasidagi farq hisobiga tashkil topuvchi, cheklangan daromadlar doirasida amal qilib, muntazam ravishda qayta moslashib turishga undovchi o'zini-o'zi tartiblash bozor infratuzilmasining harakat mexanizmi hisoblanadi;

–***ichki raqobatning mavjudligi.*** Iqtisodiyotning barcha jabhalari singari bozor infratuzilmasi sohasida ham uni kuchsizlantiruvchi, taraqqiyotini sekinlashtiruvchi omil – yakkahukmronlik hisoblanadi. Shunga ko'ra, yakkahukmronlikning vujudga kelishi va rivojlanishiga qarshi kurashuvchi turli bo'g'inlar o'rtasidagi ichki raqobatning mavjudligi soha faoliyati samaradorligining asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bozor infratuzilmasining iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq ochib berish uning tarkibiy qismlarini aniqlash va rivojlanish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

1.3. Bozor infratuzilmasi nazariyasini o'rganishdagi muhim yondashuvlar

Yuqorida ta'kidlanganidek, bozor infratuzilmasi tarkibiy qismlarini turkumlarga ajratishda yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, ba'zi bir tuzilmalarning alohida bozor turlari bilan o'zaro aloqadorligi mavjud emas. Balki, ular barcha iqtisodiy munosabatlarni, shu jumladan, bozor aloqalarini ham tartibga solib turadi yoki ularning samarali amalga oshishi uchun ko'maklashadi. Jumladan, soliq idorasi, sug'urta muassasasining ba'zi turlari, bojxona, emissiya banki kabi tuzilmalar bevosita davlat tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ular iqtisodiy faoliyatning zarur me'yor va tartiblarda olib borilishini ta'minlashga xizmat qiladilar.

Bozor infratuzilmasi unsurlarining tarkib topishi va rivojlanishi darajasi turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin.

Bu esa:

–iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi;

–unda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning xususiyatlari;

–infratuzilma sohasining rivojlanishiga bo'lgan e'tibor;

–davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning mavjudligi kabi bir qator omillar ta'siri ostida shakllanadi.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda bozor infratuzilmasining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda bozor infratuzilmasini ta'riflashda, rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi uslubiy yondashuvlar tavsiya etiladi:

– funksional;

– tarmoq;

– bozorlarga xizmat qilish;

– hududiy faoliyati:

– mulk shakllari;

– rivojlanganlik darajasi.

Bozor infratuzilmasining funksional belgisi takror ishlab chiqarish jarayonining uzliksizligini ta'minlashdagi rolini to'liq ochib beradi, ya'ni: savdo vositachilik, moliya-kredit, iqtisodiy-axborot, iqtisodiy-huquqiy, tashqi iqtisodiy kabilarni.

Tarmoq nuqtai nazaridan – savdo, ta'minot, mahsulotni sotish, tayyorlov, moliyalash, kredit, sug'urta, axborot-hisoblash, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar va umumiy tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan infratazilma.

Bozorlarga xizmat qilish belgisi bo'yicha:

– turli bozorlarga xizmat qiluvchi universal xarakterga ega bo'lgan umumbozor infratuzilmasi (tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, maslahat, auditorlik firmalari, axborot muassasalari va hokazolar);

– alohida bozorlarga xizmat qiluvchi infratuzilma (iste'mol bozori, ishlab chiqarish vositalari, moliya va ko'chmas mulk bozorlari va hokazolar).

hududiy faoliyati bo'yicha:

– xalqaro (xalqaro banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalari, chet el firmalari, vakolatxonalari, chet el banklari filiallari, tashqi savdo firmalari, bojxona tashkilotlari, xalqaro yarmarkalar va hokazolar);

– milliy (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Respublika fermer xo'jaliklari uyushmasi, Tovar-xomashyo birjasi, Respublika fond birjasi, Agrobank va hokazo);

– hududlararo (hududiy tovar birjalari, hududlararo ulgurji savdo uyushmalari va hokazo);

– hududlar (viloyatlardagi ulgurji savdo, tijorat banklari, savdo uylari va hokazolar);

– shahar va tumanlardagi (ulgurji va kichik ulgurji, marketing, reklama firmalari, advokatlik idoralari, auditorlik firmalari va hokazolar).



1.3.1-rasm. Bozor infratuzilmasi tarkibiy qismlarining bozor turlari bo'yicha turkumlanishi.

Mulk shakllari jihatidan:

–davlat, korporativ va xususiy mulk shaklidagi infratuzilma;

–ijtimoiy tashkilotlar mulkiga taalluqli bo'lgan infratuzilma (masalan, tijorat banklari uyushmasi, birja ittifoqlari va boshqalar);

–xorijiy mulkdorlarga tegishli bo'lgan infratuzilma (xorijiy davlatlar banklari filiallari, savdo korxonalari vakolatxonalari va hokazo);

–aralash mulk shaklidagi infratuzilma.

Rivojlanish darajasi bo'yicha:

–eski tizimdan qolgan va hozirgi davr tijorat va biznesning rivojlanishi munosabati bilan tubdan o'zgartirishni talab qiladigan infratuzilma;

– yangi shakllantirilgan infratuzilma;

– shakllangan va o'zining faoliyati doirasi bilan hozirgi zamon bozor talablariga javob beruvchi infratuzilma[10].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bozor infratuzilmasi bozorning o'z vazifalarini bajarishi, uning samarali amal qilishi uchun bevosita xizmat qiluvchi, shart-sharoit yaratuvchi va ko'maklashuvchi muassasalardan iborat ekan, ularni tasniflashda asosan bozor turlari nuqtayi nazaridan yondashish to'g'ri bo'ladi. Biroq, bu o'rinda shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, bozorni turkumlashning o'zi shartli bo'lib, aksariyat manbalarda uning bir-biridan farqlanuvchi tarkiblari ifoda etiladi. Shunga qaramay, bozorning eng asosiy turlari bo'yicha infratuzilma unsurlarining turkumlanishini 3-chizma orqali yaqqol tasavvur etish mumkin.

Chizmadan ko'rinadiki, infratuzilma tarkibiy qismlarining turli bozorlarga xizmat ko'rsatish darajasi ham farqlanadi. Agar reklama agentligi barcha bozorlar uchun o'z xizmatini taklif etsa, auksion, savdo palatasi, savdo firmasi va supermarket singari tuzilmalar ikki va undan ortiq bozor turlariga xizmat ko'rsatadilar. Shu bilan birga, infratuzilma unsurlari orasida aksariyatini bozorning

[10] Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi (agrar sektor misolida). I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. – T., 2001. 55–56-b.

biron-bir turiga ixtisoslashgan muassasalar tashkil etadi (masalan, mehnat birjasi, investitsiya fondi, ipoteka banki va hokazo).

Bilimni mustahkamlash bo'yicha nazorat savollari:

1. Bozor infratuzilmasi nazariyasi fani nimani o'rganadi?
2. Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Bozor infratuzilmasi nazariyasi fanining bugungi kundagi ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?
4. Bozor infratuzilmasi nazariyasi fani boshqa qaysi fanlar bilan bog'liqlikda o'rganiladi?
5. Bozor infratuzilmasi nima?
6. Bozor infratuzilmasining maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Bozor infratuzilmasi amal qilishining qanday tamoyillari mavjud?
8. Infratuzilma turlari va ular faoliyati yo'naltirilgan sohalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni izohlab bering.
9. Turli mamlakatlarda bozor infratuzilmasi unsurlarining tarkib topishi va rivojlanishi qanday omillar ta'sirida amalga oshadi?
10. Bozor infratuzilmasini ta'riflashda qanday uslubiy yondashuvlar tavsiya etiladi?
11. Bozor infratuzilmasi tarkibiy qismlarining bozor turlari bo'yicha turkumlanishini izohlang.

2-bob. BOZOR INFRATUZILMASI NAZARIYASI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

2.1. Bozor infratuzilmasi nazariyasining shakllanishi va O'zbekistondagi uning asosiy jihatlari

Infratuzilma to'g'risida so'z borganda, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, u qandaydir mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydi, balki faqat uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Iqtisodiyotning infratuzilmaga oid unsurlari iqtisodiyot tomonidan infratuzilmaning zimmasiga yuklatilgan o'ziga xos vazifalarning hosilasi hisoblanadi. Bu vazifalar vaqt o'tishi bilan o'zgarib hamda asosiy ishlab chiqarish vazifalaridan tobora alohidalashib boradi. Shunga ko'ra, infratuzilmaning mohiyatini aniqlashda uning dastlabki belgisi bo'lib ishlab chiqarishni zarur shart-sharoit bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan vazifasi maydonga tushmog'i lozim. Zero, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Infrastruktura kompleksi – iqtisodiyotimizning butun strukturasi tayanadigan poydevordir. Respublika butun xalq xo'jalik kompleksi ishining uyg'unligi, uning samaradorligi, shuningdek, chet el sarmoyalarini jalb qilish va o'zlashtirish imkoniyati butunlay infrastruktura tizimi rivojining holatiga va darajasiga bog'liqdir[1]".

O'zbekistonda bozor infratuzilmasining shakllanishi O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tgan ilk yillaridayoq namoyon bo'la boshladi va uning samarali amal qilishini ta'minlash bo'yicha Prezidentimiz asarlarida va ma'ruzalarida juda ko'p marta alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan.

A.Bekmurodov va boshqa mualliflarning "Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari" nomli o'quv

---

[1] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995, 240-b.

qo'llanmasida infratuzilmaning mazmuniga "Bozor infratuzilmasi – bu tovar va xizmatlar harakatini vositalovchi tashkiliy-huquqiy shakllar yig'indisi" deb ta'rif berilgan. Shu bilan birga ushbu qo'llanmada infratuzilma mazmuni bilan bog'liq bo'lgan, uning belgi va mezonlarini tavsiflovchi boshqa tushunchalarga ham ta'rif berilgan. Jumladan, "Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasi – bu alohida bozorlar doirasida harakatlanuvchi va ularning me'yoriy tartibda amal qilishini ta'minlash bo'yicha ma'lum vazifalarni bajaruvchi o'zaro bog'liq ixtisoslashtirilgan institutlar yig'indisi. Bozor infratuzilmasi institutlari – bozor munosabatlari amal qilishi, barcha bozor faoliyati turlarining muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlovchi korxonalar yig'indisi". Bu yerda bozor infratuzilmasini yoritishga asosan bozor iqtisodiyoti subyektlari nuqtayi nazaridan yondashilgan.

R.Joximsen infratuzilmani xo'jalik faoliyati darajasini oshiruvchi, hududlarda xo'jalik birligini tashkil etishga imkoniyat yaratuvchi, bir xilda sarf qilgan xarajatlariga oladigan daromadlarini tenglashtiruvchi moddiy, shaxsiy va institutsional faoliyat turlari va ular tashkilotlarining yig'indisi sifatida talqin qiladi[12].

Yana shunday nuqtayi nazar ham mavjudki, unga ko'ra infratuzilma qulay faoliyat maydonini ta'minlashga qaratilgan sanoat korxonalarining muvaffaqiyatli amal qilishi uchun zarur moddiy-texnikaviy sharoitlarni ta'minlovchi obyekt va inshootlarning yig'indisi sifatidagi jamg'arilgan moddiy boylikni tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi juda ko'plab omil va xususiyatlarni, jumladan, respublikamizning geosiyosiy va geostrategik holati; mineral-xomashyo resurslarining mavjudligi va tabiiy-iqlimiy sharoitlar; demografik ahvol; aholi an'analari, odatlari, hayot tarzi, mentaliteti; iqtisodiy tizimni bosqichma-bosqich isloh qilish; davlatning faol,

---

[12] Jochimsen R. Zheorieder Infrastruktur - Zubingen. Mohr. 1966. 51-b.

belgilovchi roli; islohotlarga qadar davrdagi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishidagi nomuvofiqliklar; kuchli ijtimoiy siyosat zarurligi kabilarni e'tiborga olgan holda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bozor mexanizmlarining samarali amal qilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni, shu jumladan, bozor infratuzilmasining to'laqonli faoliyatini ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Keng tarmoqli bozor infratuzilmasi – fond va ulgurji bozorlar, birjalar, kredit va moliya muassasalari, lizing va konsalting kompaniyalari, tadbirkorlarga xizmat qilishi lozim bo'lgan boshqa tuzilmalar tom ma'noda shakllantirilmas ekan, ular to'la kuch bilan ishlamas ekan, iqtisodiyotimizni ochiq, erkin, eng muhimi, samarali, qisqa qilib aytganda, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga aylantira olmaymiz[13]"

Bozor infratuzilmasining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, bunday xususiyatlardan biri bo'lib bozor infratuzilmasining samarali amal qilishini ta'minlashda davlatning alohida rolining zarurligi hisoblanadi. Chunki, bunday zaruriyat quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

– infratuzilma sohasidagi talab va taklifni tartibga solib turuvchi bozor mexanizmining samarali amal qilmasligi;

– infratuzilma obyektlari xizmatiga bo'lgan narxlar bo'yicha talabning elastik emasligi;

– infratuzilma xizmatlari bozorining notekis tarkibiy tuzilishi natijasida bozordagi muvozanatga erishishda davlat tomonidan aralashuvning zarurligi;

– infratuzilma sohasi faoliyatining rivojlanishi asosiy tarmoqning rivojlanish darajasiga bog'liqligi va boshqalar.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichidayoq iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, ya'ni mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish; narxni bosqichma-bosqich erkinlashtirish; moliya-kredit islohotini o'tkazish; iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

13 Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» – T.:O'zbekiston, 1999, 35-bet.

aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bir qatorda bozor infratuzilmasini yaratish ham muhim yo'nalish sifatida belgilab olindi. Bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida davlat tomonidan quyidagi chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutildi:

- bozor subyektlari o'rtasidagi bevosita xo'jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish;
- bozorning mavjud turlarini rivojlantirib, yangilarini vujudga keltirish;
- iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi idoralarni barpo etish;
- bozor sharoitida ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash.

Mamlakatimizda bozor infratuzilmasi rivojlanishining xususiyatlaridan yana biri – bu uning alohida holda emas, balki iqtisodiyotda olib borilayotgan o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishidir. Jumladan, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirishda davlat mulkini baholash, uni sotishga tayyorlash va sotish, yangi mulk egasiga berish, mulk egalari o'rtasidagi bitimlarni ro'yxatga olish, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishda salohiyatli mulk egalarini aniqlash, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajarish maqsadida ko'plab infratuzilma unsurlari barpo etildi. Shuningdek, iqtisodiyotning barcha sohalari, ayniqsa bozor infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi bank-kredit, sug'urta tizimlari faoliyatining erkinlashtirilishi ham yangi tashkiliy tuzilmalarning shakllantirilishiga imkon yaratdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, o'rta mulkdorlar sinfini qaror toptirishga bo'lgan e'tibor tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, ularning ish samarasini oshirishga ixtisoslashgan ko'plab tuzilmalarning vujudga kelishiga olib keldi.

Bozor infratuzilmasini yaratish uzoq davom etuvchi va murakkab jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, uning tarkibidagi tuzilmalarni barpo etish uchun ularning iqtisodiy tabiatidan kelib chiqqan holda alohida yondashuv zarur bo'lib, bu boradagi tadbirlar

bosqichma-bosqich va izchil ravishda amalga oshirib borilishi lozim. Shunga ko'ra, yurtboshimiz I.A.Karimov, avvalambor, bozor sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni ta'minlaydigan muhit yaratish zarurligini ta'kidlagan holda bozor infratuzilmasini yaratish birinchi darajali vazifalardan ekanligini ko'rsatib berdi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo'lgan iqtisodiy munosabatlar mexanizmini bozor mtnosabatlari mexanizmi bilan almashtirish va shu asosda ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar manfaatlari mushtarakligini ta'minlash, buning uchun «bevosita xo'jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish, tovarlar, sarmoya, ishchi kuchi va boshqa bozorlarni shakllantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, bozor infrastrukturasini vujudga keltirish, bozor sharoitida ishlay oladigan malakali kadrlar tayyorlash»[14] zarur.

2.2. Bozor infratuzilmasini turkumlashga zamonaviy yondashuvlar

Infratuzilma majmuiga kiruvchi sohalar iqtisodiy jarayonlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida o'ziga xos o'rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan ham infratuzilma tarmoqlarini ularning muhim belgilari jihatidan tasniflash uning alohida unsurlari va asosiy yo'nalishlarining takror ishlab chiqarish jarayonidagi o'rnini aniqlashga imkoniyat yaratib beradi. Infratuzilma majmuasining keng qamrovli xususiyatga egaligi, bevosita uni yagona mezon bo'yicha tasniflash imkonini bermaydi.

Shunga ko'ra, ilmiy manbalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilmaning asosiy yo'nalishlari sifatida ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy, institutsional, shaxsiy, ekologik, jahon va bozor infratuzilmasi ajratib ko'rsatiladi[15].

[14] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari. T.: O'zbekiston, 1993, 7-b.

[15] Qaralsin: Murodov Ch. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi (agrar sektor misolida). I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. – T., 2001.

Infratuzilmaning bu ko'rinishlarini bir-biridan ajratish, farqlash hamda ularning asosiy mohiyatini ifodalovchi ilmiy ta'riflash nafaqat nazariy, balki infratuzilma majmuasining iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rnini asoslashda muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkiban moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va korxonalarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'molchiga yyetkazishga tayyorlash, saqlash, o'rash, qadoqlash yoki joylashtirish, tovar joylanadigan yoki o'raladigan idishlar bilan ta'minlash, tashish, ta'mirlash hamda xatish kabi xizmatlar ko'rsatuvchi, ularning to'xtovsiz va samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi tashkilot va korxonalar majmuini tashkil etadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning tarkibiga kiruvchi tuzilmalar ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydi, balki takror ishlab chiqarishning muntazam va bir maromda kechishi uchun faqat bilvosita asosda zaruriy shart-sharoitlar yaratib beradi. Shuningdek, mazkur infratuzilmaning funksional xususiyati bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarida sarflangan mehnat unumli hisoblanadi, u milliy daromadning qiymatini ko'paytiradi;

– infratuzilma tarmoqlarida mahsulot yangi moddiy-ashyoviy shaklda yaratiladi;

– infratuzilma tarmog'i mahsulotini zahirada saqlash yoki omborga olish mumkin emas, chunki u tashish, saqlash va axborotni uzatish shaklida namoyon bo'ladi;

– ishlab chiqarish infratuzilmasini yordamchi, va ayniqsa, ikkinchi darajali soha sifatida tavsiflash mumkin emas.

Ijtimoiy-maishiy infratuzilma bevosita kishilarning ijtimoiy, ma'naviy, madaniy, ma'rifiy, ilmiy va shu kabi faoliyat yo'nalishlaridagi harakatlari, munosabatlari, o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash, rivojlantirishga xizmat ko'rsatuvchi tarmoq va subyektlar majmuidan iborat bo'lgan iqtisodiyotning alo-

hida bir bo'g'inidir. Ya'ni, ijtimoiy-maishiy infratuzilma aholining turmush tarziga bevosita bog'liq bo'lgan uy-joy qurilish, sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya berish, jismoniy tarbiya va sport, madaniy va maishiy, maxsus aloqa va transport, umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatish hamda kishilarning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etuvchi boshqa sohalarni o'z ichiga oluvchi, ularni bog'lovchi tizim sifatida ifodalanadi.

Shuningdek, iqtisodiy manbalarda ushbu soha "noishlab chiqarish sohasi", "xizmatlar sohasi", "sotsial infratuzilma" va shu kabi nomlar bilan ham ataladi. Shu tufayli ijtimoiy-maishiy infratuzilma sohasiga qarashlarning bir xil emasligi moddiy ishlab chiqarish sohasi va xizmatlarni aniq chegaralashda ma'lum qiyinchilik tug'diradi. Xizmatlar va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish asosan ishlab chiqarish sohasining bir qismini hamda taqsimot va iste'mol munosabatlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda jamiyat a'zolarining hayoti va faoliyati uchun moddiy, madaniy-maishiy va ijtimoiy sharoitlar yaratiladi. Bu sharoitlar esa jamiyatda erishilgan ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va mavjud ishlab chiqarish munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Ijtimoiy-maishiy infratuzilma aholining ijtimoiy va shaxsiy ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarini qondiruvchi ikki tomonlama xizmatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, uning tarmoqlarini ijtimoiy va maishiy guruhlarga birlashishini taqozo etadi.

Ijtimoiy infratuzilma insonning ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondiruvchi ijtimoiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarishning sharti bo'lib maydonga chiqadi. Bunga xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport kiradi. Maishiy infratuzilma esa aholining hayoti va faoliyati uchun uy-joy, maishiy sharoit yaratadi. Bu sohaga asosan savdo, umumiy ovqatlanish, yo'lovchi tashuvchi transport va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar kiradi. Infratuzilmaning bu qismi ijtimoiy infratuzilmadan ko'ra ko'proq moddiy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-maishiy infratuzilma qandaydir asosiy

tuzilma uchun yordamchi va uzatuvchi xizmat ko'rsatuvchi mexanizm hisoblanmaydi. Chunki, ijtimoiy xizmat ko'rsatish obyekti – aholi - noishlab chiqarish sohasi bilan ishlab chiqarish, iqtisodiyot va ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma munosabatlari bilan umumiy aloqasi bo'lmagan munosabatda bo'ladi.

Ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim berish, qayta malakasini oshirish (maorif, ta'lim);

– ish vaqti davomida mehnat unumdorligi pasayishining oldini olish (umumiy ovqatlanish, yo'lovchi transporti);

– mehnatga layoqatlilik davrining davomiyligini uzaytirish;

– xodimlarning dam olish shart-sharoitlarni yaratish, ularning madaniy saviyasini oshirish (turarjoy xo'jaligi, madaniyat, san'at).

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning o'xshash tomoni ham mavjud: har ikkala sohada ham tovar qiymatining o'zgarishi xizmat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Institutsional infratuzilma esa bevosita ijtimoiy xo'jalik yuritish faoliyatini tashkil etish, boshqarishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy va jismoniy shaxslar hamda davlat muassasalarini o'z ichiga oladi. Institutsional infratuzilmaning farqlantiruvchi xususiyati asosan uning mustaqil tarmoq yoki tarmoqning ichki tuzilishi tarzida namoyon bo'lmay, balki ularga tizim osti boshqaruvchi rolida xizmat ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish tizimida bajaradigan boshqaruvchilik vazifalariga ko'ra jamiyat, hudud, tarmoq, ishlab chiqarish va boshqa shu kabi darajalardagi institutsional infratuzilmalar farqlanadi. Ushbu infratuzilma turli-tuman va bir-biriga mustahkam bog'liq bo'lgan elementlarning murakkab tizimini tashkil etadi. Uning bir qism idoralari takror ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda bevosita ishtirok etadi, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarish

subyekti hisoblanadi, boshqa qismi esa muomala sohasiga xizmat ko'rsatadi. R.Ioximsen institutsional infratuzilmaga bergan ta'rifiga ko'ra, "institutsional infratuzilma – bu mavjud erkinlikni ta'minlovchi, mulk munosabatlari, meros qoldirish, ishga yollash va boshqalarga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquq-tartibotdir. Ushbu huquq-tartibot davlat tuzilishining siyosiy, subyektlarning iqtisodiy manfaatlari, etnik, diniy, irqiy va kasbiy xususiyatlarini hisobga olgan holda qonuniy mustahkamlangan bo'lmog'i kerak"[16]. Institutsional infratuzilmaning vazifasi ma'lum xo'jalik tizimida faoliyat yuritayotgan subyektlarga "yaxshi va qulay imkoniyatlar" da, ularning natijalari teng samaralar beradigan ichki huquq-tartibot asoslarini ishlab chiqishdir.

Ekologik infratuzilma bevosita tabiatni, atrof-muhitni, atmosfera ifloslanishining oldini olish, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, insonning tabiatga o'tkazadigan salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan davlat muassasalari, mahalliy hokimiyat, muhandislik inshootlari, laboratoriyalar va ekologiya bilan bog'liq bo'lgan davlat, xalqaro va ijtimoiy tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Ekologik infratuzilma qishloq jamoasining industrial rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Ushbu infratuzilma bevosita fan-texnika taraqqiyoti natijasida sodir bo'lgan salbiy jarayonlarga chek qo'yish asosida tabiatning cheklangan zaxiralaridan samarali foydalanish borasida nafaqat alohida hudud, mamlakat, balki xalqaro miqyosda o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishni o'z ichiga oladi.

Infratuzilma majmuyida **«shaxsiy infratuzilma»** ham muhim rol o'ynaydi. U o'zining mohiyatiga ko'ra xorij iqtisodiyotida qo'llanilgan tovar xo'jaligining samarali faoliyat yuritish vositasi bo'lgan "sotsial umumiy kapital" yoki jamiyatda kishilarning ma'naviy (aqliy), tadbirkorlik, kasbiy va boshqa faoliyatlarini tashkil etuvchi "inson kapitali" hisoblanadi. Shuning uchun ham shaxsiy infratuzilma mehnat taqsimlangan tovar xo'jaligida ishtirokchilarning, ularning umumxo'jalik faoliyatiga

[16] Федько В.П., Федько Н.Г. Инфраструктура товарного рынка. Ростов н/Д: Феникс, 2000, 32-b.

integratsiyalashuvining oshishini ta'minlovchi va ishlarini hisobga olgan holdagi soni va sifati (tayyorgarlik darajasi)ni qamrab oladi.

Telekommunikatsion infratuzilma – kompaniyaning telekommunikatsion infratuzilmasi – bu turli axborotlarni: avtomatlashgan boshqaruv tizimlari ma'lumotlari, elektron xabarlar, internet-grafika, turli fayllar hamda «ovoz» va video ko'rinishidagi axborotlarni uzatish vazifasini hal qiluvchi o'zaro aloqador tizimchalar majmuasidir.

Infratuzilma majmuasi ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismi bo'lib, bevosita o'zining umumiqtisodiy vazifasi miqyosida ishlab chiqarishga xizmat qiladi va uning umumiy sharti tarzida namoyon bo'ladi. Pirovard natijada esa, ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarning amalga oshishida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, muomala jarayonini tezlashtirish, yengillashtirish va bevosita iste'molni qondirish va nihoyat, takror ishlab chiqarish bosqichlarining uzluksizligini ta'minlaydi.

Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi harakati butun jahon infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi. Juda muhim transport tizimi (dengiz, daryo, havo, temir yo'l transporti) bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida axborot kommunikatsiyalari tarmog'i tobora ko'proq ahamiyat kasb etib boradi. Munosib umumjahon infratuzilmasi bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalmilallashuvini rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday infratuzilmaning ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan[17].

---

[17] Shodmonov Sh.Sh., Alimov R.X., Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Moliya». 2002, 380-b.

Bilimni mustahkamlash bo'yicha nazorat savollari:

1. Bozor infratuzilmasi nazariyasining shakllanishi jarayonini izohlab bering.

2. O'zbekistonda bozor infratuzilmasi nazariyasi shakllanishining asosiy jihatlari qanday?

3. Bozor infratuzilmasi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. Bozor infratuzilmasining samarali amal qilishini ta'minlashda davlatning alohida rolini zarurligi qanday holatlar bilan izohlanadi?

5. Bozor infratuzilmasi shakllanishining uzoq va murakkab jarayonligi qanday yondashuvlarni taqozo etadi?

6. Ilmiy manbalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilmaning qaysi asosiy yo'nalishlari ajratib ko'rsatiladi?

7. Ishlab chiqarish infratuzilmasi nima?

8. Ijtimoiy-maishiy infratuzilma deganda nimani tushunasiz?

9. Ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?

10. Institutsional infratuzilma nima?

11. Ekologik infratuzilma nima?

12. Shaxsiy infratuzilma deganda nimani tushunasiz?

13. Jahon infratuzilmasining mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

3-BOB. HOZIRGI ZAMON BOZOR INFRATUZILMASINING TURLARI VA TARKIBIY QISMLARI

3.1. Bozor infratuzilmasining turlari va tarkibiy qismlari

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bozorning ko'p bo'g'inli infratuzilmasini yaratishni talab qiladi. Bozor infratuzilmasi turli xil vazifalarni bajaruvchi tarkibiy qismlar, unsurlardan iborat tizimni namoyon etadi. Bozor mexanizmlarining to'liq, samarali amal qilishi infratuzilma tarkibiy qismlarining turli-tumanligi va yetarli darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Shunga ko'ra, bozor infratuzilmasining tarkibiy qismlarini belgilab olish, ularning har birining ahamiyatini o'rganish, iqtisodiy tabiatini ochib berish muhim hisoblanadi. Zero, hozirgi kunda bozor infratuzilmasi tarkibini belgilash, mazkur tizimga kiruvchi unsurlarni ko'rsatib berishda ma'lum nomuvofiqliklar mavjud. Jumladan, A.O'lmasov va M.Sharifxo'jaevlar bozor infratuzilmasiga bozor aloqalarini o'rnatishga va samarali yuritishga xizmat qiluvchi korxona, tashkilot va muassasalar majmuyi sifatida qarab, uni besh bo'g'inga ajratadilar:

1) ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma (transport, aloqa, ombor xo'jaligi, yo'l xo'jaligi, suv va energetika ta'minoti kabilar);

2) tovarlar va xizmatlar muomalasiga, ya'ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi infratuzilma (birjalar, savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari va agentliklari, davlatning savdo-sotiq va ularni nazorat etuvchi muassasalari);

3) moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma (tijorat banklari, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish mahkamalari, har xil pul fondlari);

4) aholiga xizmat qiluvchi yoki sotsial infrastuktura (uy-joy, kommunal va transport xizmati, maorif, madaniyat hamda

sog‘liqni saqlash muassasalari, aholini ishga joylashtirish firmalari va idoralari);

5) axborot xizmati (iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan har xil axborotlar – ma’lumotlar va xabarlarni to‘plash, umumlashtirish va sotish bilan shug‘ullanuvchi turli kompaniyalar, firmalar, maslahat idoralari, davlat muassasalari)[18] .

Ko‘rinib turibdiki, olimlarimiz bu o‘rinda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani ham bozor infratuzilmasi tarkibiga kiritib, moliya-kredit hamda axborot xizmati infratuzilmasi kabi yo‘nalishlarni mustaqil soha sifatida ko‘rsatib, masalani munozarali tomon yo‘naltiradilar.

Hozirda iqtisodiy adabiyot va qo‘llanmalarda bozor infratuzilmasining asosiy unsurlari sifatida odatda quyidagi obyektlarni ko‘rsatib o‘tiladi:

– birjalar (tovar, xomashyo, fond, valyuta), ularning tashkiliy rasmiylashtirilan vositachiligi;

– auksionlar, yarmarkalar va tashkiliy birjadan tashqari vositachilikning boshqa shakllari;

– kredit tizimi va tijorat banklari;

– emissiya tizimi va emissiya banklari;

– aholi bandligini tartibga solish tizimi hamda bandlikka davlat va nodavlat yo‘li bilan ko‘maklashish markazlari (mehnat birjalari);

– axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalari;

– soliq idoralari tizimi va soliq inspektsiyasi;

– tijorat xo‘jalik xavf-xatarini sug‘urtalash tizimi va sug‘urta kompaniyalari;

– maxsus reklama agentliklari, axborot markazlari va ommaviy axborot vositalari agentliklari;

– savdo palatalari, ishbilarmon doiralarning boshqa jamoat, ixtiyoriy va davlat birlashmalari (uyushmalari);

– bojxona tizimi;

[18] O‘lmasov A., Sharifxo‘jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Mehnat, 1995. 189-190-b.

– yollanib ishlovchilarning kasaba uyushmalari;
– tijorat-ko'rgazma komplekslari;
– oliy va o'rta iqtisodiy ta'lim tizimi;
– auditorlik kompaniyalari;
– maslahat beruvchi (konsalting) kompaniyalari;
– ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan ijtimoiy va davlat fondlari;
– erkin tadbirkorlikning maxsus hududlari[19].

Iqtisodiyotda moliya bozorlarining o'rni ham kattadir. Moliya bozorining asosiy maqsadi iqtisodiyotda kapitalning erkin oqimi hamda samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi uchun yetarli va zarur sharoitlar yaratishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi sharoitlar yaratilishi lozim:

– bozor iqtisodiyoti qonunlarining to'liq amal qilishi mexanizmini ta'minlash;

– xususiy mulkchilik samarali tizimining mavjudligi;

– monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar (jumladan, qimmatli qog'ozlar) sifatining yuqori ko'rsatkichlarini (likvidlilik jalbdorliligi va h.k.) ta'minlanganliligi. Bu ko'rsatkichlar raqobatni rivojlantirish va narxlar bo'yicha katta bo'lmagan kurs tafovuti hisobiga erishiladi;

– moliyaviy instrumentlarning erkin savdosini ta'minlovchi rivojlangan savdo tizimlarining mavjudligi;

– investorlarning haq-huquqlari himoyasini yuqori darajada ta'minlovchi bozorning samarali tartiblashtiruvchi (muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi) tizimining mavjudligi;

– moliya bozori qatnashchilari tomonidan ta'minlanadigan bozorning informatsion shaffofligi (transparentligi).

Ushbu sharoitlarda moliya bozori iqtisodiyotning samarali faoliyatini ta'minlaydi, investitsiyalarga muhtoj bo'lgan iqtisodiyot

[19] Экономическая теория. Учебное издание. Под общ. ред. В.И.Видяпина и др. Т.: ИПК «Шарк», 1999, 86-89-betlar.

subyektlariga investorlarning moliyaviy resurslarini jamlab, biznes maqsadiga ishlatishga, investorlarga mablag'larini orttirishga, davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishga ko'maklashadi. Umuman olganda, moliya bozori investitsiyalarga muhtoj va resurslarga ega bo'lgan qatnashchilarni bir-birlari bilan uchrashtirish asosida moliyaviy aktivlar almashinuviga ko'makłashadigan mexanizm sifatida namoyon bo'luvchi tizimdir.

Moliya bozori bir qator funksiyalarni bajaradi. Ularni to'rt guruhga: makroiqtisodiy, umumbozor, maxsus (ixtisoslashgan) va globallashtirish (meta, ya'ni xalqaro darajada moliyaviy globallashtirish) funksiyalariga ajratish mumkin.

Makroiqtisodiy funksiya jamg'armalarni investitsiyalarga samarali transformatsiyasini ta'minlab berishdan iborat.

Umumbozor funksiyasi, odatda, har bir milliy bozorga mansub. Maxsus funksiya esa uni boshqa turdagi bozorlardan farqlaydi.

Umumbozor funksiyasiga quyidagilar kiradi:

– tijoratni rivojlantirish funksiyasi (bu funksiya bozor qatnashchilarining o'zaro raqobat asosida daromad olishini ta'minlovchi funksiya);

– narx-navoni belgilash funksiyasi, ya'ni bozorda moliyaviy instrumentlarning bozor narxlari (kurslari) shakllanishi va ta'siri jarayonini, ularni bozor konyunkturasiga bog'liq tarzda uzluksiz harakatini (o'zgarishini) ta'minlaydi (bozor kurslari qanchalik tez shakllanib barqarorlashsa, moliya bozorida bu instrumentlar shunchalik samara bilan joylashtiriladi va likvidliligi ta'minlanadi);

– axborot bilan ta'minlash funksiyasi, ya'ni bozor savdo obyektlari va savdo ishtirokchilari to'g'risidagi axborotni shakllantiradi va o'z qatnashchilariga havola qiladi;

– tartiblashtiruvchi (muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi) funksiya, ya'ni bozor o'zidagi savdo va unda ishtirok etish, qatnashchilar o'rtasidagi munosabatlar me'yorlarini va nizolarni hal qilish tartiblarini joriy qiladi, ustuvor yo'nalishlarni aniqlaydi,

nazorat organlarini va tartiblarini belgilaydi, bozor qatnashchilari tomonidan bu me'yor va tartib-qoidalarga rioya qilinishini nazorat qiladi va h.k.

Moliya bozorining *maxsus funksiyalariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

– moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi. Uni o'z navbatida to'rt kichik funksiyaga ajratish mumkin: 1) moliyaviy resurslarni tarmoqlar va bozor faoliyati sohalari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash; 2) jamg'armalarni, ayniqsa aholi jamg'armalarini, noishlab chiqarish shaklidan ishlab chiqarish shakliga o'tkazish (transformatsiyalash); 3) noinflyatsion asosda, ya'ni muomalaga qo'shimcha pul chiqarmasdan davlat budjetini moliyalashtirish; 4) pul massasini boshqarish;

– narx va moliyaviy risklarning oldini olish funksiyasi, yoki hosilaviy qimmatli qog'ozlar (fyucherslar, optsionlar, svop, forvard va h.k.)ning hosil bo'lishi evaziga xedjirlash.

Moliyaviy globallashtirish funksiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– moliyaviy resurslarni umumjahon miqyosida globallashgan iqtisodiyot doirasida samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi;

– milliy moliya bozorlarini o'zaro integratsiyalashuvi (uyg'unlashuvi);

– moliya bozorlarining internatsionallashuvi;

– jahon globallashuvi jarayonlari (barcha yo'nalishlarda) rivojining katalizatori va h.k.

Moliya bozori vazifalarini *asosiy va qo'shimchalarga* ajratish mumkin. *Asosiy vazifalari* uning bozor munosabatlari tizimidagi ahamiyati va qulay sharoitlarni ta'minlashi bilan ifodalanadi (ular yuqorida sanab o'tilgan).

Moliya bozorining *qo'shimcha vazifalariga* quyidagilarni kiritish mumkin:

– emitentning moliya oqimlarini optimallashtirish;

– bozor qatnashchilarining ijobiy imidjini shakllantirish;

– emitentning iqtisodiy manfaatlarini himoyalash;

– biznesni rivojlantirish va qo‘shimcha ish joylarini yaratish;

– jahon moliya tizimiga integratsiyalashtirish;

– siyosiy huruj, moliyaviy va iqtisodiy qiyinchilik, moliyaviy repressiya va valyutaviy intervensiya vositasi sifatida ta’sir ko‘rsatish;

– investorlarning huquqlarini himoyalash va maqsad, manfaatlarining amalga oshirilishini ta’minlash.

Xalqaro mavqega ega bo‘lgan zamonaviy moliya bozori o‘zining asosiy roli doirasida (ya’ni, iqtisodiyotning holati “barometri”) jahon globallashuvi sharoitida iqtisodiyotda bir-biri bilan bog‘liq quyidagi rollarni o‘ynaydi.

1. “Iqtisodiyot muammolari darajasining metrikasi, o‘lchagichi”, ya’ni iqtisodiyotda omillar ta’siri ostida paydo bo‘luvchi muammolarni maxsus indikatorlar yordamida miqdorini o‘lchashga va shu asosda mas’ul davlat organi hamda iqtisodiyot subyektlari tomonidan siyosat yuritishda tegishli qarorlar qabul qilishga ko‘maklashadi.

2. “Moliyaviy resurslarni bozor konyunkturasi asosida iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida tartiblashgan tarzda samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishining kommutatori”. Bunda bozor konyunkturasi fiskal va monetar siyosatlar yordamida tartiblashtiriladi.

3. “Iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish katalizatori” sifatida ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi.

4. “Bozor qatnashchilari tarkibini insonparvarlashtiruvchisi” sifatida iqtisodiy globallashuvni rivojlantiradi.

5. “Moliyaviy instrumentlar va ular bilan bog‘liq operatsiyalarni standartlashtiruvchisi” sifatida moliyaviy globallashuv jarayonini rivojlantiradi.

6. “Iqtisodiyot subyektlarining investitsion faolligining stimulyatori” sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishni

ta'minlash. Investitsion faollik moliya bozorida investorlarning haq-huquqlarining himoyalanganlik darajasi va risklar sharoitida moliyani samarali boshqarilishiga bog'liq.

7. "Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi stixiyali jarayonlarni tartibga soluvchisi". Bunday jarayonlar ma'lum indikatorlar (ko'rsatkichlar) yordamida baholanib, ularning kritik (chegaraviy) qiymatlarini bilgan holda ma'lum regulyativ vositalar yordamida tartiblashtiriladi.

8. "Bozor narxlari stabilizatori" sifatida bozor savdosi tendensiyalarini (dinamikasini) barqarorlashtiradi, talab va taklifni muvozanatlashtiradi.

9. "Iqtisodiyotni tartiblashgan faoliyatini ta'minlovchi algoritmik protsessor" sifatida barcha moliyaviy munosabatlarni bozor qatnashchilari tomonidan maqsadli strategik tarzda amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

10. "Aktivlar sekyuritizatori" sifatida samarasiz real aktivlarni qimmatli qog'ozlarga transformatsiyalab, ularga yangi hayot bag'ishlaydi va faol investitsion jarayonga qayta kiritadi.

11. "Iqtisodiyot subyektlari informatori" sifatida ularning risklarini pasaytirishga (yoki boshqarishga) ko'maklashadi.

12. "Innovatsion moliyaviy vositalar (mahsulotlar va operatsiyalar) sintezatori" sifatida raqobatbardoshlik va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlaydi.

13. "Moliyaviy vositalarning maxsus industriyasi" sifatida bozor qatnashchilari uchun moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq faoliyat bo'yicha ishlab chiqarish jarayonini tashkillashtiradi.

14. "Iqtisodiyotning investitsion muhiti sifati va muammolari darajasining analizatori" (1- va 11- rollar bilan hamohang tarzda).

15. "Bozor qatnashchilariga o'z muammolarini anglashga, baholashga va hal qilishga ko'maklashadigan mexanizm".

16. "Ekvivalent ko'zgu" sifatida barcha bozor qatnashchilarining faoliyat natijalari sifatini bevosita va bilvosita aks ettiradi hamda kelajakdagi strategiyalarini maqsadli qurishga ko'maklashadi.

17. "Spekulyativ operatsiyalar totalizatori" sifatida bozor qatnashchilarini kutiladigan, ammo riskli manfaatlar tomon chorlaydi. Bunda emitentlar qimmatli qog'ozlari sifatini investorlarning orzuli maqsad va manfaatlarini kerakli (spekulyativ) darajada ta'minlashga majburlar, aks holda investorlardan mahrum bo'ladilar. Sababi, emitentlar iqtisodiy rivojlanish uchun yangi va qo'shimcha investitsion resurlarga muhtoj, investorlar esa moliya instrumentlari bo'yicha kam (yoki ko'p) riskli bozor daromadiga intiladilar, chunki, aynan spekulyativ investorlar iqtisodiyotda investitsion muhitni belgilaydilar. Shunday qilib, moliya bozori spekulyativ investorlarning jon-jahd bilan faoliyatga kirishi muhitini qizdiradi, moliyaviy instrumentlarni muomalaga chiqaruvchilarni esa doimiy tarzda moliyaviy barqarorlikka majbur qiladi, investitsiyalarni kiritishga oid raqobatli kurashini kuchaytiradi, natijada bozor raqobati muhitini ta'minlaydi.

18. "Moliya bozori qatnashchilarini bir butun infratuzilmaviy tizimga birlashtiruvchi" sifatida har bir qatnashchining o'z o'rnini, maqsad va vazifalarini, funksiyalarini, bir-biri bilan bog'liqlikdagi tartibli faoliyatini ta'minlaydi. Moliya bozorining bir butun tizimliligi deganda uni bir-biri bilan uzviy bog'langan unsurlardan (qatnashchilardan) iborat murakkab katta tizim (tuzilmaviy-funksional model) sifatida tashkillashgani tushuniladi. Har bir unsur bozorda o'ziga xos maqsadga va tegishli faoliyat turiga ega.

19. "Moliyaviy mahsulotlar (instrumentlar), resurslar va xizmatlar gipermarketi" sifatida barcha bozor qatnashchilarini ularning tovarlarini obyektiv narxlarda almashinuvi borasida uchrashtiradi va manfaatlarini qondirish uchun kerakli sharoitlarni yaratadi.

20. "Bozor muhiti" sifatida bozorda ochiq (erkin) iqtisodiyot qonunlarining amal qilinishini, iqtisodiyotni monetizatsiyalashuvini, kapital aylanmasi va transformatsiyasini, aktivlar sekyuritizatsiyasi tamoyillarini ta'minlaydi. Bunda har bir mamlakat bozori muhiti o'zining quvvat potensiali miqdori doirasida aytilgan rolini bajaradi.

21. "Moliyaviy globallashtiruvchi" sifatida yuqorida keltirilgan rollar asosida milliy iqtisodiyotlar birlashuvini ta'minlaydi, bozor qatnashchilarining xalqaro darajada faoliyat chegaralarini va ta'sirini kengaytiradi, davlatning regulyativ rolini kamaytiradi (xalqaro regulyativ tashkilotlar evaziga), resurslar oqimini geografik kengaytirib tezlashtiradi va samaradorligini oshiradi.

22. "Moliyaviy instrumentlarning obyektiv kurslarda konvertori" sifatida valyutalarni va qimmatli qog'ozlarni erkin bozor narxlarida va hajmlarida raqobatli almashinuvini ta'minlaydi.

23. Investorlarning mablag'lari uchun kuchli raqobatli kurash sharoitida "Investitsion loyihalar seleksiyasini va strukturaviy (tuzilmaviy) islohotlarni amalga oshiruvchi mexanizm" roli. Ushbu rolning samarali bajarilishi yuqorida keltirilgan rollarga hamohang bo'lib, davlatning monetar (asosan foiz stavkasini o'zgartilishi) va fiskal siyosatlari bilan bog'liq iqtisodiy o'sish modelida katta ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, keltirilgan rollar faqat ochiq bozor iqtisodiyoti sharoitida, o'ta rivojlangan biznes va xususiy mulkchilik tizimida to'liq bajarilishi mumkin. Bunday sharoit va tizimga ega bo'lmagan mamlakatlarning bozori yuqori darajada rivojlangan davlatlar bozoriga qaram bo'ladi[20].

Moliya bozori, jumladan qimmatli qog'ozlar bozori, faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

– barcha potensial investorlar o'z mablag'larini foydali tarzda joylashtirishlari uchun ularga teng shart-sharoitlar yaratib berish;

– bozorda tuziladigan bitimlarning ixtiyoriyligi;

– erkin raqobat yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish;

– narxlarni real tarkib topadigan talab va taklif asosida belgilash;

---

[20] Эрнандо де Сото. Секрет капитала. Почему капитализм торжествует на Западе и терпит поражение во всем остальном мире./Пер. с англ.–М.: Олимп-Бизнес, 2001.–272 b.

– bozor to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga uning barcha qatnashchilari tomonidan rioya etilishi;

– birja va birjadan tashqari operatsiyalar, kotirovkalar, emitentlarning moliyaviy holati to‘g‘risidagi axborot oshkor etilishining shartligi;

– o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan barcha investorlar va emitentlar uchun bozordan foydalanish mumkinligi;

– moliyaviy instrumentlar (qimmatli qog‘ozlar) va ularning emitentlariga doir axborotning to‘la oshkor etilishini, oshkoralikni va bu axborotdan barcha qatnashchilar foydalana olishini ta’minlash;

– investorlar va emitentlarning manfaatlarini himoya qilish;

– bozorda tovlamachilik va boshqa noqonuniy faoliyatni taqiqlash hamda ta’qib qilish.

Moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyat ko‘rsatishining asosiy tamoyillariga rioya etilishi davlatning tartibga solishga oid chora-tadbirlari bilan birga fond birjalari va bozor qatnashchilarining birlashmalari (uyushmalari) ishlab chiqqan qoidalarini uyg‘unlashtirish asosida ta’minlanadi[21].

3.2. Bozor aloqalarini jadallashtirishga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma muassasalari

Bozor infratuzilmasi nazariyasini o‘rganishda uning tarkibiga kiruvchi eng muhim unsurlarining alohida xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Tovar birjasi – oldindan belgilangan qoidalarga muvofiq ravishda ulgurji va xalqaro savdoni tashkil etish shaklidir. Tovar birjasi unda o‘tkaziladigan savdoning muntazamligi, uning qat’i y belgilangan joyda amalga oshirilishi, tovar sifati, uni yyetkazib berish shartlari va muddatiga bo‘lgan asosiy talablarning bir xil shaklga keltirilishi, kelgusida yyetkazib berish sharti bilan bitim

[21] Shoha’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. Darslik.-T.: Iqtisod-moliya, 2007.- 495 b.

tuzish kabi belgilari bilan ajralib turadi.

Respublikamizda birja faoliyatiga maxsus ruxsatnomalar berishning muhim shartlaridan biri birja savdolarida qatnashuvchi xo'jalik subyektlarining yagona elektron savdo tizimi bilan bog'liq bo'lishidir.

O'zbekiston Respublika Tovar-xomashyo birjasida elektron savdo tizimini joriy etilishi quyidagi maqsad va vazifalarini ko'zlab amalga oshirilmoqda:

–mamlakatda yagona birja hududini yaratish, umumiy milliy tovar bozorini shakllantirish;

–birja operatsiyalari va tovar bozorlarining erkinligi va oshkoraligini oshirish;

–birja savdolaridagi raqobat muhitini, savdo ishtirokchilari sonini oshirish;

–respublikamiz birja savdolariga chet ellik xo'jalik subyektlarini jalb etish, O'zbekiston tadbirkorlarini chet el tovar bozorlariga chiqishlari uchun imkoniyatlar yaratish;

–kun-u tun davomida savdo imokoniyatini yaratish;

–birjadagi eksport-import operatsiyalar bitimlari yuzasidan joriy xarajatlarni kamaytirish;

–kichik shahar va qishloq joylaridagi tadbirkorlar uchun, joylashishidan qat'i nazar, birjadagi savdolarda qatnashish imkoniyatini yaratish;

–elektron savdolarida qatnashuvchi xo'jalik subyektlarining doirasini muntazam ravishda kengaytirib borish.

Tovar-xomashyo birjasida elektron savdo tizimida ishtirok etishi mumkin bo'lgan xo'jalik subyektlarining doirasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

–tovar ishlab chiqaruvchilar, savdo korxonalari, xususiy tadbirkorlar, jurnalistlar, talaba-o'quvchilar va boshqa birja savdolari haqidagi axborotga zaruriyati bor shaxslar;

–birja savdolarida qatnashmaydigan va lekin o'z faoliyatlari uchun "biznes navigator" ma'lumot manbasidan foydalanuvchi

tovar ishlab chiqaruvchilar, xususiy tadbirkorlar;

–malakali brokerlar vositachiligida birja savdolarida qatnashuvchi tovar ishlab chiqaruvchilar, savdo korxonalari;

–mustaqil qatnashuvchi tovar ishlab chiqaruvchi va savdo korxonalari dilerlari, uzoq masofada turib birja savdolarida o'z mahsulotlari yuzasidan savdo olib boruvchi subyektlar;

–mustaqil elektron brokerlar va boshqalar.

Birja bitimlari turlari juda murakkab tizimga ega bo'lib, ulardan muhimlarini quyidagi tartibda turkumlash mumkin (3.2.1-rasm).



3.2.1-rasm. Birja bitimlari turlari.

Tovar-xomashyo birjasida elektron savdo tizimi quyidagi imtiyozlarni beradi:

–qayerda bo'lishlaridan qat'i nazar, Internet tizimiga bog'lanib, maxsus kompyuter dasturi va qayd etilgan ruxsatnomaga ega bozor qatnashchilariga oldi-sotdi muzokaralarida qatnashish;

–biznes operatsiyalarining tezkorligi (bir lahzada bir nechta operatsiyalar olib borish imkoniyati borligi) hisobiga tijorat ko'rsatkichlarining mislsiz o'sishi.

Rasmdan ko'rinadiki, eng avvalo birja bitimlari turlarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1) real (mavjud) tovarlar yuzasidan tuziladigan bitimlar;

2) real tovarsiz bitimlar.

Real (mavjud) tovar yuzasidan tuziladigan bitimlar quyidagilarga bo'linadi:

–real tovarlarni darhol yyetkazib berish bo'yicha bitimlar;

–forvard, ya'ni ma'lum muddatdan so'ng yetkazib berish shartiga ega bo'lgan bitimlar;

–barter bitimlari;

–turli o'zaro kelishilgan shartlar bilan tuziladigan bitimlar.

Forvard bitimlari o'z navbatida garov asosidagi bitimlar va mukofotli bitimlarga bo'linadi.

Tovonli bitimlar esa xarid bitimlar va sotuv bitimlarga bo'linadi.

Mukofotli bitimlarni ham o'z navbatida quyidagilarga ajratish mumkin:

– oddiy bitimlar;

– ikkiyoqlama bitimlar;

– bitimlardan qaytish imkoniyati bor bitimlar;

– murakkab bitimlar (oddiy bitim bilan ikkiyoqlama bitimlarning qo'shilgani);

– qisqa bitimlar (hajm ko'rsatkichi ma'lum mukofot evaziga oshirilishi ko'zda tutilgan).

Oddiy bitimlar o'z navbatida xarid bitimlar va sotuv

bitimlariga bo‘linadi.

Garov asosidagi birja bitimlari majburiyatlarida bir kontragent ikkinchi kontragentga bitim tuzish chog‘ida ikkala tomon uchun qoniqarli ma’lum kafolatli to‘lovni amalga oshirishi ko‘zda tutilgan bitimlardir.

Mukofotli bitimlarda bir kontragent ikkinchisiga maxsus majburiyatda bitim tuzish evaziga kelishilgan mukofotni to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi yoki mukofot to‘lanmasa, ikkinchi tomon kontragent bitimdan butunlay voz kechishi ko‘zda tutilgan birja bitimidir.

O‘zbekiston Respublikasining “Birja va birja faoliyati haqida”gi qonunida belgilanishicha, brokerlik faoliyati birja vositachiligi faoliyatining muhim qismi bo‘lib, uning mazmuni quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

– mijoz hisobidan va nomidan birja bitimlari tuzish;

– birja vositachisi nomidan va mijoz hisobidan, birja vositachisi hisobidan bitimlar tuzish huquqiga ega birja xizmatchisi.

Brokerlik firmalari xususiy tadbirkorlik korxonalari hisoblanib, ular mas’uliyati cheklangan jamiyat, hamkor korxona, shaxsiy-xususiy korxonalar shaklida bo‘lishlari mumkin.

Brokerlik firmalari yuridik (huquqiy) shaxs maqomiga ega bo‘lmasliklari, biron-bir korxona, tashkilotning tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritishlari ham mumkin.

Odatda brokerlik xizmatlari faoliyatlari quyidagi funksiyalarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

– birjada buyurtmachining buyurtmasi bo‘yicha birja bitimlari tuzishda vositachilikni amalga oshirish (faqat yetarli darajadagi malakaga egaligi haqidagi guvohnomasi va attestati mavjudligida);

– birjadan tashqaridagi vositachilik ya’ni, birjadan tashqarida tuzilayotgan oldi-sotdi shartnoma-bitimlarida vositachilik qilish;

– birja va marketing faoliyatlari yuzasidan turli maslahatlar berish, zarur tijorat axborotini yig`ish;

– tuzilgan bitimlar bo‘yicha zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

–O‘zbekiston Respublikasi amaliy qonunlari va me’yoriy hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa funksiyalarni bajarish imkoniyatiga egadir.

Birja faoliyatida brokerlik xizmatidan foydalanish mijozlarga quyidagi imtiyozlarni beradi:

–o‘z shaxsiy xarajatlarini oshirmay turib, savdo operatsiyalari hajmini sezilarli darajada o‘sishiga erishish;

–yuqori malakali savdo personali xizmatidan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi;

–savdolashuv operatsiyalariga brokerlik firmalar xizmatini jalb etish, xizmat xarajatlarini savdo hajmidan ma’lum foiz miqdorida hisoblash imkoniyatini beradi.

Investitsion bank yangi chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda sarmoya resurslarini safarbar qilishni istovchilar aksiyadorlik jamiyati va investorlar o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradilar. Investitsiya banki rahbariyati jamiyat rahbariyati hamkorligida safarbar qilinishi zarur bo‘lgan pul miqdorini, muomalaga chiqarilishi mo‘ljallangan qimmatli qog‘oz turini, ularni chiqarish va joylashtirish usullarini aniqlab oladilar.

Ko‘pgina hollarda investitsiya banklari yangi chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning hammasini sotib olib, keyinchalik o‘zlari qayta sotadilar. Bunday hollarda aksiyador jamiyat va investitsiya banklari o‘rtasida emissiya bitimi imzolanadi. Bu bitimga muvofiq yoki xaridor, yoki qimmatli qog‘ozni sotuvchi agent bo‘lishi mumkin. Agar xaridor sifatida harakat qilsa aksiyadorlik jamiyati emitentga qimmatli qog‘oz sotuvidan tushgan hamma pulni berish kafolatini bank o‘z zimmasiga olishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, bank sotilmay qolgan har qanday qog‘oz uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Investitsiya banki agent sifatida boshqacha harakat qilishi mumkin. Emissiya bitimiga muvofiq o‘z zimmasiga mumkin qadar ko‘p yangi chiqarilgan qog‘ozlar sotish majburiyatini olsa-da, hech qanday moliyaviy javobgarlikni o‘z zimmalariga olmasliklari ham

mumkin. Yangi chiqarilgan aksiyalarni sotish bitimda ko'rsatib o'tilgan ma'lum (bir necha kun yoki hafta) muddat ichida amalga oshiriladi. Xullas, bank yangi chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotishning muqobil yo'li vazifasini bajarish majburiyatini olishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlik jamiyati, emitent yangi qimmatli qog'ozni o'zi joylashtiradi, lekin bank bilan kelishuvga muvofiq bu ishga jalb qilinishi mumkin. Hamma emissiya bitimlarida odatda bozordan chiqish qoidalari ko'zda tutiladi. Unda bitim noxushliklar oqibatida bekor qilinishi, fond bozorida ahvol keskin yomonlashuvi, korxona moliyaviy ahvolining yomonlashuvi, hukumat tomonidan emitent yoki investitsiya bankining harakatini cheklovchi qonunlar qabul qilinishini ko'zda tutiladi.

Bitta investitsiya bankiga yangi chiqarilgan aksiyalar miqdori haddan tashqari ko'plik qilgan hollarda, bank boshqa investitsiya banklari bilan emissiya kompaniyalari tuzishi mumkin.

Yangi chiqarilgan aksiyalarni sotish aksiyalarga qiziqish bildirgan investorlarga o'z buyurtmalarini yuborishlarini iltimos qiluvchi xabar jo'natishdan boshlanadi.

Agarda potensial investorlarning qiziqishlari kutilganidek yuqori bo'lmasa, chiqaruvni me'yorlash choralari qabul qilinadi. Emissiya shartnomasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirishga kafillik beruvchi sotilmagan qog'ozlarini yoki sotib bo'lingan qog'ozlarni o'zi sotib olishga tayyor bo'lishi kerak.

Birjaning barcha shakllarida kelishuvning xususiyatli belgisi ishchi kuchi, tovar, aksiya va valyuta kurslariga, narxning tebranib turishiga chayqov yo'li bilan ta'sir qilishdir.

Birjada uning qatnashchilari ayirboshlash to'g'risida bitim tuzadi, lekin tovar yetkazib berish va uning haqini to'lash birjadan tashqarida yuz beradi. Bunda tovar egasi va xaridorlar qatnashishi shart emas. Ular nomidan ishni brokerlar yuritadi. Broker yoki makler – bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma. Ular odatda mijozlar topshirig'iga ko'ra va uning hisobiga ish yuritadi,

kafolat beruvchi hisobiga o‘z nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin.

Birjaning yana bir xususiyati shundaki, bu yerda hali ishlab chiqarilmagan, lekin tayyorlanishi aniq bo‘lgan, oldin sotib olinib, egasi ixtiyoriga kelib tushmagan tovarlar ham sotiladi.

Birjalar ixtisoslashgan yoki universal bo‘lishi mumkin. Ixtisoslashgan birjalarda ayrim turdagi yoki bir guruh tovarlar, universal birjalarda har xil tovarlar sotiladi.

Mehnat birjasi – bu maxsus tovar sifatidagi ishchi kuchining oldi-sotdi jarayonlarini tashkil etishga ixtisoslashgan birjaning o‘ziga xos turi. Boshqacha aytganda, mehnat birjalari ishga yollovchilar bilan ish qidiruvchilar o‘rtasida vositachi sifatida maydonga tushadi. Bunday birjalarning asosiy maqsadi ish qidirish uchun vaqt sarfini kamaytirish hamda kishilar tomonidan o‘zlari istagan ishni topish imkonini yaratishdan iborat. Mehnat birjalari ishsizlikning oldini olishda ahamiyatli rol o‘ynaydi. Mehnat birjalarining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– ishchi kuchi bozorida ro‘yxatga olingan bo‘sh ishchi kuchi hamda korxonalardagi ish o‘rinlari vakansiyalarining hisobini yuritish;

– ishsizlarga mehnat bo‘yicha va moddiy yordam ko‘rsatish;

– xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish;

– qo‘shimcha ishchi o‘rinlarini moliyalash;

– ishchi kuchi bozoridagi boshqa xizmatlar (masalan, kasbiy tayyorgarlikni tekshiruvdan o‘tkazish, maslahat berish va h.k.)ni amalga oshirish.

Auksion lotincha “auctio” – ochiq savdo so‘zidan olingan bo‘lib, individual xususiyatlarga ega tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil etilgan maxsus kimoshdi savdo bozorlarini anglatadi. Auksion savdo tovarlarning nisbatan cheklangan ro‘yxati bo‘yicha, oldindan e’lon qilingan vaqtda, davriy ravishda, tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumiga

va hajmiga qarab o'tkaziladi. Auksion savdosida namuna tovarlar ro'yxatda ko'rsatilgan tartibda savdoga qo'yiladi, xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan kishi tovarni sotib oladi. Auksionlarda san'at asarlari, noyob buyumlar, kolleksiyalar ham sotilishi mumkin. Shuningdek, o'z qarzini to'lash layoqatiga ega bo'lmagan korxonalarning mol-mulklari ham auksion orqali sotilishi mumkin.

«Yarmarka» atamasi nemischa "Jahrmarkt" so'zidan olingan bo'lib, "Yilda bir marotaba o'tkaziluvchi bozor" ma'nosini anglatadi. Ma'lum belgilangan vaqt davri mobaynida alohida ajratilgan joyda tovar namunalarining ko'rgazmasi yarmarka deb atalib, uning o'tkazilishi vaqtida savdo bitimlari tuziladi, tovarlarning ulgurji sotuvlari amalga oshiriladi.

Yarmarka savdosi keng xalq iste'mol tovarlari va sanoat texnika mahsulotlarini qisqa muddatli, vaqti-vaqti bilan qaytarilib turuvchi, oldindan namunalarini ko'rib, tanlab olish orqali amalga oshiriladigan hamda oldi-sotdi shartnomalari tuzish bilan yakunlanadigan ulgurji va chakana savdo turidir.

Yarmarka savdosining prinsiplari tashkil etiladigan har bir yarmarka ko'rgazmalarning tuzilishi va faoliyatlarini tashkil etilishi maqsadlari bilan chambarchas bog'liqlikda olib boriladi, shuning uchun yarmarka savdosi ko'rgazmali savdo bilan bog'liq holda yaxlit tushuncha sifatida talqin etilmoqda.

Yarmarka savdosining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

–namoyish etilayotgan namunalar bo'yicha tovarlarni ulgurji sotish;

–savdoning ma'lum muddatda takrorlanib turishi;

–avvaldan savdo o'tkazish joyi va muddatining kelishib olinishi;

–sotuvchi va xaridorlarning bir vaqtda ommaviy savdoda qatnashishi.

Odatda savdoning bir vaqtda va ommaviy o'tkazilishi yarmarka (ko'rgazma) ta'sischilari va mahalliy hokimiyat tashkilotchilari

kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Natijada savdo muddati, sharti va tartibi ko'rsatilgan maxsus hujjat imzolanadi, hamda o'tkaziladigan tadbir mas'ul shaxslari tayinlanadi.

Ko'rgazmali va birja savdosini amalga oshirishda uchta muhim bosqich mavjud: savdolar boshlanishidan oldingi, tashkiliy va so'nggi – savdolar tugagandan keyingi xulosalar chiqarish bosqichi.

Savdo boshlanishidan oldingi bosqich savdo haqidagi qaror va buyruqni qabul qilish kabi ishlar bilan boshlanib, yarmarka rahbariyati va ishchi guruhi shakllanadi. Bu bosqichda yarmarka haqida nizom ishlab chiqilishi va qatnashchilarga yarmarkada qatnashish shart-sharoitlari haqida axborot jo'natilishi ko'zda tutiladi.

Ishchi guruh, shuningdek, reklama materiallari, yarmarkaga taklifnomalar, mehmonlarni joylashtirish kabi tashkiliy masalalar bilan ham shug'ullanadilar.

Yarmarkada qatnashish shartlari haqida reklama prospektlari, broshyuralar nashr ettirilib, unda yarmarkada qatnashish narxlari, pavilonlarning ijara narxlari, reklama maeriallaridan foydalangan holda sirtqi qatnashish shartlari o'z aksini topadi.

Yarmarka qatnashchilari ishtirok etish shaklidan qat'i nazar yarmarka ochilishidan 15 kun ilgari yarmarkada qatnashish uchun o'zlari va rekvizitlari haqidagi zarur, batafsil ma'lumotlar ko'rsatilgan ariza berishlari va ro'yxatdan o'tkazish uchun badal to'lashlari kerak bo'ladi. Arizada ishtirokchilarning talablari, ya'ni zarur pavilonlar soni, qancha mahsulot namoyish etishlari haqida ham zarur ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Yarmarka o'tkazishdagi asosiy daromad manbayi bo'lib, yarmarka qatnashchilarining badallari, omborlar, transport vositalari va ekspozitsiyalar ijarasi to'lovlari, ko'rsatiladigan boshqa xizmat turlari uchun (texnik-informatsiya xizmati, transport-ekspeditsiya ishlari, ortish-tushirish va boshqa tijorat tavsifidagi ishlar uchun) to'lovlar bo'lishi ko'zda tutiladi.

Yarmarkalar ichida Savdo-sanoat yarmarkasi o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa yarmarkalardan ajralib turadi. Savdo-sanoat yarmarkalarida tovar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari takliflari benihoya kengligi va qatnashchilar sonining cheklanmaganligi bilan ko'proq ko'rgazmaga o'xshab ketadi. Bunda ma'lum vaqtda notijorat tashkilotlari va boshqa barcha fuqarolarning ham ko'rgazmaga bemalol kiritilishi yarmarka tavsifini va shartlarini o'zgartirmaydi.

Yarmarka tugagandan keyingi uning salbiy va ijobiy tomonlarini aks ettirib xulosalar chiqarish ishlarini tashkil etish juda muhim, mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. Chunki aynan mana shu yarmarkalar o'tkazishdagi oxirigi bosqich ishlari kelgusi yarmarkalar o'tkazish strategiyasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yarmarkalarning tashkiliy tuzilishi yarmarka qo'mitasini uning ishchi organi bo'lgan ijrochi guruhi bilan doimiy aloqada ishlashini taqozo qiladi. Har bir yarmarka qo'mitasi a'zosi hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi. Tashkiliy qo'mita Rais boshchiligida faoliyat ko'rsatadi. Ba'zi katta miqyosdagi yarmarkalarda rahbarlik funksiyasi ijrochi direksiya tomonidan Bosh direktor boshchiligida amalga oshiriladi. Bosh direktor yarmarkaning barcha operativ boshqaruvini o'z qo'liga olib, uning ish tartibi, turli xizmatlar ishlarini boshqarish bilan bir qatorda yarmarkaga namuna tovarlarini olib kelish, joylashtirish va saqlash masalalarini hal qilish bilan shug'ullanadi. Bosh direktor tasarrufida bir qator yarmarka faoliyati uchun zarur bo'lgan, texnik-yuridik-huquqiy, meditsina, transport, moliya, reklama-axborot va nashriyot, mehmonxona va umumiy xo'jalik bo'limlari bo'lishi mumkin.

Yarmarkaga keltirilgan namunaviy tovarlarning eng yaxshisini tanlab olish uchun yarmarka qo'mitasi tanlov komissiyasini tashkil etishi mumkin va bu ishga sanoatchilar, olimlar va biznesmenlar, davlat boshqaruvi tashkilotlari vakillarini taklif etishlari mumkin. Bu qayd etilgan yarmarkalarni tashkil etish tartibi taxminiy bo'lib,

ma'lum sharoitda, yarmarka oldiga qo'ygan vazifalarni hisobga olgan holda, uning shakli va mazmuniga zarur o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Yarmarka savdosining asosiy maqsadi – sotuvchi va xaridor o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatish yoki shartnomalar imzolash va tovarlarning ulgurji savdosini amalga oshirishdir.

Yarmarkalar faoliyatining predmeti bo'lib shartnoma tuzuvchi xaridor va tovar sotuvchi tomonlarni ishga oid aloqa o'rnatishlari uchun har tomonlama kompleks xizmat ko'rsatish, konyunktura axborotni tayyorlash, tahlil etish, reklama xizmatini tashkil etish orqali ulgurji savdoni tartibga solib turish hisoblanadi.

Ko'rgazma savdosining yarmarka savdosidan farqi – uning ilmiy-mavzu jihatidan yo'nalishga egaligidir.

Jahonda har yili ko'plab mavzular, yo'nalishlar bo'yicha turli-tuman shaklda ko'rgazma va ko'rgazma-savdolar o'tkaziladi.

Maxsus reklama agentliklari, axborot markazlari va ommaviy axborot vositalari agentliklarining bozor infratuzilmasi sifatidagi roli ham ahamiyatli hisoblanadi. Reklama – tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat to'g'risidagi xolis axborot, talabni ko'paytirish maqsadlarida xaridorlarga tovarlarning xossalari, afzalliklari va sotib olish shartlarini yyetkazish va oshkor etish vositasi bo'lib, uni maxsus firmalar ma'lum haq evaziga tashkil etadi yoki bevosita tovarni sotuvchi firmaning o'zi uyushtiradi. Maxsus reklama agentliklari, axborot markazlari va ommaviy axborot vositalari agentliklari reklama jarayonlarini uyushtirishda quyidagi yo'nalishlardan foydalanadi:

– matbuot, radio, televidenie orqali maxsus reklama matnlarini joylashtirish, filmlarini namoyish etish;

– plakatlar, buklетlar, tovar kataloglarini tayyorlash va tarqatish;

– saylovoldi yig'ilishlar va katta tomoshalarda reklama axborotlarini tarqatish;

– ko'rgazmalar o'tkazish, yarmarkalarda ishtirok etish,

tovarlarni namoyishkorona sotish, maxsus reklama filmlarini chiqarish orqali tashqi savdo reklamasini o'tkazish va boshqalar.

Savdo palatasi – bu mahalliy tadbirkorlar uyushmasi bo'lib, tovarlarni ishlab chiqarish, sotish, eksport qilish va boshqa shart-sharoitlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash yo'li orqali o'z a'zolariga tadbirkorlik faoliyati yuritishda yordam ko'rsatadi.

Savdo uyi – savdo muassasasining maxsus turi. U ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan savdo uyi ayrim tovarlar bilan (kiyim-kechak, oyoq kiyim, gazlama va h.k.), universal savdo uyi har xil tovarlar bilan savdo qiladi.

Savdo uylarining jahon bozor tizimida paydo bo'lishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu sharoitda tovar sotish va uni yetkazib berishning o'zi kamlik qilardi. Xaridorlarni jalb qilish, savdoning yangi usuli va shakllarini topish zarur edi. Tovar sotish, yukni tashib berish, uni sug'urta qilish, yuk kemalariga yetkazib berish, transport dispetcherlik xizmati, axborot xizmati, tovarlarni jamlab sotish kabi xizmat turlari bilan to'ldiriladi.

Yuqorida qayd etilgan xizmatlarning rivojlanishi tovar ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda ishlash zaruriyatini tug'dirdi. Bu aytib o'tilgan xizmatlarni kengaytirishgina emas, balki xaridorning shaxsiy ehtiyoj, xohishini qondirishga qaratilgan mahsulot texnik tavsifiga ma'lum o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. Savdo xodimlari shu yo'l bilan ishlab chiqarish tarkibiga ta'sir eta boshladilar. Ta'sir samarali bo'lishi uchun savdogarlar o'z pullarini ishlab chiqarishga sarflay boshladilar.

Shu tariqa savdo uylari savdo vositachi tarkib sifatida paydo bo'lib ishlay boshladilar. 1917- yilgacha Rossiyada bir necha savdo uylari faoliyat ko'rsatar edi. Ularning asoschilari ko'pchilikka tanish savdogar va tadbirkor kishilar edilar. Rossiya savdo uylari, ayniqsa, to'qimachilik va oziq-ovqat va boshqa iste'mol mollari bozorida faoliyat ko'rsatar edilar.

Savdo uyi yirik savdo tashkiloti bo'lib, uning muhim xususiyatlari tovar ishlab chiqarish sohasiga faol kirib borish,

ishlab chiqarish kooperatsiyalarini tashkil etish va moliyaviy kredit operatsiyalarida qatnashishdan iboratdir.

Dunyodagi savdo uylarining asosiy maqsadlari quyidagilar:

–vositachilik operatsiyalarini ijobiy takomillashtirish va kengaytirish asosida tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtirish;

–jahon tovar bozorlaridagi konyunktura o'zgarishlariga tezlik bilan javob chora ishlab chiqish;

–raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va sotuvni tashkil qilish;

–kichik va o'rta firmalar birlashtirib, ulardagi mollarning sotuvini moliyalashtirish;

–reklama marketing xizmatlari xarajatlari va muomala xarajatlarini kamaytirish;

–mijozlarga keng ko'lamda qo'shimcha xizmat ko'rsatish;

–sotish bilan oldi-sotdi jarayonini boyitish;

–ishlab chiqarish tarkibiga ta'sir ko'rsatish, jumladan savdo sarmoyasini ishlab chiqarishga investitsiya qilish orqali ta'sir ko'rsatish.

Savdo uylari iqtisodiyot taraqqiyotining o'tish davrida bir tomondan egalariga eng ko'p savdo foydasini keltirib, boshqa tomondan bozorni xilma-xil tovarlar bilan boyitib, ayniqsa, o'z mamlakatlarini eksport salohiyatlarini mustahkamlab samarali faoliyat ko'rsatadilar.

Savdo uylarining rivojlanish tarixini ko'zdan kechirib, birinchi galda qonunchilikka e'tibor qaratish mumkin. Bir qator Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Fransiya va boshqa davlatlarda savdo uylarining mamlakat eksport siyosatini va iqtisodiyotidagi katta ahamiyatini hisobga olib, maxsus qonunchilik aktlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Ularda savdo uylari faoliyati muvofiqlashtirilib, ma'lum ustunlik va imtiyozlar ko'zda tutilgan. Rossiya qonunchiligida savdo uyi degan tushuncha yo'q.

Ixtisoslashgan savdo uylari jahon bozoridagi kuchli raqobat, ichki bozordagi talab to'lovlarining cheklanganligi va

narxlar erkinligi sharoitida texnik murakkab mahsulotlarni sotish qiyinchiliklariga javob harakati mahsulidir.

Savdo operatsiyalari – tovar sotish va yetkazib berish, jumladan, bevosita o'z omborlaridan yuk tashish va h.k.

Moliyaviy operatsiyalar – tijorat, kredit, qarzlar berish, innovatsiya qilish, lizing, qo'shma korxonalar tuzish kafolatlari berish va h.k.

Axborot xizmati – bozorni tadqiq etish, axborot yig'ish, tahlil etish va berish.

Universal savdo uylari o'z mazmuniga ko'ra savdo uylari bo'lib, o'zlari mustaqil mahsulot ishlab chiqarmaydilar. Ular faqat tovar sotadilar. Universal savdo uylari moliya tashkiloti funksiyasini bajaradi, lekin, bu bank emas, axborot bilan ishlasada, lekin axborot agentligi emas, ya'ni uning savdo faoliyatini moliyaviy axborot sohasidagi faoliyatlar bilan to'ldiradilar.

Harakat ko'lami bo'yicha savdo uylari mintaqaviy, mahalliy, umummanfaatli va munitsipial, ya'ni biror boshqarish tashkiloti yoki hudud tassarufida bo'lishi mumkin.

Savdo shakli bo'yicha savdo uylari ulgurji, mayda ulgurji va chakana, komission, muqobil, konsegnatsiya savdo qiluvchi va boshqalarga ajratilishi mumkin.

Aloqa shakllari bo'yicha savdo uyini boshqa xo'jalik subyektlari bilan agentlik bitimi, hamkorlik bitimi hamda oldi-sotdi shartnomalari konsegnatsiya bitimlari, ya'ni kontraktdagi bir tomon boshqa tomonga o'z nomidan xorijdagi ombori konsegnat tovarlari hisobidan tovar sotadi va aloqani boshqa shakllari bilan shug'ulanadilar.

Ko'p tarmoqli tashqi savdo firmalari ham savdo uyi deb ataladi. Ular o'z nomidan va ko'pincha o'zlari hisobidan eksport-import hamda boshqa savdo aloqalarini olib boradi. Tashqi savdo uylari savdo korxonalarini sotib olish, jihoz va uskunalarni ijaraga topshirish, kreditlar berish, sug'urta xizmati ko'rsatish bilan moliya va ishlab chiqarish xizmatida ham qatnashadi.

Savdo uylari tarkibida ***savdo firmalari*** muhim o'rin tutadi. Ular tijorat ishini yurituvchi va ixtisoslashgan savdo-sotiq korxonalaridir. Firmalar mustaqil yoki yirik sanoat korporatsiyalari tarkibida ish yuritib, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanadigan turlarga bo'linadi. Ayrim firmalar har ikkala savdo turi bilan ham shug'ullanadi. Ulgurji savdo firmalari tovarlarni o'z mulkiga sotib olib, keyin iste'molchilarga sotadi. Chakana savdo firmalari har xil shaklni olib, ular mustaqil do'konlar, maxsus do'konlar va supermarketlardan iborat bo'ladi.

Supermarket – bu xaridorning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi. U tovarlarning deyarli hamma turlari bilan, jumladan, import tovarlar bilan savdo qiladi. Supermarket xaridorlarga bepul maslahatlar beradi, tovarlarni buyurtma bo'yicha xaridor uyiga yetkazadi, ularga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadi.

Ishbilarmon hamkorlik uyushmalari ulush qo'shish asosida tashkil topuvchi tashkilotlardan iborat bo'lib, ular alohida xorijiy davlatlar yoki davlatlar guruhi firmalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun davlat, kooperativ va boshqa milliy tashkilot va korxonalarni birlashtiradi. Mazkur uyushmalar ishtirokchilarning idoraviy bo'ysunishi, hududiy joylashuvi, alohida tarmoq yoki ittifoqchi davlatga mansubligidan qat'i nazar tashkil topadi. Har qanday ko'rinishdagi ishbilarmon hamkorlik uyushmasi yuridik shaxs hisoblanib, to'la xo'jalik hisobi, o'zini o'zi moliyaviy va valyuta bilan ta'minlash tamoyillari asosida faoliyat yuritadi.

Bojxona – chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, shu jumladan, yuk va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi. U o'tkazilayotgan yuklarni tekshirish va ulardan bojxona yig'imlari undirish bilan shug'ullanadi. Bojxonalar, odatda dengiz va daryo portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir yo'l stansiyalarining chegara punktlarida va mamlakatning yirik markazlarida joylashadi.

Konsalting kompaniyasi – bu ishlab chiqarishga ish yuza-

sidan xizmat ko'rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o'z mijozlariga maslahat xizmati ko'rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatdir. Mazkur kompaniyada ishlovchi yuksak bilim, tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar tadbirkorlarga iqtisodiy va huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar beradilar. Tadbirkorlarga bunday maslahatlar uchun haq to'lash mazkur mutaxassislarni o'z firmasida yollab ishlatishga qaraganda qulay va arzon tushadi. Shuningdek, konsalting kompaniyalarining asosiy vazifalari quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

–tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun hamkorlar tanlash;

–maslahat beruvchi tashkilotlarning taraqqiy topishiga va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish;

–yagona axborot-so'rovnoma fondini yaratish va yagona reklama strategiyasini amalga oshirish yo'li bilan ularning a'zolari faoliyatini umumiy maqsadlar yo'lida jamlash va hokazo.

Auditorlik kompaniyasi – bu turli yo'nalishdagi firmalarning bozor va biznes sohasidagi imkoniyatlarini aniqlab beruvchi moliya-xo'jalik faoliyatini yalpi taftishi bilan shug'ullanuvchi muassasa. Auditorlik tekshiruvi boshqaruv idoralari, ta'sischilar, menejerlar, firma rahbariyatining tashabbusi bo'yicha o'tkaziluvchi mustaqil ekspertiza tavsifiga ega. Auditorlik ekspertizasi – qo'shma korxonalar tashkil etish, litsenziya olish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat olish uchun majburiy shart hisoblanadi. Mashhur auditorlik kompaniyalari tomonidan berilgan bahoning obyektivligi tashqi bozorda tashrif qog'ozi bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishida ***erkin iqtisodiy hududlar*** katta ahamiyat kasb etadi. Birinchi erkin iqtisodiy hudud 1959- yili Irlandiyada tashkil topgan. 70-yillarda erkin iqtisodiy hududlarning eng rivojlangan davri bo'ldi. Mazkur hududlarda bandlik sur'ati keyingi 20 yil davomida yiliga 20% dan ortiq bo'ldi. Hozirda «erkin iqtisodiy hududlar» tushunchasini belgilab beruvchi bir qator atamalardan quyidagilar qo'llaniladi:

– erkin tadbirkorlik hududlari;
– erkin savdo hududlari;
– eksport-ishlab chiqarish hududlari;
– mintaqalardagi ishlab chiqarish hududlari;
– erkin bandargohlar;
– erkin bank hududlari.

Biznes-maktab – tadbirkorlarni, kichik biznes korxonalari rahbar va mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshiruvchi o‘quv muassasasi. Biznes-maktab odatda qisqa muddatli seminarlarni olib boruvchi nodavlat ta’lim muassasasi bo‘lib, ko‘pincha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari va boshqa tuzilmalar negizida tashkil etiladi.

Biznes-inkubator – o‘z hududiga maxsus tanlab olingan kichik biznes korxonalarini joylashtirib, ularga turli xizmatlar ko‘rsatuvchi tuzilma. Ko‘pincha mazkur xizmatlar tarkibiga band qilingan maydonlar va ijara haqi, idora xizmati va foydalanish davomida haqi to‘lab boriluvchi asbob-uskunalar bilan ta’minlash, biznes, buxgalteriya hisobi, marketing hamda texnikaviy ishlanmalar masalalari bo‘yicha malakali mutaxassis maslahatlari, moliyalashtirish masalalari bo‘yicha yordam, tashqi korxonalar va texnik maslahatchilar bilan yo‘lga qo‘yilgan aloqa, boshqa kompaniyalar bilan aloqa o‘rnatish borasida ko‘rsatiluvchi yordamlar kiritiladi.

Biznes-markaz – mehmonxonalarda, savdo markazlarida tadbirkorlar va boshqa bozor subyektlariga xizmatlar ko‘rsatish maqsadida tashkil etilgan muassasa. Bu yerda ofis xizmatlari ko‘rsatadilar, so‘zlashuvlar uchun binolar, aloqa, kompyuter va ofis texnika vositalari bilan ta’minlaydilar.

Bozor infratuzilmasining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, bunday xususiyatlardan biri bo‘lib bozor infratuzilmasining samarali amal qilishini ta’minlashda davlatning alohida rolini zarurligi hisoblanadi. Chunki, bunday zaruriyat quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

–infratuzilma sohasidagi talab va taklifni tartibga solib turuvchi bozor mexanizmining samarali amal qilmasligi;

–infratuzilma obyektlari xizmatiga bo'lgan narxlar bo'yicha talabning elastik emasligi;

–infratuzilma xizmatlari bozorining notekis tarkibiy tuzilishi natijasida bozordagi muvozanatga erishishda davlat tomonidan aralashuvning zarurligi;

– infratuzilma sohasi faoliyatining rivojlanishi asosiy tarmoqning rivojlanish darajasiga bog'liqligi va boshqalar.

3.3. Moliya bozori infratuzilmasi bozor infratuzilmasining asosiy yo'nalishi sifatida

Bozor infratuzilmasining mukammal tizimida moliyaviy jarayonlarga xizmat ko'rsatuvchi hamda ularning jadallashuviga ahamiyatli shart-sharoitlarni yaratuvchi, sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalari alohida o'rin tutadi. Quyida biz ularning ayrim muhim turlariga to'xtalib o'tamiz.

Birja – barqaror va aniq sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan ommaviy ishlab chiqarish tovarlari ulgurji savdosi yoki valyuta, ishchi kuchi va qimmatli qog'ozlar savdosi bo'yicha muntazam operatsiyaning tashkiliy shakli. «Birja» so'zi lotincha "bursa" – «hamyon» ma'nosini anglatadi. Birjalar XVI asrda tijoratchilarning savdo operatsiyalarini o'tkazish uchun to'planuvchi maxsus joyi shaklida vujudga keldi. Dastlabki birja 1531- yili Antverpenda, keyinchalik London (1566- yil) va Nyu-Yorkda (1792- yil) tashkil topdi.

Birjalar quyidagi vazifalarni bajaradi:

–savdo uchun joy bilan ta'minlash;

–birja savdolarini tashkil etish;

–birja orqali sotiladigan mahsulotlar savdosi va andozalari tartib-qoidalarini o'rnatish;

–oldi-sotdi bitimlari bo'yicha namunaviy shartnomalar to'plamini ishlab chiqish;

–narxlar kotirovkasini amalga oshirish;

–bahslashuvlarni arbitrajlash yoki tartibga solish;

–axborotlar berish;

–qimmatli qog'ozlar yoki tovarlar bitimida ma'lum komission haq evaziga muayyan kafolatlar berish.

Hozirgi kunda birjaning nisbatan keng tarqalgan turlari sifatida tovar va mehnat birjalari bilan bir qatorda moliyaviy jarayonlar uchun xizmat qiluvchi fond birjalari ham alohida o'rin tutadi.

Fond birjasi muntazam ravishda amal qiluvchi qimmatli qog'ozlar, aksariyat holda aksiya va obligatsiya bozorini namoyon etib, ularni sotish va xarid qilish bo'yicha bitimlar bir vaqtning o'zida narx belgilash orqali tuziladi. Fond birjalarida qimmatli qog'ozlar savdosi auksion, ya'ni nisbatan yuqoriroq narxni taklif etuvchi, sotib olish huquqini qo'lga kirituvchi ochiq savdo tamoyili bo'yicha olib boriladi. Fond birjalariga valyuta birjalari yaqin bo'lib, ularda talab va taklif ta'siri ostida qaror topuvchi kurslari bo'yicha milliy valyutalarning erkin savdosi amalga oshiriladi. Fond birjalari savdo jarayonlaridagi talab va taklifning o'zaro ta'siri natijasida qimmatli qog'ozlarning birja kursi o'rnatilib, u odatda aksiya, obligatsiyalar bozor narxlarining ular nominal qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi. Ba'zida tovar va fond birjalari yagona tovar-fond birjalariga birlashadilar.

Dunyoda birinchi fond birjasi 1773- yilda Londonda, keyinchalik 1791- yili Filadelfiya shahrida, 1792- yili Nyu-Yorkda tashkil etilgan.

Har xil turdagi qimmatli qog'ozlarning paydo bo'lishi hamda ular oldi-sotdisi amalga oshirilishi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining boshlanishiga olib keldi. Asosiy ma'no shundaki, bu borada sotilgan va sotib olingan qimmatli qog'oz mulkdorlik huquqi va shu mulk badalidan ma'lum daromad olish huquqini berar edi. Ana shu huquq qimmatli qog'ozda mujassamlashgan bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar mulkiy ma'nodagi hujjat bo'lib, mulkiy

huquq ushbu hujjatsiz amalga oshirilmaydi va biror boshqa kishiga o'tib qolmaydi. Qimmatli qog'ozlarning asosiy turi sifatida egasiga aksiyadorlik jamiyatlari sarmoyasida qatnashish hamda ma'lum dividend olish huquqini beruvchi guvohnoma – aksiya va obligatsiyalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Aksiya va obligatsiyalar emitentlari aksiya va obligatsiya egalariga ma'lum avvaldan belgilangan yillik foiz miqdorida daromad to'lash majburiyatini oladilar. Aksiya va obligatsiyalar fond birjalari va birjadan tashqari bozorda sotiladi va sotib olinadi.

Qimmatli qog'ozlarga, shuningdek tovar va pullik hujjatlar kiradi. Ular o'zlarida qonuniy asosda mujassamlashtirilgan qiymatni amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari cheklar, veksellar, depozit sertifikatlar, obligatsiya kuponlari, ombor guvohnomalari, varrantlar va boshqalar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar sotilishi jihatidan ikki xilga bo'linadi:

– birlamchi, ya'ni qimmatli qog'ozlar emissiyasi vaqtida paydo bo'lgan bozor;

– ikkilamchi, ya'ni qog'ozlar qayta sotiladigan bozor.

Emitent – qimmatli qog'oz yoki pullarni emissiya qiluvchi subyekt. Pul belgilarining emitenti faqat davlat bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida davlat, aksiyador jamiyatlar, banklar va aynan shunday huquqqa ega boshqa shaxslar bo'lishlari mumkin.

Qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozori birjada va birjadan tashqarida bo'lishi mumkin. Birjadan tashqarida oldi-sotdi operatsiyalari biror bir sabab tufayli birjada kotirovka qilinmayotgan qog'ozlar harakatda bo'ladilar (masalan, banklar orqali).

Avvallari qimmatli qog'ozlar bilan birja operatsiyalari tovar birjalarida olib borilar edi. Birinchi fond birjalari XVIII asrda Buyuk Britaniyada, AQSH, Germaniyada paydo bo'ldi. XX asrga kelib fond birjalari milliy xo'jalik hayotining muhim markazlariga aylandilar.

Birja huquqiy nuqtayi nazardan zavod, magazin yoki bank

kabi korxona bo‘lib, u xususiy yoki davlat tasarrufida bo‘lishi mumkin. Fransiya, Italiya, Ispaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi davlatlarda fond birjalari davlat mulki hisoblanadi, ya’ni ularning faoliyati davlat tashkilotlari tashabbusi bilan olib boriladi va tartibga solinadi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda asosan aksiyadorlik jamiyatlari ko‘rinishidagi xususiy birjalar faoliyat ko‘rsatadilar. Qizig‘i shundaki, shu birjalarning aksiyalari ko‘pincha institutsional investorlarga – bank va har xil fondlar kabi kompaniyalar, davlat tashkilotlariga tegishli bo‘ladi.

Fond birjalari fond bozorlari hisoblanadi. Birlamchi fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlari, hukumat munitsipial tashkilotlari tomonidan chiqarilgan yangi qimmatli qog‘ozlar joylashtiriladi.

Fondli qiymatni hamma oladi: yakka tartibdagi investorlar, moliya-kredit institutlari, pensiya fondlari, davlat muassasalari va korporatsiyalari, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya qiluvchi fondlar. Qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bilan (hukumat obligatsiyalaridan tashqari) odatda emissiya kompaniyalarini barpo qiluvchi investitsion banklar shug‘ullanadilar.

Bozor infratuzilmasi sifatidagi ***kredit tizimi*** o‘z ichiga qarzga mablag‘ beruvchi muassasalarni oladi. Kredit muassasalari – muayyan mamlakat hududida kredit harakatlarini amalga oshiradigan muassasalar – banklar, sug‘urta jamiyatlari, jamg‘arma banklari, lombard, lizing muassasalari, faktoring va boshqalar.

Kredit tizimining yetakchi bo‘g‘ini bo‘lib tijorat banklari maydonga tushadi. ***Tijorat banklari*** – depozit shaklidagi pul kapitallari va jamg‘armalar hisobiga barcha tarmoq korxonalari uchun universal bank harakatlarini amalga oshiruvchi kredit muassasasidir. Ular asosan pay yoki aksiyadorlik asosida tashkil etilib, quyidagi turlari bo‘yicha farqlanadi: nizom kapitalini shakllantirish usuliga ko‘ra (davlat, xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banklari va h.k.); ixtisoslashuv yo‘nalishiga ko‘ra (masalan, agrobank, ipoteka banki va b.); faoliyat hududiga ko‘ra; amalga

oshiruvchi operatsiya turlariga ko'ra va boshqalar.

Ixtisoslashgan tijorat banklari – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi. Jumladan, Sanoat-qurilish banki – sanoat, transport, aloqa va moddiy-texnika ta'minoti sohalarida; "Qishloq qurilish", "Agrobank"lar – agrosanoat kompleksi tarmoqlari va sohalarida, "Mikrokreditbank" – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kooperativ va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasida kredit-pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashishi bo'yicha investitsion va ipoteka banklarni ajratib ko'rsatish lozim.

Investitsion banklar – maxsus kredit muassasalari bo'lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan davlat va tadbirkorlar)ga taqdim qiladi.

Ipoteka banklari – bu ko'chmas mulk (yer va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalari. Ipoteka banki resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingan ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi.

Lombard – ko'chmas mulk bo'lmagan buyumlarni garovga qo'yish yo'li bilan pulni qarzga beruvchi kredit muassasasi. U bozor ishtirokchilari ixtiyoridagi mablag'larning likvidlik darajasini oshirishga, mablag'lar aylanish tezligining oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

Emissiya tizimi – pul belgilarini muomalaga chiqarishning qonun tomonidan o'rnatilgan tartibi bo'lib, mazkur tizimning asosiy bo'g'ini sifatida Markaziy bank maydonga tushadi. Markaziy bank odatda davlat banki bo'lib, u o'tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan belgilab beriladi. Markaziy bank tijorat banklari va jamg'arma muassasalarini kredit resurslari bilan ta'minlaydi. Markaziy bankning mohiyati u tomonidan amalga

oshiriluvchi quyidagi vazifalar orqali namoyon bo‘ladi:

–boshqa bank muassasalarining majburiy zaxiralarini, mamlakat oltin-valyuta zaxirasini saqlash;

–inkassatsiya mexanizmini ta’minlash, banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish;

–davlat monetar siyosatini amalga oshirish;

–barcha banklar faoliyatini muvofiqlashtirish va ular ustidan nazoratni amalga oshirish;

–xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlash;

–pul taklifi ustidan nazorat o‘rnatish, milliy valyutani muomalaga chiqarish.

Investitsion kompaniyalar o‘zlarining qimmatli qog‘ozlarini chiqarish yo‘li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to‘playdi va ularni milliy va chet el korxonalar aksiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday kompaniyalar to‘liq ravishda investorlar manfaatlarini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo‘yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi. Investitsiya kompaniyasi yuridik shaxs bo‘lib, odatda ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati ko‘rinishida tuziladi. Uning asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

–qimmatli qog‘ozlarni chiqarish;

–qimmatli qog‘ozlarning tarqatilishini kafolatlash;

–qimmatli qog‘ozlar kotirovkasini amalga oshirish, ya’ni ularning narxini e’lon qilish;

–investitsiya dileri sifatida faoliyat yuritish;

–o‘z aksiyalarini chiqarish va sotish;

–brokerlik faoliyatini (faqat fond birjasida) yuritish.

Investitsiya institutlari – bu moliyaning alohida faoliyat sohasi bo‘lib, moliya bozorining fond segmentida qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha malakali xizmatlar ko‘rsatuvchi moliyaviy institut hisoblanadi. Boshqacha qilib aytilganda, fond (qimmatli qog‘ozlar) bozorida professional faoliyat qimmatli qog‘ozlarni hayot siklidagi jarayonida sodir

(talab) bo'ladigan xizmatlarni belgilangan tartibda ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida bunday faoliyatni ixtisoslashgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, turli mulkchilik shaklida tuzilgan, maxsus litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega bo'lgan investitsiya institutlari amalga oshiradi.

Investitsiya institutlari faoliyatining mexanizmi, xossa va xususiyatlari evaziga fond bozori infratuzilmasi tarkibida alohida malakali xizmatlar bozori faoliyat yuritadi va rivojlanadi. Bunda ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moliyaviy resurslar (jamg'armalar) va instrumentlar (qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar institutlari, moliyaviy resurslar va instrumentlar akkumulyatori va hisobchisi, mos ravishda yirik investitsiyalar manbayi, institutsional investor, professional emitent va vositachi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, investitsiya institutlari banklar va sug'urta kompaniyalari bilan bir qatorda moliya bozorining professional, o'ta zarur, foydali va eng salmoqli qatnashchilaridan hisoblanadi.

Bu esa moliya bozorining, xususan qimmatli qog'ozlar bozorining risksizlik, jozibadorlik, barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik darajasini ko'tarishga, samarali investitsion hajmini va jarayoni sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, investitsiya institutlari umuman iqtisodiyotda, xususan, qimmatli qog'ozlar (fond) bozorida quyidagi rollarni bajaradi:

– iqtisodiyot subyektlari va aholiga qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha professional xizmatlar ko'rsatuvchi institutlar;

– moliyaviy resurslar va instrumentlar akkumulyatori, yirik investitsiyalar manbayi;

– institutsional investor (belgilangan tartibda);

– qimmatli qog'ozlar emitenti (belgilangan tartibda).

Hozirda rivojlangan mamlakatlardagi investitsiya institutlari operatsiyalari jahon fond bozorlarining barcha qismini qamrab olgan.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional qatnashchilarining ijroiya organlari rahbarlari, shuningdek, ularning imzo huquqiga ega xodimlari qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan malaka guvohnomalariga ega bo'lishlari kerak. Malaka guvohnomasining amal qilish muddati turli mamlakatlarda turlicha bo'ladi. Jumladan, bu muddat O'zbekistonda uch yil belgilangan.

Dunyoning turli mamlakatlarida investitsiya institutlarining faoliyat turlari o'zgacha nomlanadi, lekin ular mazmunan o'xshash. Masalan, jahon amaliyotida faoliyat turlari quyidagicha nomlanishish mumkin: diler, broker, boshqaruvchi kompaniya, depozitariy, kliring va h.k.

O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida esa quyidagi professional faoliyat turlari amalga oshiriladi:

– investitsiya vositachisi faoliyati;

– investitsiya maslahatchisi faoliyati;

– investitsiya fondi faoliyati;

– boshqaruvchi kompaniya faoliyati;

– investitsiya fondlarining investitsiyaviy aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyat;

– depozitariy faoliyati;

– hisob-kliring palatasi (tashkiloti) faoliyati;

– transfer-agent faoliyati (litsenziyalanmaydi);

– qimmatli qog'ozlar bo'yicha birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi faoliyati.

Qimmatli qog'ozlar bozorida qonun hujjatlariga muvofiq professional faoliyatning boshqa turlari ham amalga oshirilishi mumkin, masalan, nominal saqlovchi (depozitariy bajaradi).

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi investitsiya fondi faqat ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tuziladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarni tuzish, faoliyat ko'rsatish va tugatish

tartibi, ushbu qonunning qoidalari hisobga olingan holda, qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Keltirilgan faoliyat turlariga qisqacha tavsif beriladigan bo‘lsa, qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi faoliyatiga brokerlik va dilerlik faoliyatlari kiradi.

Topshiriq shartnomalari yoki vositachilik haqi asosida yoxud bitimlar tuzish uchun berilgan ishonchnoma asosida ish olib borib, vakolatli shaxs yoki vositachi sifatida qimmatli qog‘ozlar yuzasidan fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirish brokerlik faoliyati hisoblanadi.

Brokerlik faoliyatida operatsiyalar asosan mijoz nomidan (topshirig‘iga binoan) va mijoz hisobidan bajariladi.

Mijozlarning qimmatli qog‘ozlarga sarmoya kiritish uchun brokerga berilgan pul mablag‘lari, shuningdek, broker tomonidan mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirilgan bitimlardan olingan pul mablag‘lari broker tomonidan bankda ochiladigan alohida bank hisob raqam(lar)ida (maxsus brokerlik hisob raqamida) saqlanishi kerak.

Agar brokerlik xizmati ko‘rsatish shartnomasida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, broker mijozga uning pul mablag‘lari hisobiga topshiriqlarni bajarish yoki mijoz talabiga ko‘ra ularni qaytarib berishni kafolatlagan holda, maxsus brokerlik hisob(lar)idagi mijozlarning pul mablag‘laridan o‘z manfaatlari uchun foydalanish huquqiga ega.

Brokerga o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish huquqini bergan mijozlarning pul mablag‘lari, unga o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish huquqini bermagan mijozlarning pul mablag‘lari saqlanadigan maxsus brokerlik hisob raqam(lar)idan boshqa maxsus brokerlik hisob raqam(lar)ida saqlanishi kerak.

Broker o‘zining shaxsiy pul mablag‘larini maxsus brokerlik hisob raqam (lar)iga o‘tkazish huquqiga ega emas, qonunda belgilangan tartibda mijozga qaytarib berish va/yoki unga qarz berish hollari bundan mustasno.

Broker maxsus brokerlik hisob raqam(lar)ida turgan har bir mijozning pul mablag'larining hisobini yuritishga va mijozga hisobot berishga, shuningdek, topshirig'i bo'yicha aksiyasiga egalik qilayotgan shaxs bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq va uning topshirig'i bilan qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar va bitimlarni amalga oshirishga majbur.

Maxsus brokerlik hisob raqam(lar)ida turgan mijozlarning pul mablag'lari brokerning majburiyatlari yuzasidan undirilishi mumkin emas.

Muayyan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va/yoki sotish narxlarini oshkora e'lon qilish hamda ushbu qimmatli qog'ozlarni e'lon qilingan narxlari bo'yicha sotib olish va/yoki sotish majburiyatini olish yo'li bilan o'z nomidan va o'z hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlarini tuzish dilerlik faoliyati hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha dilerlik faoliyatini amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional qatnashchisi diler deb nomlanadi.

Narxlardan tashqari diler qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi shartnomasiga boshqa muhim shartlarni ma'lum qilish huquqiga ega: olinayotgan/sotilayotgan qimmatli qog'ozlarning minimal yoki maksimal miqdori, shuningdek, e'lon qilingan narxlar amal qiladigan muddat. E'londa boshqa muhim shartlar ko'rsatilmasa, diler o'z mijozi taklif qilgan muhim shartlar bo'yicha shartnoma tuzishga majbur. Diler shartnoma tuzishdan bosh tortishi hollarida, uni shunday shartnoma tuzishga majbur qilish va/yoki mijozga yetkazilgan zararlarni qoplatish to'g'risida da'vo qo'zg'atilishi mumkin.

Investitsiya vositachisi o'zining harakatlari yoki harakatsizligi tufayli mijozlariga yetkazilgan zararni qoplashi shart.

Investitsiya vositachisining korxonalari va tashkilotlarini yagona davlat reestridan chiqarish faqat uning mijozlariga ajratilgan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarni qaytarish bilan bog'liq taomillar bajarilganidan so'ng qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga

solish bo‘yicha vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i asosida amalga oshiriladi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini va uning ishtirokchilarini tahlil etish va istiqbolini aniqlash, moliyaviy vositalarni (moliyaviy majburiyatlarni) ekspertiza qilish, ishlab chiqish va tavsiya etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish, qimmatli qog‘ozlar chiqarish, ularni joylashtirish va muomalaga kiritish, mutaxassislarni qayta tayyorlash, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar investitsiya siyosatini amalga oshirishlari xususida maslahatlar berish sohasidagi xizmatlar qimmatli qog‘ozlar bozorida *investitsiya maslahatchisining faoliyati*, deb e’tirof etiladi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya maslahatchisi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi investitsiya maslahatchisi deb nomlanadi. Yuridik yoki jismoniy shaxs investitsiya maslahatchisi bo‘lishi mumkin.

Investitsiya maslahatchisi mijozga muayyan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etish, shuningdek, mijozga investitsiya qarorini o‘zi mustaqil qabul qilishi uchun zarur axborotni taqdim etish huquqiga ega.

Maslahat xizmatlari ko‘rsatilganida, bajarilgan ishlar dalolatnomasida muvofiq yozuvlar ko‘rsatiladi, mijozga taqdim etilgan hujjatlarning nusxalari esa investitsiya maslahatchisida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanadi.

Investorlarning pul mablag‘larini ishga solish maqsadida aksiyalar sotib oladigan va chiqaradigan hamda mablag‘larni fond nomidan qimmatli qog‘ozlarga, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushlariga, banklardagi hisobvaraqlarga va omonatlarga qo‘yadigan yuridik shaxs investitsiya fondidir.

Investitsiya fondlarining mablag‘larni bunday qo‘yish bilan bog‘liq tavakkalchiligi, bu mablag‘larning bozordagi qadri o‘zgarishidan keladigan daromad va ko‘riladigan zarar to‘la-to‘kis ushbu fond egalari (aksiyadorlari) hisobiga o‘tkaziladi va ular

tomonidan fond aksiyalarining joriy narxlari o‘zgarishi hisobiga realizatsiya qilinadi.

Banklar va sug‘urta kompaniyalari investitsiya fondlari bo‘la olmaydi.

Investitsiya fondi boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarga qayta tuzilishi mumkin emas. Investitsiya fondini qayta tashkil etish qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Investitsiya fondining litsenziyasi amal qilishini tugatish yoki litsenziyasini bekor qilish investitsiya fondining faoliyati tugatilishiga va litsenziyasini amal qilishini yoki bekor qilinshi to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundagi bozor narxida, lekin bu hol sodir bo‘lgan sanadan oldingi olti oy ichidagi o‘rtacha narxdan kam bo‘lmagan narxda fond aksiyadorlariga ularning mablag‘larini qaytarib berishga olib keladi.

Investitsiya fondini korxonalar va tashkilotlar yagona davlat reestridan chiqarish faqat ushbu moddada ko‘rsatilgan jarayonlar tugaganidan so‘ng, qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsning egalik qilish uchun o‘ziga berilgan va boshqa bir shaxsga tegishli bo‘lgan, mazkur shaxs yoki bu shaxs ko‘rsatgan uchinchi shaxslar manfaatlarini ko‘zlab:

– qimmatli qog‘ozlarni;

– qimmatli qog‘ozlarni sarmoyalashga mo‘ljallangan pul mablag‘larini;

– qimmatli qog‘ozlarni boshqarish jarayonida olinadigan pul mablag‘lari hamda qimmatli qog‘ozlarni haq evaziga boshqarish vakolatini muayyan muddat davomida o‘z nomidan amalga oshirishi *qimmatli qog‘ozlarni boshqarish sohasidagi faoliyat* hisoblanadi.

Qimmatli qog‘ozlarni boshqarish faoliyatini amalga oshirish tartibi qonun hujjatlari va shartnomalar bilan belgilanadi.

Qimmatli qog‘ozlarni ishonchli boshqarish bo‘yicha

faoliyatni amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional qatnashchisi *boshqaruvchi kompaniya* deb nomlanadi.

Ishonchli boshqaruvga berilgan investitsiya aktivlari bilan bitimlarni boshqaruvchi kompaniya o'z nomidan amalga oshiradi, bunda u boshqaruvchi kompaniya sifatida harakat qilayotganligini ko'rsatishi kerak. Agar yozma ravishda rasmiylashtirishni talab etmaydigan harakatlarni amalga oshirishda boshqa taraf uning bajarilishi to'g'risida boshqaruvchi tomonidan ma'lum qilingan bo'lsa, yozma hujjatlarda ishonchli boshqaruvchining nomidan keyin tegishli belgilar kiritilgan bo'lsa, yuqoridagi shartga amal qilingan hisoblanadi.

Agar boshqaruvchi kompaniya va uning mijozi yoki bir boshqaruvchi kompaniyaning turli mijozlari manfaatlari yuzasidan bahs, barcha taraflar oldindan bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, boshqaruvchi kompaniyaning mijoz manfaatlariga zarar yetkazuvchi harakatlarni amalga oshirishga olib kelgan bo'lsa, boshqaruvchi kompaniya o'z hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda zararlarni qoplashga majbur.

Investitsiya fondlarining investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyat deganda, ushbu modda va qonun xujjatlari bilan belgilangan faoliyatning talablariga javob beradigan *boshqaruvchi kompaniyaning* faoliyati tushuniladi. Investitsiya fondlarining investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs *investitsiya fondlarining boshqaruvchi kompaniyasi* deb nomlanadi.

Investitsiya fondlarini boshqaruvchi kompaniya investitsiya fondlarining investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, shuningdek, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional qatnashchisi hisoblanadi.

Investitsiya fondlarini boshqaruvchi kompaniya qonunchilikka muvofiq tuzilgan va investitsiya fondining topshirig'i bilan va uning nomidan unga berilgan qimmatli qog'ozlarni; qim-

matli qog‘ozlarga investitsiyalashga mo‘ljallangan pul mablag‘lari; qimmatli qog‘ozlarni boshqarish jarayonida qo‘lga kiritilgan pul mablag‘larini ishonchli boshqaruvni; investitsiya fondining qimmatli qog‘ozlari portfelini tuzishni va bu portfelni diversifikatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishni; shuningdek, fond bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya fondining egasi vazifasini amalga oshiruvchi istalgan mulkchilik shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi. Ko‘rsatilgan operatsiyalar investitsiya fondlarini boshqaruvchi kompaniya faoliyatining mutlaq turlari hisoblanadi.

Boshqaruvchi kompaniyaning ta’sischilari yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, ular tomonidan ta’sis qilingan ustav fondining 25 foizdan ortig‘ini davlat ulushi tashkil etuvchi korxonalar bundan mustasno.

Investitsiya fondlarining boshqaruvchi kompaniyasi depozitariy, davlat boshqaruv organi, notijorat tashkiloti, shuningdek, affillangan shaxs (shaxslar) tomonidan tuzilgan korxona bo‘lishi mumkin emas.

Investitsiya fondlarini boshqaruvchi kompaniya ustavida investitsiya fondlarining aktivlarini boshqarish uning mutlaq faoliyat turi hisoblanishi to‘g‘risidagi holat mavjud bo‘lishi shart.

Qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha huquqlarni hisobga olish va tasdiqlash bo‘yicha xizmatlar depozitar faoliyat hisoblanadi.

Depozitar faoliyatni amalga oshiruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional qatnashchisi depozitariy deb nomlanadi. Faqat yuridik shaxsgina depozitariy bo‘lishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha huquqlarni hisobga olish va tasdiqlash bo‘yicha depozitariy xizmatlaridan foydalanadigan shaxs deponent hisoblanadi.

Depozitariy va deponent o‘rtasidagi munosabatlar tegishli shartnoma bilan tartibga solinadi.

Depozitar shartnoma – depozitariy bilan deponent o‘rtasida

yozma shaklda

tuziladigan, qimmatli qog‘ozlarni saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solib turuvchi shartnoma.

Depozitar xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida shartnoma tuzish deponentning qimmatli qog‘ozlarga mulk huquqi depozitariyga o‘tishiga olib kelmaydi.

, Depozitariy o‘ziga deponentga qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlarning but saqlanishi uchun, shuningdek, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga

olib borish bo‘yicha o‘z burchlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi uchun, shu jumladan deponent hisobvaraqlari bo‘yicha yozuvlarning to‘laligi va to‘g‘riligi uchun qonunda belgilangandek javobgar bo‘ladi.

Deponentlarning qimmatli qog‘ozlariga depozitariyning majburiyatlari bo‘yicha undiruv qaratilishi mumkin emas.

O‘zaro majburiyatlarni belgilash, aniqlash va hisobga olishga doir faoliyat *kliring* deb hisoblanib, bu faoliyat bitimga doir ax-borotni to‘plash, solishtirish, unga tuzatish kiritish hamda qimmatli qog‘ozlarga doir fuqaroviy-huquqiy bitimlarni ijro etish uchun buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash operatsiyalarini nazarda tutadi.

Qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar bo‘yicha hisob-kitob-kliring operatsiyalarini amalga oshiruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari *hisob-kitob-kliring palatasi* (tashkiloti) deb ataladi.

Qimmatli qog‘ozlarga doir operatsiyalar yuzasidan hisob-kitob olib borilishi munosabati bilan kliringni amalga oshiruvchi tashkilotlar o‘zaro majburiyatlarni aniqlash chog‘ida tayyorlab qo‘yilgan qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari va buxgalteriya hujjatlarini ijroga qabul qilib olayotganlarida qimmatli qog‘ozlar bozorining qaysi qatnashchisi uchun hisob-kitob ishlari amalga oshirilayotgan bo‘lsa, shu qatnashchi bilan tuzgan o‘z shartnomalariga asoslanadilar.

Hisob-kliring palatalari (tashkilotlari)ning mijozlari mablag'lariga hisob-kliring palatalari (tashkilotlari)ning majburiyatlari yuzasidan undiruv qaratilishi mumkin emas.

Transfer-agentning faoliyati deganda, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish tizimiga taalluqli hujjatlarni qabul qilish, qayta ishlash va o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tushuniladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining transfer agent faoliyatini amalga oshiruvchi professional qatnashchisi *transfer-agent* deb nomlanadi.

Emitent bilan o'zaro munosabatda transfer-agent quyidagilarni amalga oshiradi:

– emitent bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq belgilangan muddatda reestr shakllantirish uchun markaziy registratorga so'rov yuborish;

– markaziy registratordan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qimmatli qog'ozlar egalari reestrini qabul qilish;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda emitentga qimmatli qog'ozlar reestrini yetkazish va berish.

Transfer-agent emitentga markaziy registratordan olingan qimmatli qog'ozlar egalari reestri va boshqa ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazib berish va ularning saqlanishi yuzasidan javobgar hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarni begonalashtiruvchi (sotib oluvchi) bilan o'zaro munosabatda transfer-agent quyidagilarni amalga oshiradi:

– qimmatli qog'ozlarni begonalashtiruvchidan (sotib oluvchidan) olingan hujjatlarni tekshirish, ro'yxatga olish va hisobga olish;

– mijozlardan olingan hujjatlarni ro'yxatga olish va hisobga olish;

– qimmatli qog'ozlarni begonalashtiruvchiga xizmat ko'rsatayotgan depozitariyga qimmatli qog'ozlar bo'yicha

huquqlarning o‘tishiga asos hisoblanuvchi xujjatlarni yetkazib berish va taqdim etish;

– imzolar taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan shaxslar (ularning vakillari) tomonidan qo‘yilganligini kafolatlash;

– operatsiyalar qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni qabul qilish;

– begonalashtiruvchi (sotib oluvchi)ning xizmat ko‘rsatuvchi depozitariydan shartnomaga muvofiq olingan qimmatli qog‘ozlarni begonalashtiruvchi (sotib oluvchi)ga yetkazib berish va taqdim etish.

Begonalashtiruvchi (sotib oluvchi)ning qimmatli qog‘ozlar transfer-agenti bilan munosabatlari shartnoma asosida tartibga solinadi.

Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha *birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining faoliyati* deganda, investorlarga vositachilarni yollamasdan turib savdolarda qatnashish imkoniyatini beruvchi arizalar qabul qilish punktlari, maxsus kompyuter savdo tizimlaridan foydalanishning belgilangan qoidalari bo‘yicha qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil qilish faoliyati tushuniladi.

Birjadan tashqari savdolar tashkil qilish, shuningdek, birjadan tashqari listinglar qoidalari qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishgan holda belgilanadi.

Birjadan tashqari listing – qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari savdoga ularni birjadan tashqari byulleteniga kiritgan holda, savdoga qo‘yishdir.

Birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda o‘tkazilayotgan savdolarning oshkoraligi va ommaviyligini ta’minlashi lozim[22].

---

22 Shoha’zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. Darslik.-T.: Iqtisod-moliya, 2007.–495 b.

Investitsiya fondi – bu investorlarning pul mablag'larini ishga solish maqsadida aksiyalar sotib oluvchi va chiqaruvchi hamda mablag'larni fond nomidan qimmatli qog'ozlarga, banklardagi hisob varaqalariga va omonatlarga qo'yuvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan moliyaviy muassasadir. Investitsiya fondi dastlab 1822- yilda Belgiyada, keyinchalik XX asr boshlarida Buyuk Britaniya va AQSHda tuzilgan.

Investitsiya fondi ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati ko'rinishida tuzilib, u o'z aksiyalarini muomalaga chiqarish va sotish yo'li bilan to'plagan kapitalini boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlariga yoki pul-kredit bozoriga investitsiya qiladi. Uning asosiy maqsadi – to'plagan kapitalining daromadliligini ta'minlashdir.

Investitsiya fondlarining o'z mablag'larini investitsiya qilish bilan bog'liq tavakkalchiligi, bu mablag'larning bozordagi qadri o'zgarishidan keladigan daromad yoki ko'riladigan zarar to'la-to'kis ushbu fond egalari (aksiyadorlari) hisobiga o'tkaziladi va ular tomonidan fond aksiyalarining joriy narxlari o'zgarishi hisobiga realizatsiya qilinadi. Investitsiya fondi aksiyalarining bozor narxi va likvidligi uning egalik qilib turgan emitentlar qimmatli qog'ozlarning bozor narxiga va likvidligiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Investitsiya fondlari asosan investitsiyalarni samarali diversifikatsiyalash, ya'ni tarqatish hamda investitsiya portfelini boshqarish vazifalarini bajaradi.

Xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) – aholining jamg'armasini to'playdigan va bu mablag'larga xususiylashtirilgan korxonalarning qimmatli qog'ozlarini sotib oladigan, shuningdek, qimmatli qog'ozlardan foyda ko'rib, uni aksiyadorlar o'rtasida dividend shaklida taqsimlovchi moliyaviy muassasa. Uning asosiy maqsadi – aholining keng qatlamini qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb etish, ularning omonati daromad keltirishini ta'minlash, boyligini oshirishdan iborat. Xususiylashtirish investitsiya fondlari orqali xususiylashtirish pirovardida davlat mulkining adolatli

taqsimlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishida hamda mamlakatdagi mulkdorlar sinfining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kliring palatasi – qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar bo'yicha hisob-kitobni, ya'ni kliring operatsiyalarini amalga oshiruvchi investitsiya muassasasi. Kliring – bu tovarlar, qimmatli qog'ozlar, xizmatlar uchun o'zaro majburiyat va talablarni, ya'ni bir-biriga to'laydigan pullarni hisobga olish bilan naqd pulsiz hisob-kitob qilish tizimidir. Bu faoliyat bitimga oid axborotlarni to'plash, ularni taqqoslash, ularga tuzatish kiritish, qimmatli qog'ozlarga doir fuqaroviy-huquqiy bitimlarni ijro etish uchun buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash operatsiyalarini nazarda tutadi.

Fond do'koni – bu investitsiya institutlarining tarkibiy bo'linmasi bo'lib, jismoniy shaxslar uchun qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari mayda ulgurji va chakana savdosini amalga oshiradi. U investitsiya vositachilari, investitsiya kompaniyalari va boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan ochilishi mumkin.

Fond do'konining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– aholiga naqd aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotish;

– jismoniy shaxslarning mulki bo'lib turgan va milliy depozitariydagi ularning depo hisob varaqasida saqlanayotgan aksiyalarni hamda boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;

– milliy depozitariyda depo hisob varaqasini ochish bo'yicha fuqarolarga xizmat ko'rsatish;

– qimmatli qog'ozlar bozorida jismoniy shaxslarga maslahat xizmatini ko'rsatish.

Fond do'konlari bozor munosabatlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, ular tufayli fond birjasi orqali qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi mexanizmi bilan tanish bo'lmagan aholining salmoqli qismi xususiylashtirilayotgan korxonalarning aksiyalaridan erkin foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, aksiyalarni fond do'konlari orqali sotish ortiqcha pul massasining

muomaladan chiqarilishiga olib keladiki, bu bilan u pulning qadrsizlanish jarayoniga to‘siq bo‘ladi.

Depozitariy – bu depozitar faoliyat, ya’ni qimmatli qog‘ozlarni saqlash va ularga tegishli bo‘lgan huquqlarning hisobini olib borish xizmatlari bilan shug‘ullanadigan investitsiya muassasasidir. Depozitariy tomonidan bajariluvchi mijozlarning aktivlarini saqlash, ularning depo hisoblarini olib borish, aksiyadorlarning reestrini yuritish, qimmatli qog‘ozlarga tegishli bo‘lgan huquqlar hisobi kabi vazifalar bankning pul mablag‘lari bo‘yicha bajaradigan vazifalariga o‘xshaydi, asosiy farqi – depozitariy o‘z deponentining aktivlariga bevosita egalik qila olmasligi, ya’ni o‘zida saqlanayotgan aktivlardan foydalana olmasligidir. Deponent qimmatli qog‘ozlarining majburiyat bilan ta’minlanganligi dalilini qayd etish, deponentning boshqalardan alohida bo‘lgan depo hisobini olib borish, emitent yoki reestrchidan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi olingan barcha ma’lumotlarni deponentga yetkazish depozitariyning asosiy majburiyatlaridan hisoblanadi. Shuningdek, u quyidagi qo‘shimcha vazifalarni ham bajaradi:

– deponentlarning topshirig‘iga binoan qimmatli qog‘ozlarni uchinchi shaxslarga berish;

– egalik huquqlarini identifikatsiyalash (aniqlash);

– qimmatli qog‘ozlarga egalik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni emitentdan deponentlarga va deponentdan emitentlarga berish;

– emitentlar bilan shartnomaga asosan ularning aksiyadorlari reestrini yuritish;

– depozitariyda saqlanayotgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromad

summalarini mijozlarning topshirig‘iga binoan ularning banklardagi pul hisob raqamlariga o‘tkazish;

– qimmatli qog‘ozlarning haqiqiyligini va to‘lovliligini ekspertiza qilish;

–qimmatli qog‘ozlarni inkassatsiya qilish va egalariga yetkazib berish;

–qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha kliring amallarini bajarish;

–qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi shartnomalarining bajarilish darajasini qayd qilish.

Soliq idoralari tizimi soliq hamda boshqa majburiy to‘lovlarni undirish, soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri, to‘liq hisoblanishini hamda o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish maqsadida tuzilgan davlat muassasalari majmuidir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq idoralari tizimiga Davlat soliq qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmalari, tumanlar, shaharlar va shaharlarga itoat etuvchi tuman soliq inspeksiyalari kiradi. Mazkur idoralarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

–soliq va to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishini va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;

–turli byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishini va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;

–musodara qilingan, egasiz mol-mulklar, xazina boyliklarini hisobga olish, baholash va sotish;

–daromadlarni yashirish holatlarini aniqlash, soliq qonunlarining buzilishiga chek qo‘yish va ularning oldini olish maqsadida surishtiruvlar o‘tkazish;

–aybdorlarni javobgarlikka tortish, amaldagi qonunlarni buzish hollariga oid materiallarni tergov va sud idoralariga oshirish va hokazo.

Patent idorasi – sanoat mulki, shu jumladan, ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari, tovarlar kelib chiqishining nomlariga huquqlarni muhofaza qilish sohasida, shuningdek, seleksiya yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma’lumotlar bazalarini va integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish borasida yagona davlat

siyosatini shakllantirish va ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyalari – sug'urtalovchi rolida maydonga tushuvchi, ya'ni

sug'urta hodisasi ro'y bergan chog'da sug'urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o'ziga oluvchi tashkilotlar. Sug'urta kompaniyalari aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari, o'zaro sug'urta kompaniyalari va boshqa ko'rinishlarda tashkil etiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat xavf-xataridan sug'urtalash, ya'ni tijorat operatsiyalari va xo'jalik faoliyatini zarar ko'rishdan sug'urtalash ishlarini amalga oshiruvchi muassasalarning ahamiyati yuqori bo'ladi.

Sug'urta kompaniyalari umuman hayotda va iqtisodiyotda, xususan moliya

bozorida quyidagi rollarni bajaradi:

–risksizlikni (sug'urta turlari klassifikatori bo'yicha) ta'minlovchi moliyaviy institutlar;

–moliyaviy resurslar akkumulyatori, yirik investitsiyalar manbayi;

–institutsional investor (belgilangan tartibda);

–qimmatli qog'ozlar emitenti (belgilangan tartibda).

Yuqorida qayd etilgan holatlarni xalqaro sug'urta bozori va sug'urta operatsiyalari rivojlanishi tendensiyalari asosida ko'rish mumkin[23].

---

[23] Vahobov A.V., Jumaev N.X. Burxanov U.A. Xalqaro moliya munosabatlari.-T.: Sharq. 2003.– 347-370-bb.

Bilimni mustahkamlash bo‘yicha nazorat savollari:

1. Bozor mexanizmlarining samarali amal qilishi bilan infratuzilma tarkibiy qismlarining turli-tumanligi va yetarli darajada rivojlanganligiga o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlang.

2. Hozirda iqtisodiy adabiyot va qo‘llanmalarda bozor infratuzilmasining asosiy unsurlari sifatida qanday obyektlar ko‘rsatib o‘tiladi?

3. Moliya bozorining asosiy maqsadi nima va unga erishish uchun qanday sharoitlarning yaratilishi taqozo etiladi?

4. Moliya bozori qanday funksiyalarni bajaradi?

5. Bozor aloqalarini jadallashtirishga xizmat ko‘rsatuvchi qaysi infratuzilma muassasalarini bilasiz?

6. Birjalarning iqtisodiy mazmuni va vazifalari nimalar orqali namoyon bo‘ladi?

7. Birja bitimlari turlarining turkumlanishini izohlab bering.

8. Qimmatli qog‘ozlar nima, ularning iqtisodiyotda tutgan o‘rni qanday?

9. Bozor infratuzilmasi sifatidagi kredit tizimining mazmunini izohlang.

10. Tijorat banklarining iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotdagi ahamiyatini qanday ifodalash mumkin?

11. Investitsiya institutlarining iqtisodiyotdagi roli nimalar orqali namoyon bo‘ladi?

12. O‘zbekistondagi qimmatli qog‘ozlar bozorida qaysi professional faoliyat turlari amalga oshiriladi?

13. Transfer-agent nima, u qanday faoliyatni amalga oshiradi?

14. Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha birjadan tashqari savdolar tashkilotchisining faoliyatini tushuntirib bering.

15. Sug‘urta kompaniyalari iqtisodiyotda qanday vazifalarni bajaradi?

4-bob. BOZOR INFRATUZILMASINING AMAL QILISH SHAKLLARI VA MEXANIZMLARI

4.1. Bozor infratuzilmasi faoliyatining shart-sharoitlari, shakllari va usullari

Umuman iqtisodiyotda har bir nazariy va amaliy fanning rivojlanishi va fan sifatida shakllanishining zaruriy shart-sharoitlari mavjud bo'lib, bozor infratuzilmasi nazariyasi fani ham iqtisodiy rivojlanish muhim bosqichlarining sharti hisoblanadi. Bozor infratuzilmasi nazariyasi fani hozirgi kunga kelib iqtisodiyotda tashkil topayotgan turli mulkchilik shakllari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning majudligi bilan bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot ma'lum bir tomonlarining uzviy bog'liqligi, ular o'rtasidagi munosabatlarning yuqori integratsiyalashganligi hamda ma'lum biznes birliklarining yangitdan vujudga kelishi bilan amal qiladigan faoliyat turlarini tartibga solish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, bozor infratuzilmasining real hayotda mavjud bo'lishi ularning amaliyot bilan bog'langanligini ko'rsatib beradi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, bozordagi har bir ishtirokchi o'zining infratuzimasiga ega bo'lishi va ularning faoliyatiga ehtiyoj sezishi, ular faoliyatining samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy qarashlar majmuasining shakllanishi o'z navbatida yangi g'oyalarni va yangi fanlarning obyektiga aylanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, har bir fanning amaliyotda asosi bo'lgani kabi, bozor infratuzilmasi nazariyasi fanining ham amaliyotda o'ziga yarasha o'rganilshni talab etuvchi amaliy ko'rinishlari mavjud. Shuning uchun hozirgi kunda bozor infratuzilmasi nazariyasi fani yangi fan sifatida shakllanib kelmoqda.

Bozor infratuzilmasi nazariyasi fani bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor uchun hamda iqtisodiyotning subyektlari

uchun o‘zaro iqtisodiy munosabatlarning qulayligini ta’minlash maqsadida rivojlantirishni talab etadi. Misol uchun, yangi vujudga kelgan har bir bozor infratuzilmasi uning takomillashtirilishini va yangi bosqichga o‘tishini taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida yangi nazariy bilimlarni jamlanishini va amaliyotga qo‘llanilishidagi savodxonlikni talab qiladi.

Iqtisodiyotning tahlil qilinuvchi asosiy bosqichlari mavjud bo‘lib, ular ishlab chiqarish jarayoni, ayirboshlash jarayoni, taqsimlash jarayoni va iste’mol qilish jarayonlaridir. Bu jarayonlarning har biri ko‘plab fanlarning o‘rganish obyektiga aylangan. Iqtisodiyotning turlari, darajalari qanday bo‘lishidan qat’i nazar ularning hammasi bir maqsadga bo‘ysingan: u ham bo‘lsa insoniyatning yaxshi yashashi, ko‘payishi va kamol topishi uchun shart-sharoit yaratish, turli xil hayotiy vositalarni yaratib berish va pirovardida ularning ehtiyojlarini maksimal qondirishdan iborat. Shulardan biri ayriboshlash jarayoni biz o‘rganayotgan faning asosiy qismiga to‘g‘ri keladi. Ayirboshlash jarayonining iqtisodiyotdagi o‘rni beqiyosdir. Bu jarayonga tarixdan juda ko‘p misollar keltirish mumkin. Birgina Buyuk ipak yo‘li misolida ko‘rishimiz mumkin. Buyuk ipak yo‘li nafaqat insonlarning ehtiyojlarini qondirish, ularga boshqa yurtlarda ishlab chiqarilgan noz-ne’matlarni yetkazib berish, balki, jamiyat va taraqqiyotning rivojlanishi uchun muhim infratuzilma vazifasini o‘tagan. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida subyektlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar va xizmatlarning iste’molchilarga yetkazib berishga xizmat qiluvchi qismi, infratuzilmasi o‘zining bir necha usullari bilan amal qiladi.

1) to‘g‘ridan-to‘g‘ri;

2) axborot berish;

3) yetkazib berish;

4) aralash.

Bu usullarni quyidagi jadval orqali qanday ko‘rinishlarda amal qilishini tahlil qilishimiz mumkin.

4.1.1-jadval

Bozor infratuzilmasi amal qilish shakllarining usullari bo‘yicha guruhlanishi

To‘g‘ridan to‘g‘ri	- birjalar (tovar, xomashyo, fond, valyuta), ularning tashkiliy rasmiylashtirilan vositachiligi; - auksionlar, yarmarkalar va tashkiliy birjadan tashqari vositachilikning boshqa shakllari; - kredit tizimi va tijorat banklari; - emissiya tizimi va emissiya banklari; - oliy va o‘rta iqtisodiy ta’lim tizimi; - maxsus va hududiy bozorlar.
Axborot berish	- aholi bandligini tartibga solish tizimi hamda bandlikka davlat va nodavlat yo‘li bilan ko‘maklashish markazlari (mehnat birjalari); - axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalari; - maxsus reklama agentliklari, axborot markazlari va ommaviy axborot vositalari agentliklari; - yollanib ishlovchilarning kasaba uyushmalari; - tijorat-ko‘rgazma komplekslari; - maslahat beruvchi (konsalting) kompaniyalari.
Yetkazib berish	- transport (havo yo‘llari, daryo, avtotransport va temir yo‘l transporti); - pochta; - elektron ahborotlarni yetkazib berish; - moliyaviy tashkilotlar.
Aralash	- soliq idoralari tizimi va soliq inspeksiyasi; - tijorat xo‘jalik xavf-xatarini sug‘urtalash tizimi va sug‘urta kompaniyalari; - savdo palatalari, ishbilarmon doiralarning boshqa jamoat, ixtiyoriy va davlat birlashmalari (uyushmalari); -bojxona tizimi; -auditorlik kompaniyalari; -ishbilarmonlik faolligini rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan ijtimoiy va davlat fondlari; -erkin tadbirkorlikning maxsus hududlari.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor infratuzilmasining amaliyotda qo'llanilishi usullari o'zining xususiyatidan kelib chiqib bir qancha sohalarni qamrab oladi.

Bozor infratuzilmalari to'g'ridan to'g'ri usulda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga sotilishini ta'minlaydi. Bu yerda ular tayyor mahsulot va xizmatlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradilar. Shuningdek, ular ikkinchi vositachilar (ulgurji savdogar va vositachilar) xizmatlarini ham shakllantirishga erishadilar.

Axborot berish usuli orqali infratuzilma subyektlari ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarning iste'molchilarga yetkazib berilishida o'zining axborot berish ko'rinishidagi vazifalarini bajaradi va iste'molchilarga qulaylik yaratadi. Bu yerda ular axborot kommunikatsiya, maslahat beruvchi konsalting xizmatlari ko'rsatilishi va ishchi kuchini bo'sh ish o'rinlari bilan to'ldirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Ushbu usulda tovar va xizmatlarning tegishli turi va xususiyatlari haqida iste'molchilar ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Navbatdagi usul bu yetkazib berish usuli bo'lib, bu yerda bozor ishtirokchilari amalga oshirilgan savdolarini iste'molchiga yetkazish uchun qulaylik yaratadilar. Bunda hozirgi kunda rivojlanib borayotgan yuqori texnologiyalar sharoitida yaratilgan yangi dasturiy va axborot ko'rinishidagi ma'lumotlarni (mahsulotlarni) internet tarmog'i orqali olish va iste'mol qilinishini alohida e'tirof etish kerak. Misol uchun "1-C buxgalteriya" dasturlari, antivirus dasturlari va boshqalar.

Bozor infratuzilmasining ayrim ishtirokchilari hozirgi kunda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiyalash strategiyalaridan kelib chiqib ishlab chiqrilgan mahsulotlarni va ko'rsatiladigan xizmatlarni iste'molchilarga yetkazib berishda aralash usuldan foydalanishmoqda. Bu yerda ta'kidlash lozimki, ishlab chiqruvchilar ishlab chiqargan mahsulotlarini va ko'rsatayotgan

xizmatlarini iste'molchiga yetib borishida bevosita yetib borishini kompleks tashkil qilishga erishmoqdalar.

Shu bilan birga, bu usulning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu infratuzilmalar faoliyati jarayonlarida davlat idoralarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ushbu jarayonlarda o'z navbatida davlatning ham o'z ulushi va rasmiylashtirish vazifalari, qisqa qilib aytganda davlat manfaatlarining ro'yobga chiqarilishi nazarda tutiladi. Bunda davlat idoralari va qonunchiligi bilan ushbu jarayonlarning ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va davlat manfaatlarining uyg'unligini ta'minlashga erishadilar. Bu bilan esa iqtisodiyotning me'yorda rivojlanishi, yangi tartib qoidalarning ishlab chiqilishi va insonlarning yashashi va kamol topishi uchun qulayliklar yaratiladi.

4.2. O'zbekistonda bozor infratuzilmasining amal qilish mexanizmlari va faoliyat natijalari

Har qanday fanning amaliyotga tatbiq etilishi darajasi ushbu faning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi. Bozor infratuzilmasi nazariyasi fani nazariy fan hisoblanib, uning asosiy natijalari va ilmiy xulosalari bozordagi infratuzilmani shakllantiruvchi subyektlarning harakatlarida namoyon bo'ladi. Ularning natijalarini baholash va sifatini oshirish uchun fanning asosiy vazifalaridan kelib chiqib, ilmiy xulosalar yaratish va amaliyotning har bir qadamini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Bozor infratuzilmasi ishtirokchilari harakatlarini doimiy kuzatish asosida xulosalar chiqarish va ularni amaliyotga tatbiq etishni bir necha shakllarda amalga oshirish mumkin. Uning uchun bozordagi har bir ishtirokchining iqtisodiy aloqalarida mavjud muammolarini o'rganish talab etiladi. Bu shakllarni quydagilar orqali ifodalash mumkin:

– davlat tomonidan yaratiladigan sharoitlar;

– yangi iqtisodiy ishtirokchilarning paydo bo'lishi.

Davlat tomonidan yaratiladigan sharoitlar 2 xil usulda amalga

oshiriladi. Bular to'g'ridan to'g'ri (bevosita), ya'ni infratuzilmaning shakllanishiga qonunchilik asosida sharoit yaratish. Bunda mamlakat hukumati tomonidan bozordagi sharoitlar va ishtirokchilarning munosabatlarini davlat va iqtisodiy subyektlar manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib qonuniylashtiradi va ularga sharoitlar yaratiladi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tilgandan so'ng juda ko'plab bunday infratuzilmalar yaratildi. Misol qilib aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti xususiy mulkchilikning bo'lishini talab etdi va unda yirik davlat korxonalarini xususiylashtirish jarayoni boshlandi. Bu esa quyidagi to'rt xil usulda amalga oshirildi:

1) davlat mulkini aksiyalar orqali korxonada ishlovchilarga taqsimlab berish;

2) korxona aksiyalarini fond bozorida sotish;

3) aksiyalar chiqarilib, davlat ixtiyorida ushlab qolish;

4) chet ellik hamkorlarga aksiyalarini sotish.

Bu jarayonda albatta fond bozorlarini tashkil etish va ular faoliyatini qonuniylashtirish zaruriy sharoit edi. Ushbu jarayonlar doimiy muvofiqlashtirilib va takomillashtirilib boriluvchi jarayon hisoblanib, O'zbekistonda jahon tajribasidan foydalanib, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, doimiy zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirilib borilmoqda.

Ikkinchi usulni bilvosita usul, ya'ni iqtisodiy dastaklar orqali shart-sharoit yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda ma'lum bir bozor iqtisodiyoti ishtirokchilariga zarur bo'lgan yangi infratuzilma obyektlarini tashkil etish uchun sharoitlar yaratib beriladi. Misol uchun, soliqlar, davlat bojlari va boshqa davlat tomonidan undiriladigan to'lovlardan qisman va to'liq imtiyozlar berish yoki taqiqlar qo'yish orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol tovarlarining ayrim turlari va boshqa shunga o'xshash bir qancha tovarlarning ishlab chiqarilishi yoki sotilishini rag'batlantirish yoki taqiqlash maqsadida aksiz va boshqa soliqlar, to'lovlar joriy etilgan.

Bozordagi infratuzilmani rivojlantirishdagi bu harakatlarni

qo'llab-quvvatlash va ularning bu borada olib borilayotgan islohotlarni samarali tashkil etish maqsadidagi amaliy harakatlarining ketma-ketligi va uzviyligini bozor infratuzilmasi nazariyasi fanida o'rganiladi hamda ularning natijalarini ilmiy tadqiqotlar, ilmiy loyihalar va ilmiy maqolalar ko'rinishida havola etib boriladi.

Bozor infratuzilmasi subyektlarining iqtisodiy harakatlari ustidan alohida hollarda xulosalar chiqarib bo'lmaydi, unda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalardagi iqtisodiy subyektlarning harakatlari asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun nazariy xulosalar chiqarish uchun ham amaliyotda mavjud bo'lgan har bir bozor infratuzilmasining bog'liqlikda amal qilayotgan barcha iqtisodiy subyektlar va amal qilayotgan qonunchilikdan xabardor bo'lish talab etiladi. Shundagina bozor infratuzilmasi nazariyasida ko'rilayotgan nazariy xulosalar amaliyotga jonli ravshda tatbiq etilishi va o'z samarasini berishi mumkin.

Shunday qilib, O'zbekistonda bozor infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining yana bir xususiyatli tomoni – bu uning mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bosqichlariga muvofiq holda olib borilishidir.

Birinchi bosqich (1991–1995- yillar) – bozor infratuzilmasining yangi subyektlarini shakllantirish va mavjudlarini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini vujudga keltirishdan iborat bo'lib, uning uslubiy va konseptual masalalari tadbirkorlarning bevosita ehtiyojlarini qondirishi, ya'ni tadbirkorlik asoslari bo'yicha mutaxassislarni o'qitish va qayta tayyorlash tizimi, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisob, moliya-kredit tizimi, ulgurji-vositachilik tuzilmalari, agroxizmat, birja, xizmatlar bozorini va tashqi iqtisodiy faoliyat tuzilmalari bo'yicha amalga oshirildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xizmat qiladigan tarmoqlar – tijorat banklari tarmog'ini, zamonaviy moliya va soliq tizimi, audit, sug'urta vositasi va birja faoliyatini rivojlantirmay turib, ma'rifatli bozor sari aniq qadam tash-

lash to‘g‘risida gap ham bo‘lishi *mumkin emas*”[24] . Shunga ko‘ra, bozor infratuzilmasini rivojlantirishning dastlabki bosqichida eski tizimdan qolgan tuzilmalarga yangi sifat o‘zgarishlari baxsh etish, ularni takomillashtirish bilan bir qatorda, iqtisodiyotimiz uchun yangi bo‘lgan tarkibiy tuzilmalarni ham shakllantirish masalalarini hal etish dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi.

O‘zbekistonda bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish borasida belgilab berilgan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish natijasida qisqa vaqt ichida quyidagi tuzilmalarning faoliyati yo‘lga qo‘yildi (4.2.1-jadval):

4.2.1-jadval

O‘zbekistonda 1991–1995 yillarda tashkil etilgan bozor infratuzilmasi muassasalari

T/r	***Bozor infratuzilmasi shakllanishining birinchi bosqichida tashkil etilgan muassasalar***	***Tashkil etilgan sanasi***
1	“O‘zbekiston Respublikasi tadbirkorlar uyushmasi va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tashkiloti” tuzildi.	1991-yil 7-aprel
2	«O‘zbekturizm» milliy kompaniyasi tashkil etildi.	1991- yil 27- iyul
3	Vazirlar Mahkamasi qoshida Davlat soliq Bosh boshqarmasi, 1994- yildan esa Davlat soliq qo‘mitasi tuzildi.	1991- yil 12- avgust
4	O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki tuzildi.	1991-yil 7-sentabr
5	Davlat bojxona qo‘mitasi tuzilib, keyinchalik Bojxona Bosh boshqarmasiga aylantirilib Davlat soliq qo‘mitasiga bo‘ysundirildi.	1991- yil 25- oktabr

[24] Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura: Nutqlar, maqolalar, suhbatlar. T.: O‘zbekiston, 1993, 115-b.

6	Respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi (Davlat ta'minot qo'mitasi (O'zshartnomasavdo) o'rniga) tuzildi. Uning tarkibiga quyidagi muassasalar kiritildi: 1) Respublika aksiyadorlik tovar xomashyo birjasi; 2) Respublika aksiyadorlik birja banki; 3) hududiy aksiyadorlik tijoratchi-vositachi kompaniyalari.	1992- yil 28- fevral
7	O'zbekiston Davlat aksiyadorlik "Savdo" ("O'zbeksavdo") assotsiatsiyasi (O'zbekiston savdo vazirligi o'rniga) tuzildi.	1992- yil 5-may
8	"O'zbekbirlashuv" assotsiatsiyasi ("O'zbekbirlashuv" birlashmasi o'rniga) tashkil etildi.	1992- yil 5- may
9	"O'zistiqbolstat" davlat qo'mitasi (Davlat reja qo'mitasi (Gosplan) va Markaziy statistika qo'mitasi o'rniga tashkil etildi. 1997- yilda esa qo'mita Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga aylantirildi. Hozirda Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi alohida faoliyat olib bormoqda.	1992- yil 5- avgust
10	O'zbekiston Davlat qurilish materiallari ishlab chiqarish (O'zqurilish materiallari) konserni (O'zbekiston qurilish materiallari vazirligi o'rniga) tashkil etildi.	1992- yil 21- sentabr
11	O'zbekiston avtomobil transporti ("O'zavtotrans") (O'zbekiston Davlat avtomobil transporti vazirligi o'rniga) tashkil etildi.	1993- yil 8- yanvar
12	O'zbekiston Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat aksiyadorlik konserni ("O'zavtoyo'l") tashkil etildi.	1993- yil 26- yanvar
13	Toshkent davlat aksiyadorlik qurilish korporatsiyasi ("Glavtashkentstroy" o'rniga) tuzildi.	1993-yil 8-fevral
14	O'zbekiston Respublikasi savdo-xarid uyushmasi ("O'ztayyorlovsavdo") tashkil etildi.	1994- yil 4- avgust
15	O'zbekiston temir yo'llari davlat aksiyadorlik kompaniyasi tuziidi.	1994- yil 7- noyabr
16	Respublika "O'zinvestloyiha" injiring kompaniyasi tuzildi.	1995- yil 11- iyul
17	Xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni sug'urtaviy himoya qilish Agentligi tashkil etildi.	1995- yil 26- iyul
18	Ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik tijorat (Paxta bank) banki tuzildi.	1995- yil 27- iyul
19	Xorijiy investor(sarmoyador)lar bo'yicha Agentlik tuzildi.	1995- yil 21- avgust
20	"Zamin" ixtisoslashgan davlat aksiyadorlik ipoteka banki tashkil etildi.	1995- yil 7- sentabr
21	"Asaka" ixtisoslashgan davlat aksiyadorlik tijorat banki tuzildi.	1995 yil 7- noyabr

Bozor infratuzilmasi rivojlanishi dastlabki bosqichining natijalari sifatida respublikamizda 1994- yildan boshlab kredit resurslari bozori faol ishlay boshladi. Moliya bozorida aksiyadorlik jamiyatlari sifatida ish olib boruvchi davlatga qarashli bo'lmagan 30 dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 240 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq tuzildi. Respublikaning har bir tumanida mehnat birjalari tashkil etildi. Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularning kasbini o'zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash tizimi yo'lga qo'yildi. Natijada rasman ro'yxatga olingan ishsizlar mehnat resurslarining 1%dan kamrog'ini tashkil etdi.

Ikkinchi bosqich (1996–2000- yillar) – bozor infratuzilmasining barcha subyektlari majmuasi shakllanishi, rivojlanishi va o'z faoliyatini atroflicha tashkil etish hamda yanada takomillashuvi jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu bosqich avvalambor, iqtisodiyotda pul-kredit dastaklaridan faol foydalanish bilan tasniflanadi. Shuningdek, bu bosqichda Prezidentimiz bozor infratuzilmasini yaratish borasida erishilgan natijalarga tayanilgan holda, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni maqsadga muvofiq holda yo'naltirish imkonini beruvchi zamonaviy tuzilmalarni yaratishga e'tibor qaratadi. Zero, «Zamonaviy infrastrukturani yaratish bozor munosabatlariga haqiqiy madaniy-ma'rifiy xarakter baxsh etish, stixiyaga va boshboshdoqlikka yo'l qo'ymaslik imkonini beradi».[25]

Xuddi shu maqsadda tuzilgan O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi (1996- yil 12- mart), Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi (1998- yil 22- aprel) kabi infratuzilmaning tarkibiy qismlari mamlakatdagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirishga qaratildi. Shuningdek, bu bosqichda bozor infratuzilmasini rivojlantirish

[25] Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: O'zbekiston, 1996, 36-b.

aholining moliyaviy mablag'larini samarali safarbar etish va joylashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiya islohotlari orqali olib borildi. Qisqa muddat ichida tadbirkorlarga tovar va moddiy boyliklar, aksiyalar, ko'chmas mulk savdosi, kredit, qimmatli qog'ozlar chiqarish va muomalasini tashkil etish borasida xizmat ko'rsatuvchi bozor muassasalari tarmog'i tashkil etildi (4.2.2-jadval).[26]

4.2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida 1996–1999 yillarda bozor infratuzilmasining rivojlanishi

Ko'rsatkichlar	1992–1995-yy.	1996-y.	1997-y.	1998-y.	1999-y.	1992–1999-yy. bo'yicha jami
Tashkil etilgan brokerlik idoralari: – ko'chmas mulk savdosi bo'yicha	157	100	106	32	62	457
– aksiyalar savdosi bo'yicha	91	155	90	26	–	362
Tashkil etilgan mayda ulgurji tuzilmalar: Jami	1173	487	254	161	109	2184
sh.j. savdo bo'yicha	1143	473	244	160	–	2020
O'tkazilgan savdo va yarmarkalar	645	1240	1744	1446	–	5075

[26] Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики/ Под ред. А.Х.Хикматова.-Т.: O'zbekiston 2001, 82-83-б.

Bu davr mobaynida respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tovar-xomashyo birjalarining savdo aylanmasi sezilarli darajada oshdi (4.2.3-jadval).

4.2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjalarining 1996–2000-yillardagi aylanmasi, mln. so'm.

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	1996	1997	1998	1999	2000
Birjaning savdo aylanmasi	20944,1	21101,1	24293,3	42479,7	110193,5
Sh.j.: xalq iste'moli tovarlari bo'yicha	15848,9	10707,3	12431,8	25997,3	49275,3
Ishlab chiqarish-texnik ahamiyatdagi tovarlar bo'yicha	5095,3	10394,8	11845,2	16456,2	60773,9
Ko'chmas mulk bo'yicha	–	–	16,2	26,2	144,3

O'zbekistonda tovar-xomashyo birjasidagi o'zgarishlar keyingi yillarda ham umumiy ijobiy o'zgarishlarni qayd etgan. Quyidagi chizma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ishlab chiqarishning ayriboshlash maqsadida tovar-xomashyo birjalaridagi tovar aylanmasi ham yildan yilga o'sib bormoqda (4.2.1-rasm).



4.2.1-rasm. 1994–2007- yillarda O'zbekiston tovar-xomashyo birjasi tovar aylanmasi dinamikasi, mln. so'm.

Uchinchi bosqich (2000- yildan boshlab davom etmoqda) – bu bosqich bevosita O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirishning boshlanishi bilan bog‘liqdir. Ushbu bosqichda bozor iqtisodiyotiga mos muassasalardan tashkil topgan mustahkam tizim yaratish zarur. «Biz bozor infratuzilmasini, biznesga xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan uning barcha institutlari – konsalting, marketing, injiniring, lizing, sug‘urta tizimlari faoliyatini rivojlantirishni ustuvor vazifa deb bilamiz. ...Biz iqtisodiyotni boshqarishning o‘z davrini o‘tab bo‘lgan eski davlat tizimi o‘rniga bozor iqtisodiyotiga mos institutlaridan tashkil topgan mustahkam tizimni tezroq yaratish tarafdorimiz»[27]. Buning uchun avvalambor, moliya va bank tizimi jarayonini faollashtirish, bozor infratuzilmasi faoliyatini erkinlashtirish bevosita uning muassasalari o‘rtasida bozorga xos haqiqiy raqobat muhitini yaratishni va shu asosda ularning faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi.

[27] Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.: O‘zbekiston, 2000, 59-60-b.

Bilimni mustahkamlash bo'yicha nazorat savollari:

1. Bozor infratuzilmasi faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar taqozo etiladi?

2. Bozor infratuzilmasi faoliyati shakllarini turkumlang.

3. Bozor infratuzilmasi faoliyatining qanday usullarini bilasiz?

4. Bozor infratuzilmasi amal qilish shakllarining usullari bo'yicha guruhlanishini izohlab bering.

5. Bozor infratuzilmasi ishtirokchilari harakatlarini doimiy kuzatish asosida xulosalar chiqarish va ularni amaliyotga tatbiq etish qanday shakllarda amalga oshiriladi?

6. O'zbekistonda bozor infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishi qanday bosqichlarga muvofiq holda olib borilidi?

7. O'zbekistonda bozor infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining birinchi bosqichida nima ishlar amalga oshirildi?

8. O'zbekistonda bozor infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining ikkinchi bosqichi qaysi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi?

9. O'zbekistonda bozor infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining uchinchi bosqichi mazmun va vazifalarini izohlab bering.

10. Bozor infratuzilmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligi qanday sabablar bilan izohlanadi?

5-bob. O‘ZBEKISTONDA BOZOR INFRATUZILMASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

5.1. O‘zbekistonda bozor infratuzilmasining shakllanishida fond bozorining ta’siri

O‘zbekistonda bozor infratuzilmasini shakllantirish va samarali faoliyatini ta’minlash natijasida aynan fond birjalarini rivojlantirish hamda savdo aylanmasini ko‘paytirishga alohida e’tibor berildi. Natijada Toshkent fond birjasida ikkilamchi bozor shakllantirildi va samaradorligi oshirildi.

Toshkent fond birjasida ikkilamchi bozorda banklar qimmatli qog‘ozlari sotuvi yillar davomida o‘sib borganini ko‘rishimiz mumkin (5.1.1-rasm).



5.1.1-rasm. O‘zbekistonda tijorat banklarining umumiy birja aylanmasidagi ulushi.

Rasmdagi ma’lumotlarga ko‘ra fond bozorlarida boshqa sohalar qimmatli qog‘ozlar ulushi kamayib borganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Buning sababi esa qimmatli qog‘ozlar bozorida moliya sektori, aynan, banklar qimmatli qog‘ozlari narxlari va likvidligining ortib borishi hamda banklarning iqtisodiyotdagi rolining oshganligi orqali namoyon bo‘ladi. Unga ko‘ra banklar qimmatli qog‘ozlarining umumiy birja aylanmasidagi ulushi

2008- yildagi 39,1 foizdan 2011- yil 1- oktabr holatiga 62,4 foizga yetganini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi ko'p jihatdan qimmatli qog'ozlarning likvidligi va ularning daromadligi bilan bog'liq bo'lib, banklarning qimmatli qog'ozlariga nisbatan boshqa sohalar qimmatli qog'ozlarining yetarli darajada oshmayotganligi ularning fond birjalaridagi ishonchliligini ham ko'rsatadi.

Mamlakatimiz fond bozorining rivojlanishiga bank-moliya sohasidagi kompaniyalar, ayniqsa, tijorat banklari o'zlarining katta hissasini qo'shmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozoriga xizmat qiluvchi infratuzilma muassasalari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan tarkib topayotgan sohalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi qoshida Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish maqsadida 1996- yilning mart oyida maxsus markaz tashkil etilib, unga quyidagi vazifalar yuklatildi:

–mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va bajarish borasida davlat siyosatini amalga oshirish;

–mamlakatda ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va bozor qatnashchilarining, qimmatli qog'ozlar tuzilmasi va rivojlanishi bo'yicha ma'lumotlar bankining yagona reestrlarini yuritish, hisobga olish va hisobotini tashkil etish, qimmatli qog'ozlar muomalasini, bozor qatnashchilarining kasb faoliyatini boshqarish;

–qimmatli qog'ozlar bozorlarida milliy va xorijiy emitentlarning samarali muomalada bo'lishi uchun zarur huquqiy shart-sharoitlarni ta'minlovchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

–qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar – investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

–qimmatli qog‘ozlar bozorining holati va uning qatnashchilari to‘g‘risida investorlarni va jamoatchilikni keng xabardor qilish;

–qimmatli qog‘ozlar bozorining samarali infratuzilmasini tashkil etishda qatnashish;

–O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, mahalliy boshqaruv organlarining, birlashmalarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1994- yilda Toshkent fond birjasi tashkil etilib, bugungi kunda u respublikamizda 12 ta mintaqalararo bo‘linmalarga ega. Toshkent fond birjasining mintaqalararo savdolar qatnashchilari mintaqalardagi savdoga chiqariluvchi aksiyalar hajmi haqidagi axborotga ega bo‘lib qolmasdan, balki bevosita bitim tuzish imkoniga egadirlar. Bunday bitimlar taklif qilingan aksiyalar bo‘yicha elektron bankning mavjudligi tufayli Toshkent fond birjasida ishlab chiqilgan dasturiy vositalar bilan jihozlangan maxsus telekommunikatsiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mustaqillikning birinchi 10 yilligida Fond birjasini tashkil etish bilan bir qatorda investitsiya muassasalari – fond bozorining ixtisoslashgan ishtirokchilari tarmog‘ini ham shakllantirishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasi «Qimmatli qog‘ozlar bozorining amal qilishi mexanizmi to‘g‘risida»gi Qonuniga binoan qimmatli qog‘ozlar bozorida maxsus faoliyatni amalga oshiruvchi investitsiya muassasalarining 9 ta turi – investitsiya vositachisi, investitsiya maslahatchisi, investitsiya kompaniyasi, investitsiya fondi, boshqaruv kompaniyasi, depozitariy, hisob-kliring tashkiloti, qimmatli qog‘ozlar egalari ro‘yxatini yurituvchi, qimmatli qog‘ozlar nominal yurituvchisi belgilab berildi (5.1.1-jadval). Bu bozor iqtisodiyotining ilk bozor infratuzilma institutlarini shakllantirish davrlariga to‘g‘ri keladi va ularning rivojlanishini ta’minlash ko‘p jihatdan tadbiqiy xususiyatga ega bo‘lgan. Hozirda bu sohalarni rivojlantirish borasida juda keng ko‘lamdagi iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

5.1.1-jadval

Qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan investitsiya muassasalari soni[28]

Faoliyat turi	yillar					
	1992–1993	1994–1995	1996–1999	1998–1999	2000	ham-masi
Investitsiya vositachilari	35	47	192	26	12	312
Investitsiya maslahatchilari	–	1	26	8	10	45
Investitsiya kompaniyalari	1	21	38	2	5	67
XIFlari	–	–	83	5	–	88
Investitsiya fondlari	–	2	2	3	–	7
Boshqaruvchi kompaniyalar	–	–	82	8	6	96
Hisob–kliring kompaniyalari	–	–	1	2	–	3
Depozitariylar	–	3	10	11	11	35
Reestr yurituvchilar	–	–	28	35	1	64
Qimmatli qog'ozlarning nominal yurituvchilari	–	–	1	5	–	6
Birja faoliyati	–	–	2	–	–	2
Faoliyatning boshqa turlari	6	6	2	–	4	18
Faoliyatning aralash turlari	–	13	13	4	4	34
JAMI	42	93	480	101	53	777

28 Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики/ Под ред. А.Х.Хикматова.-Т.: «O'zbekiston», 2001, 212-b.

Shu bilan birga bozor infratuzilmasining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan fond bozorlarida banklarning qimmatli qog‘ozlarini savdo aylanmasi ham sezilarli darajada oshgan (5.1.2-rasm). Unga ko‘ra banklarning birjadagi qimmatli qog‘ozlar savdo aylanmasi birlamchi bozorga nisbatan sezilarli o‘sgan bo‘lib, 2007- yildagi 67,6 foizdan 2011- yil 9 oylik natijalariga ko‘ra 72,9 foizga yetgan. Birlamchi bozorlar qimmatli qog‘ozlarning umumiy emissiya salohiyatini ko‘rsatsa, ikkilamchi bozorning shakllanishi iqtisodiyotda ularning harakatini hamda nechog‘li likvidli ekanligini ifodalovchi ko‘rsatkich ham hisoblanadi. Respublikamizda bu borada, ya’ni ikkilamchi bozorni shakllantirish maqsadida qo‘shimcha chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.



5.1.2-rasm. Toshkent respublika fond birjasida ikkilamchi bozorning ulushi.

Umuman zamonaviy fond bozorining eng assosiy xususiyati hamda umumiy savdo hajmining ko‘p qismini asosan listingga

kirgan korxona va kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari tashkil etishi kerak. Listing – bu aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarining fond bozoriga kirishi uchun maxsus tartib hisoblanib, mazkur jarayon investorlarni fond bozorining holati, shuningdek, undagi ishonchli qimmatli qog'ozlar haqida axborot berish samaradorligini oshirish maqsadida yuritiladi. Listingdan o'tish aksiyadorlik jamiyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur jamiyatning obro'sini hamda uning qimmatli qog'ozlarining qadrini oshiradi. Listingga kirgan korxona kredit yoki zayomga ehtiyoj tug'ilgan paytda banklar yoki boshqa moliyaviy institutlarning ishonchiga oson kira olishi mumkin. Bundan tashqari tashqi moliya bozoriga chiqish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Chunki, xorijiy kompaniyalar listing kompaniyalari qimmatli qog'ozlarini afzal bilishadi. Chet el fond birjalari esa mahalliy fond birjasi listingida turgan emitentlarning qimmatli qog'ozlarigagina joy berishadi.

Shu bilan ta'kidlash kerakki, aksiyadorlik jamiyatlarining barchasi ham birja listingiga kira olmaydi. Toshkent respublika fond birjasi listing talablari yetarlicha qat'iy hamda xalqaro standartlar darajasida o'rnatilgan. O'tgan yillar davomida birja listing talablaridan ayrim kompaniyalargina muvaffaqiyatli o'tishgan. 2010- yilda Toshkent respublika fond birjasi listing ro'yxatida 19 ta kompaniya qayd etilgan bo'lsa 2011- yilda ularning soni 100 taga etdi. Bunday kompaniyalar qimmatli qog'ozlarining fond bozorida paydo bo'lishi investorlar qiziqishini tobora kuchaytirmoqda.

Fond birjasining asosiy infratuzilmalaridan sanalgan listing jarayonidagi eng muhim jihat emitent faoliyatining samaradorligi, qadrlilik koeffitsienti, balans bo'yicha qoplash darajasi, ustav kapitalidagi o'zgarishlar, qimmatli qog'ozlar muomalasining ko'lami hamda davomiylik ko'rsatkichlari tahlili negizidagi qimmatli qog'ozlarning ekspertizasi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarning bunday sinchkovlik asosida tanlab olinishi ularning ishonchliligini ta'minlaydi. Fond birjasi listingida joylashgan emitent ahborotlarni ma'lum qilish bo'yicha yuqori talablarga

rioya qilishi kerak bo'ladi. Emitent tomonidan axborotlarning oshkor qilinishi investorga aksiyadorlik jamiyati rivoji hamda uning qimmatli qog'ozlari sifatini baholash imkoniyatini beradi. Fond birjasi savdo qoidalariga binoan listing kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari majburiy kotirovka qilinadi. Bu listingdagi qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilariga haqiqiy qiymatni aniqlanishni ta'minlovchi bahoni belgilashning bozor mexanizmini qo'llashga imkoniyat beradi. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlarning muomala jarayoni birja nazorati ostida o'tib, bu savdolarning suiiste'molchilik hamda qalloblikdan xoli bo'lishni ta'minlaydi.

Fond bozori haqida gapirganda REPO birja operatsiyalarini ham aytish kerak bo'ladi. Hozirgi kunda bizning fond bozorimizda bunday imkoniyatlardan samarali foydalanilmayapti. REPO – bu birja operatsiyasi jarayoni, moliyaviy mablag'ga ehtiyojmand bir kompaniya o'z qimmatli qog'ozini boshqa bir kompaniyaga sotishi bilan belgilanadi. Bunda qimmatli qog'ozni sotib olgan kompaniya boshlang'ich narxidan ancha yuqori narxda qaytarib sotadi. Sotish va qayta sotib olish o'rtasidagi farq REPO bitimi bo'yicha foizni tashkil etadi. Umuman birinchi kompaniya o'z qimmatli qog'ozini garovga qo'yib, qarz olgandek va yuqori narxda qaytib sotib olish hisobidan foiz to'lagan ikkinchi kompaniya esa kreditor sifatida namoyon bo'ladi.

REPO tizimi shunisi bilan qiziqki, ham kredit, ham nokredit tashkilotlariga kreditlash imkoniyatini taqdim etadi. Uning zayom oluvchi uchun afzalligi esa qarzni hech qanday rasmiyatchiliksiz olishida namoyon bo'ladi. Agar ushbu kredit banklardan olinadigan bo'lsa, tabiiyki, bir qator hujjatlar yig'ishga to'g'ri keladi. Bu boradagi barcha ovaragarchiliklar REPO bitimida umuman bo'lmaydi. Bunda zayom oluvchilar jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkinligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni o'ziga jalb qilishi tabiiydir. Asosiy shart likvidli qimmatli qog'ozlarga egalik qilishdan iborat.

O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimining rivojlanish tendensiyasi (mlrd. so‘m) **5.1.2-jadval**

Yillar	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
QQB savdo tizimi, jami	17,6	26,7	47,5	87,3	146,2	166,2	342,1	408	708,3	749,6	1681,1
Uyushgan savdo tizimi	1,14	1,81	7,185	18,76	28,21	28,02	118,1	212,6	118,9	91,9	65,2
Uyushmagan savdo tizimi	15,96	24,29	34,51	55,93	86,89	87,35	153,4	177,2	586,8	656,2	1412,1
Korporativ obligatsiyalar muomalasi	0,484	0,59	5,89	16,15	28,77	11,11	0,11	4,5	2,6	1,5	203,8

108

O‘zbekistonda birlamchi va ikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimining rivojlanish tendensiyalari (mlrd. so‘m) **5.1.3-jadval**

	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimi, jami	17,6	26,7	47,5	87,3	146,2	166,2	342,1	408,0	708,3	749,6	1681,1
Aksiyalarning birlamchi bozori	0,62	1,22	2,025	6,416	27,55	61,578	53,33	268,77	483,4	560,4	930,0
Aksiyalarning ikkilamchi bozori	16,48	24,88	39,67	68,28	87,55	53,8	218,2	120,95	222,3	187,7	547,3
Korporativ obligatsiyalar muomalasi	0,484	0,59	5,89	16,15	28,77	11,11	0,11	4,5	2,6	1,5	203,8

Umuman olganda O‘zbekistonda 2000–2010- yillarda qimmatli qog‘ozlar bozori barqaror rivojlangan. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida dunyodagi bir qancha mamlakatlarning qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimlaridagi ko‘rsatkichlar tushib ketgan bir paytda O‘zbekiston uchun bu juda ham ijobiy holat hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar bozori umumiy aylanmasining 2008- yilda 173,6 foizga, 2009- yilda 105,8 foizga va 2010- yilda 224,2 foizga o‘sishi juda yuqori ko‘rsatkichdir. E’tiborlisi shundaki, uyushgan qimmatli qog‘ozlar savdo tizimi umumiy hajmining so‘nggi uch yilda pasayishi ham umumiy qimmatli qog‘ozlar savdo tizimi aylanmasining ortishiga to‘sqinlik qila olmagan. Uyushgan savdo tizimidagi qimmatli qog‘ozlar aylanmalarining deyarli barchasi Toshkent respublika fond birjasi hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa banklarda savdo tizimi va elektron savdo tizilmalarining deyarli savdo ko‘rsatmayotganligini anglatadi. Uyushgan savdo tizimidagi qimmatli qog‘ozlarning aylanmasi notarius va depozitariylar orqali ro‘yxatga olinuvchi savdo bitimlari hamda qimmatli qog‘ozlarni aksiyadorlar o‘rtasida yopiq usulda joylashtirish bitimi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, aksiyalarning birlamchi bozori so‘nggi o‘n yillikda barqaror o‘sgan. Aksiyalarning ikkilamchi bozori esa, nobarqaror rivojlanib, ba’zi yillarda pasayish holatlari ham ko‘rinadi. Jumladan, aksiyalarning ikkilamchi bozori 2009- yilda 2008- yilga nisbatan 84,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2009- yilda 2010- yilga nisbatan 291,5 foizga o‘sgan. Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ma’lumki, korporativ obligatsiyalarning ham uyushmagan bozorda aylanganligini inobatga olsak, 2010- yilda uyushmagan bozorning hissasi umumiy qimmatli qog‘ozlar bozorining 96,1 foizini tashkil etgan. O‘z navbatida, qimmatli qog‘ozlarning bozori 2010- yil yakunlari bo‘yicha umumiy qimmatli qog‘ozlar bozorining 65,1 foizini tashkil etgan. Bundan kelib chiqib, 2010- yilda umumiy qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishiga aksiyalar birlamchi bozorining o‘sishi katta ta’sir ko‘rsatganligini ta’kidlashimiz mumkin.

5.1.4-javdal

Qimmatli qog‘ozlar savdo tizimi umumiy saylanmasining mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (QQBSTG/YaIM)

Ko‘rsatkich	Yillar										
	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so‘m	3255,6	4925,3	7450,2	9837,8	12261	15210	20759	28186	36839	48097	61831
Yalpi ichki mahsulot, foiz	103,8	104,2	104,0	104,4	107,7	107,0	107,3	109,5	109,0	108,1	108,5
Qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimi, mlrd. so‘m	17,6	26,7	47,5	87,3	146,2	166,2	342,4	408,0	708,3	749,6	1681,1
Qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimi, foiz	138,4	151,7	177,9	183,1	167,4	113,6	205,8	119,2	173,6	105,8	224,2
QQBST/YaIM, foiz	0,5	0,5	0,6	0,9	1,2	1,1	1,6	1,4	1,9	1,6	2,7

5.1.5-jadval

Qimmatli qog‘ozlar savdo tizimi orqali mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar dinamikasi (mlrd. so‘m)

Ko‘rsat-kich	Yillar										
	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
YaIM	3255,6	4925,3	7450,2	9837,8	12261	15210	20759	28186	36839	48097	61831
JI	744,5	1320,9	1442,4	1867,4	2473,3	3012,9	3883,3	5979,7	8483,7	12532	15409
QQSTI	1	1,7	3,2	10	49,5	73,3	55,7	273,2	485,6	561,3	930
QQSTI/ YaIM, foiz	0,03	0,03	0,04	0,1	0,4	0,4	0,2	0,9	1,3	1,1	1,5
QQSTI/ JI, foiz	0,1	0,1	0,2	0,5	2	2,4	1,4	4,9	5,7	4,4	6

Ushbu ko‘rsatkichlar tahlili natijalaridan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, milliy qimmatli qog‘ozlar bozori va uning savdo tizimining umumiy iqtisodiyotdagi roli juda past. Bu esa bizdan bozor infratuzilmalarining aynan ushbu sektorining rolini oshirishni talab etadi. Zero, qimmatli qog‘ozlar bozori savdo tizimi infratuzilmaviy salohiyati imkoniyatlari to‘liq amalga oshirilmayapti.

. Yuqoridagi jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, bozor infratuzilmasining aksiyadorlik jamiyatlarining soni 2004- yildan boshlab 2010- yilgacha oldingi to‘rt yillikka nisbatan deyarli ikki marta kamayib ketgan. Ushbu tendensiya 2005–2010- yillarda ham davom etib, 2010- yil holatiga ochiq aksiyadorlik jamiyatlari soni 1402 tani tashkil etgan. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan aksiyalar sonida ham 2003- yilga nisbatan 2009- yilda deyarli besh barobarga, ular tomonidan amalga oshirilgan emissiya miqdorida esa 1,5 barobarga pasayish kuzatilgan. Ushbu holat so‘nggi yillarda aksiyadorlik jamiyatlarining ustav fondiga qo‘yilgan talablarning o‘sishi bilan bog‘liq. Ammo ularning soni o‘sishi kamaygani bilan ustav fondlari miqdori so‘nggi yillarda barqaror oshgan. Ushbu talablar aksiyalar birlamchi bozori savdosining so‘nggi yillarda faqat ortishiga imkoniyat yaratadi. Ammo korporativ obligatsiyalarning savdosi so‘nggi yillarda rivojlanmaganligi ushbu tizimning muammolaridan sanaladi. Buning asosiy sabablaridan biri respublikamizda 2004- yildan boshlab faqat ochiq aksiyadorlik jamiyatlari korporativ obligatsiyalar chiqarish huquqining kiritilishi hisoblanadi. 2004- yildan oldin boshqa shakldagi korxonalar ham obligatsiyalar chiqarish huquqiga ega edilar. Bu respublikamiz tomonidan bozor infratuzilmasining tartibli ishlashini ta’minlovchi chora hisoblansa-da, obligatsiyalar savdosining birmuncha kamayishiga olib keldi. So‘nggi yillarda qabul qilingan qonun va huquqiy-me’yoriy xujjatlar tijorat banklari obligatsiyalari emissiyasining bir necha o‘n barobarga ortishini ta’minladi. 2010 -yilga kelib, obligatsiyalar savdosi (2010- yilda 203,8 mlrd. so‘m,

2009- yilda esa 1,5 mlrd. so'mni tashkil etgan) ning tez sur'atlar bilan o'sishiga xizmat qildi.

Toshkent respublika fond birjasining infratuzilmasidan biri bo'lmish listingda aksiyalarning ko'payishi esa bu sohadagi muammolardan hisoblanadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Toshkent respublika fond birjasi 2010- yilda respublikada mavjud 1402 ta aksiyadorlik jamiyatidan bor-yo'g'i 90 tasi Toshkent respublika fond birjasi listingi ro'yxatidan joy olgan. Bu esa birja faoliyati uchun juda ham kichik ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozoridagi umumiy holatni ifodalovchi birja indeksining aniq va real hisoblanishi imkoniyatini bermaydi. Buning uchun esa mamlakatimizda ikkilamchi bozorning faolligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Hozirda respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozorining uyushmagan bozorining o'sishi o'z navbatida qimmatli qog'ozlar birlamchi bozorining o'sishi hissasiga to'g'ri keladi. Bizga ma'lumki, jahon qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimining rivojlanganlik darajasi qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori savdosining rivojlanishi bilan belgilanadi. Bundan ko'rinadiki, respublikamizda qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini rivojlantirish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Shuningdek, aytish kerakkki, qimmatli qog'ozlar bozorida umumiy o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda, lekin ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi past darajada qolmoqda. Buning uchun respublikada bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, **"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunni** tanqidiy qayta ko'rib, yangi tahrirda ishlab chiqish va qabul qilish hamda unda korporativ boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari, huquqlari va javobgarligini yanada aniq belgilash lozim. Ushbu qonundagi aksiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuvchilar kengashlari, umumiy yig'ilishlari, taftish komissiyalarining roli va ahamiyatini oshirish, minoritar, ya'ni qo'lida aksiyasi kam bo'lgan aksiyadorlarning kafolatlarini ko'proq

ta'minlash, barcha aksiyadorlarni va bo'lajak investorlarning aksiyadorlik kompaniyalari faoliyati to'g'risida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishni ko'zda tutish ayni muddao bo'lur edi"[29]. Ushbu taklifga ko'ra "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Bunda qimmatli qog'ozlar bozorining samarali faoliyatini rag'batlantiruvchi bir qancha o'zgartirishlar kiritildi.

Bundan ko'rinadiki, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, bozor munosabatlarining samarali amal qilishiga bozor infratuzilmasining har tomonlama to'laqonli faoliyati natijasida erishish mumkin. Bu esa, O'zbekistonda bozor infratuzilmasi rivojlanishining yana bir xususiyatli jihati – iqtisodiyotning barcha jabhalarini qamrab olishini ifoda etadi.

5.2. Bank tizimi bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini sifatida

Bozor infratuzilmasining rivojlanishida bank tizimi asosiy yo'nalish sifatida maydonga tushadi. Shu sababli, 1991- yilda mamlakatimizdagi bank sohasini isloh qilishda muhim qadam hisoblanuvchi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tashkil etilib, ikki pog'onali bank tizimiga asos solindi. Shu bilan bir qatorda tijorat banklarini rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan, avvalgi tarmoq davlat banklari tugatilib, «Agrosanoatbank» va «Sanoatqurilishbanki» aksiyadorlik-tijorat ixtisoslashtirilgan banklarga aylantirildi. Xalqaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi. «O'zjamg'armabank» – Xalq bankiga aylantirilib, yangi maqomga ega bo'ldi. Bu esa unga jismoniy va yuridik

29 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010- yil 12- noyabr. - T.: O'zbekiston, 2010, 50-51-b.

shaxslarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit resurslaridan foydalanish huquqini berdi. Bundan tashqari, Xalq banki banklararo pul bozorida kredit resurslarini auksionlar orqali sotish huquqiga ega bo'ldi. Bankning kichik korxonalarni tashkil etish va rivojlantirish, davlat mulkini xususiylashtirish, turarjoy binolarini qurish va ta'mirlash va boshqalarga yo'naltirilgan qarz mablag'larini berish imkoniyatlarini ahamiyatli darajada kengaydi.

«Markaziy bank to'g'risida»gi Qonun (1995- yil, dekabr) va «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririning (1996- yil, aprel) qabul qilinishi mamlakatimizda bank tizimining yanada rivojlanishini belgilab berdi. 1998- yilning 2- oktabrida asosiy maqsadi tijorat banklarini boshqarishda aksiyadorlarning rolini oshirish, bankni boshqaruvchi va ijro organlarining kredit berish va ularning qaytarilishini ta'minlash yuzasidan mas'uliyatlarini kuchaytirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aksiyadorlik tijorat banklarining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. 1999-yil 15- yanvarda «Bank tizimini yanada isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinib, mazkur qaror bank tizimi barqarorligini oshirish, bank resurslarini safarbar etish, ularning iqtisodiyotni kreditlashdagi ishtiroklarini kengaytirish, bank xizmati sohasidagi raqobat muhitini rivojlantirishga yo'naltirilgan edi.

2006- yilda mamlakatimiz bank tizimida 800 ga yaqin filial va bo'linmalarga ega bo'lgan 33 ta tijorat banklari faoliyat ko'rsatgan (5.2.1-jadval).

5.2.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining tuzilishi, (2006- yil holatiga)[30]

Banklarning rivojlanganlik ko‘rsatkichlari	Miqdori, birlikda
Jami banklar	33
Shundan:	
Davlat, davlat-tijorat, davlat-aksiyadorlik	5
Aksiyadorlik-tijorat	15
Xorijiy kapital ishtirokidagi banklar	4
Xususiy banklar	8
Sho“ba banklar	1
Bo‘linma va filiallar soni (Xalq bankidan tashqari)	800
Xalq banki bo‘linma va filiallari soni	6453

Hozirgi kunda Respublikamizda 31 ta tijorat banklari faoliyat yuritmoqda, shundan 3 tasi davlat banki, 13 tasi aksiyadorlik tijorat banki, 10 tasi xususiy banklar va 5 tasi chet el kapitali asosida tashkil etilgan banklardir (5.2.2-jadval).

5.2.2-jadval

Banklarni tashkil qilishning rivojlanish dinamikasi (yil oxiriga)

Ko‘rsatkichlar	1990-y.	1995-y.	2000-y.	2005-y.	2010 -y.
Tijorat banklari soni	16	32	35	29	31
Tashkil qilingan tijorat banklari filiallari soni	2389	3171	4234	7028	9293

Ushbu banklarning 9293 ta filiallari va bo‘linmalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatimizda amal qilayotgan bank-moliya tizimidagi infratuzilma imkoniyatlarining oshirilayotganini ko‘rsatadi.

---

30 Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики/ Под ред. А.Х.Хикматова.-Т.: O‘zbekiston, 2001, 162-б.

Banklarningham infratuzilmasifatidaamalqiluvchituzilmalari juda ko‘p bo‘lib, ulardan yana biri bozor infratuzilmasining samaradorligini oshiruvchi plastik kartochkalardir.

Mamlakatimizda moliyaviy mablag‘larning naqd pulsiz harakatini ta’minlash maqsadida banklarning plastik kartochkalar tizimi keng joriy etib borilmoqda (5.2.1-rasm). Respublikamizda asosan 2000- yildan boshlab plastik kartochkalar naqdsiz pul muomalasini ta’minlash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.



5.2.1-rasm. O‘zbekistonda amalda ishlatilayotgan plastik kartochkalar soni.

Aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining zamonaviy turi hisoblangan bank plastik kartochkalarini keng joriy etish maqsadida joylarda 8 mln. donadan ortiq plastik kartochkalardan foydalanib kelinmoqda. Shundan 6,8 mln.dan ortig‘i 59 mingdan ziyod korxona va tashkilotlar xodimlariga berilgan ish haqi loyihasidagi plastik kartochkalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan pul harakatining qiymati oxirgi besh yilda 40 marta oshgan va 2010- yil davomida ushbu plastik kartochkalariga 5,7 trln. so‘m miqdordagi mablag‘lar kirim qilingan bo‘lib, shundan 85 foiz to‘lovlar savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalariga o‘rnatilgan hisob-kitob terminallari orqali ishlatilgan (5.2.2-rasm).



5.2.2-rasm. O'zbekistonda plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan pul aylanmasi (mlrd. so'm).

Shu bilan birga, 86 mingdan ortiq to'lov terminallari hamda aholiga qulay bo'lgan 700 tadan ziyod o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatuvchi bankomat va infokiosklar o'rnatilgan. Bankomat va infokiosklar kecha-yu kunduz faoliyat ko'rsatadi, aholi xohlagan vaqtda kommunal (gaz, elektr-energiya, issiq va sovuq suvlar) va telefon xizmatlariga to'lovlarni amalga oshirish hamda naqd pul olishi mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda banklar tomonidan naqd bo'lmagan pul aylanishini tezlashtirish maqsadida mobil va elektron pul o'tkazishning yangi usullari joriy etilmoqda. Bu esa bank xizmatlari bozorida bozor infratuzilmasining yangi ko'rinishlari va ularning samaradorligini oshirishga harakat qilmoqda.

Bundan tashqari hozirda aholining zich joylashgan hududlarida kommunal xizmatlariga to'lovlar va boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun infokiosklar va bankomatlar o'rnatilmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari tomonidan bu borada olib borilayotgan ishlar natijasida, zamonaviy aloqa-axborot texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalangan holda, zamonaviy bank xizmatlari taklif qilinmoqda. Respublika banklari 17 ta yirik xorijiy davlatlarning 70 dan ortiq yetakchi banklari bilan vakillik munosabatlari o'rnatgan bo'lib, mamlakatimiz aholisi, shuningdek, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik subyektlariga xohlagan xorijiy davlatdagi sheriklari bilan moliyaviy munosabatlarni o‘rnatish imkoniyatlari yaratilgan.

Banklarvabutunmoliya-banktizimifaoliyatigayondashuvlarni hamda baholash tizimini tubdan o‘zgartirish, xalqaro me’yorlar, standartlar va baholash ko‘rsatkichlariga muvofiq bank faoliyatini tashkil etishning yanada yuqoriroq darajasiga chiqishni ta’minlash uchun Prezidentimizning “2011–2015- yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, kelgusida quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

–bank faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish;

–xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlar talablariga muvofiq, tijorat banklarini yanada kapitallashtirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, banklarning resurs bazasini ko‘paytirish, aktivlar sifatini yaxshilash, bank ishini takomillashtirish hisobiga banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish;

–yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo‘llaniladigan xalqaro me’yorlar, mezonlar va standartlarga asoslangan respublika bank tizimi faoliyatini baholash va tahlil qilishning zamonaviy tizimini joriy etish;

–omonatchilar uchun kafolatlarni kuchaytirish va bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, yangi, jozibali omonatlar va depozitariylar joriy qilish, ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko‘lamini kengaytirish yo‘li bilan aholi hamda xo‘jalik subyektlarining bo‘sh mablag‘larini bank aylanmasiga keng ko‘lamda jalb etish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

–kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g‘oyat muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasi rivojlanishini rag‘batlantirish;

–nobank moliya tashkilotlari, kredit uyushmalari rolini yanada oshirish hamda tarmog'ini rivojlantirish, xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq ularning barqarorligi va samaradorligini ta'minlash, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turi va ko'lamini kengaytirish kabilardan iborat.

Darhaqiqat, yaratuvchan xalqimiz mustaqillikning 20 yili davomida zamonaviy rivojlanish ko'nikmalarini o'zlashtirib, taraqqiyot yo'liga ildam qadam qo'ydi. Ya'ni, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot "O'zbek modeli" mashhur besh tamoyilining barcha sohalarga keng ko'lamda joriy etilishi, Prezidentimizning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida hayotiy mantiqqa asoslangan ilmiy-amaliy fikrlarining bank tizimiga faol tatbiq etilayotganligi respublikamiz iqtisodiy qudratining yuksalishida, xalqimiz turmushining yanada farovonlashuvida, yurtimizning gullab-yashnashida asosiy omil bo'lmoqda.

5.3. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda bozor infratuzilmasining roli

Moliyaviy sohada o'z ahamiyati bilan ajralib turuvchi yana bir tuzilma – sug'urta kompaniyalaridir. O'zbekistonda sug'urta bozori rivojlanishining huquqiy asosi bo'lib 1993- yil 6- mayda qabul qilingan va 1994- yil 23- sentabrda hamda 1997- yilda ma'lum o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan «Sug'urta to'g'risida»gi qonun hisoblanadi. Respublikamizdagi sug'urta tashkilotlari 3 guruh bo'yicha tashkil etildi: davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari, xususiy sug'urta kompaniyalari va Respublika sug'urta nazorati tashkilotlari.

Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyalaridan biri «O'zagrosug'urta» kompaniyasi bo'lib, uning asosiy faoliyat yo'nalishlari qishloq xo'jaligi sohasida tovar ishlab chiqaruvchilarning mulk va mahsulotlarini sug'urta yo'li bilan himoya etish, banklardan olingan kreditlarni qaytarishga sug'urta kafolatlari

taqdim etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish uchun beriladigan avans mablag'larini qaytarishni sug'urtaviy kafolatlash, yuridik va jismoniy shaxslarga har tomonlama sug'urta xizmatini ko'rsatishdan iboratdir.

"O'zagrosug'urta" kompaniyasi asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

– sug'urtaning majburiy va ixtiyoriy turlarini amalga oshiradi, sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini to'laroq qondira oladigan sug'urtaning yangi ko'rinishlarini ishlab chiqadi va hayotga tatbiq etadi;

– ogohlantirish vazifasini bajarib, sug'urta obyektlarini zararlanish va nobud bo'lishdan asrash tadbirlarini amalga oshiradi;

– o'z mablag'larini investitsiya va tijorat faoliyatining muhim tarmoqlariga joylashtirishga harakat qilib, shu bilan birga, kredit berish asosida o'ziga tegishli fondlarni to'ldirib boradi;

– o'z faoliyatini amalga oshirishda respublika vazirliklari, idoralari va boshqa sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikda ish olib boradi;

– sug'urtaning axborot berish vazifasi asosida reklama va maslahat xizmatlarini ko'rsatadi.

"O'zagrosug'urta" kompaniyasi tomonidan amalga oshiriladigan sug'urtaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1) qishloq xo'jaligi korxonalari va qishloq aholisini majburiy sug'urta qilish, ya'ni:

– tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar qaytarilishi uchun qishloq xo'jaligi korxonalarining javobgarligini sug'urta qilish;

– mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha avans tariqasida beriladigan va fyuchers shartnomalari bo'yicha mablag'lar qaytarilishini sug'urta qilish;

– qishloq fuqarolariga tegishli mol-mulkni sug'urta qilish;

– garovga qarzga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish;

– transport egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta

qilish.

2) qishloq xo‘jaligi korxonalarini ixtiyoriy sug‘urta qilish, ya’ni:

–ekinlar hosilini sug‘urtalash;

–ekinlarni qayta ekishni va ola chiqqan ekinlarni butlashni sug‘urtalash;

–chorva mollarini sug‘urtalash;

–asosiy vositalarni sug‘urtalash;

–tabiiy pichanzorlarni, yaylovlarni va tut bargini sug‘urtalash;

–pillani sug‘urtalash;

–bog‘lar va uzumzorlar hosilini do‘l urishdan sug‘urtalash;

–korxonalar, dehqon, fermer va ijara xo‘jaliklarining mol-mulkini sug‘urtalash;

– qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan jo‘natiladigan yuklarni sug‘urtalash.

«O‘zagrosug‘urta» davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining o‘ziga xos xususiyati – uning faoliyatining qishloq xo‘jaligi sohasiga qaratilganligidir. Shunga ko‘ra, shahar hududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urta xizmatini ko‘rsatish maqsadida «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi tashkil qilinib, uning asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

–shaharlarda aholi hayotini, salomatligini va mol-mulkini sug‘urta qilish;

–korxonalar, tashkilotlar va muassasalar mol-mulkini sug‘urta qilish;

–yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug‘urta qilishni amalga oshirish;

–qonunda ko‘zda tutilgan sug‘urtaning majburiy turini amalga oshirish;

–qo‘shimcha sug‘urtalash va qayta sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish, sug‘urtaviy maslahat xizmatlarini ko‘rsatish;

–mahalliy sharoitlarni hisobga olib, sug‘urtaning yangi

turlarini joriy qilish;

–korxonalar javobgarligini va mol-mulkini ixtiyoriy sug‘urta qilish;

–qonunchilik hujjatlarida va hukumat qarorlarida nazarda tutilgan sug‘urtaning majburiy turlarini amalga oshirish.

Mamlakatimiz sug‘urta tizimida 1995- yilda tashkil etilgan «Madad» sug‘urta agentligi muhim rol o‘ynaydi. U ixtisoslashgan sug‘urta tashkiloti bo‘lib, asosiy maqsadi kichik va xususiy biznesni qo‘llab-quvvatlashdan, tadbirkorlarga imtiyozli kredit berish bilan bog‘liq va sug‘urtaning boshqa ko‘rinishlarini amalga oshirishdan iboratdir. Agentlik faoliyatining asosiy yo‘nalishi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, binokorlik industriyasi, mahalliy sanoat, turizm, xizmat ko‘rsatish sohalari tomonidan taqdim qilinadigan investitsiya loyihalarini baholash va ekspertizadan o‘tkazib, biznes fond hisobidan xususiy tadbirkorlarga va kichik biznesga imtiyozli asosda kredit berishni tavsiya etish hisoblanadi.

Shu bilan birga, «Madad» sug‘urta agentligi imtiyozli ravishda tadbirkorlarni sug‘urta qiladi, o‘z vaqtida qaytarilmagan kreditlarni undirishga yordam beradi. Xorijiy investitsiyani sug‘urta jihatidan himoya qilishni va boshqa sug‘urta xizmatlarini amalga oshiradi.

«Madad» agentligi taqdim qilingan loyihalarni ko‘rib chiqish va xaridorlarga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida agentlikning mamlakatimizning barcha mintaqalarida joylashgan 13 ta filiali 10 dan ortiq konsalting firmalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyalaridan yana biri «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi respublika iqtisodiyotida eksport o‘sishini yanada rag‘batlantirish, milliy eksportchi korxonalarni sug‘urtaviy himoya qilishni ta’minlash, xorijiy mamlakatlar investorlari bilan aloqa qiluvchi milliy investorlarning faoliyatini kuchaytirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb etilayotgan chet el investitsiyalarini kompleks sug‘urtaviy himoya qilishdir.

«O‘zbekinvest» sug‘urta kompaniyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – investitsiyalarni faqat iqtisodiy xavf-xatardangina emas, balki siyosiy xavf-xatar (urush, fuqarolar g‘alayoni, pul o‘tkazishni chegaralash va boshqalar)dan ham himoya qilishdir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yuqoridagi sug‘urta tashkilotlari bilan bir qatorda yana «Bank-sug‘urta» banklararo sug‘urta jamiyati, «Lizing-Invest» aksiyadorlik kompaniyasi, “Umid”, “Metro”, “Mehr nuri”, “Yo‘lovchi”, “Alskom”, “Sayyoh”, “Osiyo temir yo‘li” sug‘urta kompaniyasi, “O‘zbeksug‘urta-xauden Lixu” va “Anglo-Toshkent” kabi 33 ta sug‘urta kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Hozirda sug‘urta kompaniyalarining 890 dan ortiq hududiy boshqarmalari bozor infratuzilmasiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga sug‘urta bozorida 1250 yuridik shaxs sifatidagi agentlar, 5659 jismoniy shaxs sifatidagi agentlar hamda boshqa professional sug‘urta ishtirokchilari faoliyat yuritmoqda (5.3.1-jadval).

5.3.1-jadval

Sug‘urta bozorini rivojlanish ko‘rsatkichlari[31]

Ko‘rsatkichlar	2000	2005	2009	2010
Sug‘urta tashkilotlari soni	27	25	33	33
Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mlrd. so‘m)	23,2	89,3	178,6	207,2
Sug‘urta mukofotining miqdori (mlrd. so‘m)	8,3	42,6	146,1	171,4
Sug‘urta majburiyatlari	1720,6	18900	54786,9	69139,7
Sug‘urta to‘lovlari miqdori (mlrd. so‘m)	2,7	4,7	20,7	27,0
Sug‘urta investitsiyalari (mlrd. so‘m)	40,9	163,9	270,4	298,8

31 Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990–2010 гг.) и прогноз на 2011–2015 гг. [Текст]:Стат. сб. – Т.: «O‘zbekiston», 2011.– 136 с.

Sug‘urta kompaniyalarining yillar davomida o‘sishi bilan birga ularning umumiy ustav kapitali ham doimiy o‘sib borish tendensiyasiga ega. Bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy bo‘limi sifatida faoliyat yurituvchi sug‘urta tizimining yana bir muhim vazifalaridan biri bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning investitsiya bozorida faol ishtirokidir.

2000- yilda 40,9 mlrd. so‘m mablag‘ miqdorida investitsiyaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2010- yilga kelib uning hajmi 69139,7 mlrd. so‘mga yetgan. Bu esa sug‘urta bozorining bozor infratuzilmasi sifatidagi o‘rni yil sayin ortib borayotganligini ko‘rasatadi.

Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoniga aholining keng qatlamini jalb etish maqsadida xususiylashtirish investitsiya fondlarini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha maxsus Davlat dasturi ishlab chiqildi. Xususiylashtirish investitsiya fondlari – o‘z aksiyalarini emissiya qilish hisobiga mablag‘larni jalb etish, o‘z mablag‘lari hamda xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalari va davlat qimmatli qog‘ozlariga olingan maxsus davlat kreditlarini investitsiyalash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlaridir. 2000- yil boshiga O‘zbekistonda 88 ta xususiylashtirish investitsiya fondlari va 90 ta xususiylashtirish investitsiya fondlari aktivlarini boshqaruvchi kompaniyalar faoliyat yuritish uchun litsenziyaga ega bo‘ldilar. 75 ta xususiylashtirish investitsiya fondlari ikkinchi emissiya loyihasini ro‘yxatdan o‘tkazdi, ulardan 71 tasi o‘z aksiyalarini joylashtirishni tugatdilar. Xususiylashtirish investitsiya fondlari aksiyalarini sotishdan tushgan mablag‘larning umumiy hajmi 300 mln. so‘mdan ortiqni tashkil etdi. Xususiylashtirish investitsiya fondlari aksiyadorlari soni 85 ming kishidan ortdi. «Vaqt» milliy depozitariysi deyarli 75 ming xususiylashtirish investitsiya fondlari aksiyadorlari uchun hisob varaqalarini ochdi.

Bozor infratuzilmasi muassasalari uchun muhtojlik sezuvchi muhim sohalardan yana biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

faoliyatidir. 1995- yil 28- avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 344-sonli «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori va shu yilning 21- dekabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Kichik tadbirkorlikni Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Qonuni kichik biznesga ko'maklashuvchi bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi. Ushbu hujjatlarda mahalliy hokimiyatlar, vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining mazkur sohani rivojlantirishga oid vazifalari aniq belgilab berilgan.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni muvofiqlashtirish tizimi ishlab chiqilib, u qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat organlari, vazirlik va idoralar hamda tadbirkorlarning jamoatchilik uyushmalari hamkorligi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Mamlakatimizda 1993- yili kichik va o'rta biznesni imtiyozli ravishda kreditlash maqsadida Kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ko'maklashish fondi tashkil etilib, u 1995- yilda Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznes-fond)ga aylantirildi. Mazkur Fondga davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, texnik jihatdan qayta qurollantirish, rekonstruksiyalashga yo'naltirilgan mablag'ning 50%i o'tkazib berildi.

Biroq, bozor infratuzilmasining rivojlanishi nafaqat kreditlashni, balki korxonalarni tashkil etish uchun bevosita investitsiyalarning amalga oshirilishini ham taqozo etadi. Shunga ko'ra, tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida, muhim loyihalarni kreditlar bilan kafolatli ta'minlash va bevosita qo'yilmalarni amalga oshirish uchun 1996- yili O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi qoshida Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etilib, unga hukumat tomonidan 150 mln. so'm miqdorida mablag' ajratildi.

Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi – bu tarmoq xo'jalik birlashmalari tarkibiga kirmaydigan kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlik subyektlarini a'zolik shart bo'lgan holda shartnoma asosida birlashtiruvchi davlatga qarashli bo'lmagan notijorat tashkilotdir. Palata O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996- yil 12- martdagi Farmoniga binoan tashkil etilib, bu boradagi Qonun 1997- yil 24- aprelda qabul qilindi. Shu Qonunga binoan Palata:

–O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish, uning jahon xo'jalik tizimiga qo'shilishiga ko'maklashish;

–bozor infratuzilmasining yaxlit tizimini shakllantirish;

–tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratish;

–tadbirkorlikning barcha turlarini, O'zbekiston tadbirkorlarining boshqa mamlakatlar tadbirkorlari bilan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalarini rivojlantirish maqsadida tuziladi.

Palata quyidagi vazifalarni bajaradi:

–davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, jamoat va xalqaro tashkilotlarda, shu jumladan, boshqa mamlakatlarda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning manfaatlarini ifodalaydi;

–kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazorat mexanizmlarini ro'yobga chiqarishda ishtirok etadi;

–korxonalar va tashkilotlarning davlat registri asosida kichik o'rta va xususiy tadbirkorlik subyektlarining reestrini yuritadi;

–uch tomonlama hamkorlik (yollanma ishchilar ittifoqi, ish beruvchilar ittifoqi va hukumat) tizimini vujudga keltirishda, milliy iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish va olib borishda ishtirok etadi;

–tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ishini

uyushtiradi;

–tadbirkorlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlaydi, tadbirkorlikni rivojlantirishga hamda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning faoliyat yuritish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qonun hujjatlarini takomillashtirishda belgilangan tartibda ishtirok etadi;

–xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi nizolarni hal etishga ko‘maklashadi;

–moliyaviy yordamga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashda, buxgalteriya hisobi va hisobotini, auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish va yuritishda palata a’zolariga yordam beradi;

–xalqaro ko‘rgazmalar va yarmarkalarni, O‘zbekistonda va boshqa davlatlarda firmalarning taqdimotlarini uyushtiradi;

–tovarlar va xizmatlar eksportini rivojlantirishga ko‘maklashadi, tashqi bozorda operatsiyalar o‘tkazishda va iqtisodiy hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlikning yangi shakllarini o‘zlashtirishda kichik, o‘rta va xususiy tadbirokorlik subyektlariga yordam ko‘rsatadi.

Bozor infratuzilmasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu mazkur jarayonning bir xilda tekis, hech qanday muammo va to‘siqlarsiz kechmasligidir. Bu, albatta, tushunarli holdir. Chunki, mamlakatda eski tuzilmalarning sifat jihatidan yangi darajaga aylanishi, ba’zi bir «o‘z umrini o‘tab bo‘lgan» tuzilmalarning yo‘qolib, yangilarining paydo bo‘lishi – bu shunchaki oddiy bir jarayon emas. Bu – kurash jarayonidir. Kurash jarayoni esa, albatta, bir xilda, tekis kechmaydi. Unda o‘ziga xos yutuqlar, jadal va ahamiyatli o‘zgarishlarning yuz berishi bilan bir qatorda ma’lum to‘sqinliklar, o‘z yechimini topishi lozim bo‘lgan muammolar ham uchrab turadi.

2006- yilda mamlakatimizda bozor infratuzilmasi sohasining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning tabiatini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, bu boradagi to‘sqinlik sabablarining aksariyati o‘z mohiyatiga ko‘ra tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni takrorlaydi. Shunga ko‘ra, mazkur sabablarni baholashda

Respublika «Ijtimoiy fikr» markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalaridan foydalanamiz (5.3.2-jadval).

5.3.2-jadval

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini yuritishda to‘sqinlik qiluvchi asosiy sabablarni baholash[32]

Viloyatlar	Moliyaning yetishmasligi	Moddiy resurslarni sotib olish imkoni yo‘qligi	Banklarning hamkorlik qilishni istamasligi	Hokimiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yo‘qligi	To‘rachilik va ta’magirlik	Suvning yo‘qligi	Soliq va bojxona to‘lovlarining yuqoriligi	Infratuzilmaning rivojlanmaganligi	Bozor holati to‘g‘risida axborotning yo‘qligi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	33,0	19,3	4,6	4,3	2,8	24,8	1,5	3,7	0,9
Andijon	42,9	6,6	5,4	-	3,1	-	2,3	2,9	-
Buxoro	29,6	23,3	6,1	5,6	3,1	5,3	4,2	4,6	1,2
Jizzax	41,6	17,6	14,8	1,6	1.6	4,4	0,4	7,2	3,2
Qashqadaryo	24,1	37,1	10,8	1,9	1,6	11,8	0,3	-	-
Navoiy	27,0	16,4	8,5	1,1	0,5	7,4	2,1	9,0	3,7
Namangan	41,6	17,6	14,8	-	1,6	4,4	-	7,2	3,2
Samarqand	35,6	19,7	10,0	5,3	3,1	2,5	2,8	5,9	-
Surxondaryo	17,7	25,3	6,2	8,9	3,3	3,0	3,0	4,9	-
Sirdaryo	39,7	25,8	7,7	4,6	3,1	-	6,2	5,2	-
Toshkent	43,7	20,1	6,4	2,1	6,4	-	1,8	5,5	4,3
Farg`ona	37,3	10,6	17,7	7,1	6,2	1,9	3,7	2,5	0,9
Xorazm	18,4	10,5	4,0	2,2	0,4	20,6	17,9	3,5	-
Toshkent sh.	37,2	7,7	0,5	5,3	18,4	-	7,3	4,8	4,4
Respublika bo‘yicha jami	*35,2*	*18,2*	*8,2*	*3,8*	*4,4*	*5,8*	*2,7*	*4,6*	*2,0*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, respublikadagi eng ahamiyatli to‘sqinlik omili sifatida moliyaviy mablag‘larning yetishmovchiligi (so‘ralganlarning 35,2%i), moddiy resurslarni sotib olish imkonin-

[32] Baholashni tadbirkor amalga oshirgan//Бизнес-вестник Востока, №6 (524), 2002-yil 7- fevral, 4-5-betlar.

ing yo‘qligi (18,2%) va banklarning hamkorlik qilishga xayrixohlik ko‘rsatmasliklari (8,2%) qayd etilgan. Bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga esa nisbatan kam e’tibor qaratilib, bu omilni respublika viloyatlari bo‘yicha quyidagi ko‘rinishda guruhlash mumkin (5.3.3-jadval).

5.3.3-jadval

Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda bozor infratuzilmasi rivojlanmaganligi omilining to‘sqinlik qilishi darajasi bo‘yicha viloyatlarning guruhlanishi

Guruhlar	*Guruhga kiruvchi viloyatlar*
1-guruh: mazkur omilning ta’siri past darajada (0-3%)	Andijon, Qashqadaryo, Farg‘ona.
2-guruh: omilning ta’siri o‘rtacha (3,1–6%)	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm, Toshkent sh.
3-guruh: omilning ta’siri eng yuqori (6,1–9%)	Jizzah Navoiy, Namangan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, respublikamiz viloyatlarining aksariyat qismi bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi omilining tadbirkorlik faoliyati rivojiga ta’siri jihatidan o‘rtacha deb hisoblangan guruhga to‘g‘ri kelmoqda. Albatta, bunday baholash nisbiy va ma’lum subyektiv holatlarga bog‘liq. Shu o‘rinda aytish kerakki, aslida bozor infratuzilmasi – banklar, kredit muassasalari, moddiy-ta’minot bazalari, savdo uylari, axborot markazlarining yetarli darjada rivojlanishi yuqorida keltirilgan boshqa sabab va muammolarning salmoqli qismini hal qilgan bo‘lar edi.

Bu borada respublikamizda bir qancha islohotlar olib borildi va ular faoliyating samaradorligini oshirish natijalariga erishildi. Bu muammolarning yechimiga turli xil yondashuvlar asosida iqtisodiy o‘sishga erishildi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlari uchun shart-sharoit yaratib beruvchi asosiy bozor infratuzilmasi muassasalaridan biri – Savdo sanoat palatasi

(Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi) hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda bu tuzilma o'z vazifalarini yetarli darajada bajaraypti, deb ayta olmaymiz. Bunga quyidagi so'rov ma'lumotlari natijalari ham dalil bo'la oladi (5.3.4-jadval).

5.3.4-jadval

Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasiga a'zolik va uning faoliyatini baholash[33]

Viloyatlar	Palataga a'zolarning salmog'i	Shundan, Palata faoliyatidan			
		To'liq qoniqqanlar	Qisman qoniqqan-lar	Qoniqma-ganlar	Javob berishga qiynal-ganlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	24,8	16,0	45,7	29,0	8,7
Andijon	36,0	55,6	39,7	4,7	-
Buxoro	29,8	27,5	32,7	39,8	-
Jizzax	23,9	25,0	40,6	4,2	30,1
Qashqadaryo	19,0	54,3	38,6	0	7,1
Navoiy	30,7	31,0	39,7	29,3	-
Namangan	15,0	31,7	30,0	36,7	1,6
Samarqand	21,2	39,7	47,1	13,2	-
Surxondaryo	25,2	24,7	46,7	28,6	-
Sirdaryo	23,2	28,9	44,4	26,7	-
Toshkent	21,2	18,1	54,3	26,6	-
Farg'ona	32,3	33,7	38,5	11,5	16,3
Xorazm	46,9	30,8	60,8	5,6	2,8
Toshkent sh	34,1	18,0	52,5	27,9	1,6
Respublika bo'yicha jami	***27,2***	***31,7***	***43,7***	***19,1***	***5,5***

Bozor iqtisodiyotining ijobiy tomonlaridan biri – iqtisodiy subyektlarning va ular faoliyatining erkinligi hisoblanadi. Agar

[33] Baholashni tadbirkor amalga oshirgan//Бизнес-вестник Востока, №6 (524), 2002-yil 7- fevral, 4-5-betlar.

Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi o‘z majburiyat va vazifalarini yetarli darajada bajarganlarida bugungi kunda ularning a’zolari soni jami tadbirkorlarning 27,2 foizidan ko‘proq bo‘lishi shubhasiz edi. Shuningdek, bu tuzilma bilan bog‘liq yana bir muammo – ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmat darajasining nisbatan pastligidir. Palataga xizmatidan unga a’zo bo‘lgan tadbirkorlarning 43,7 foizi qisman qoniqayotganligi, 19,1 foizi esa umuman qoniqish hosil qilmaganligi mazkur tuzilma tarkibida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirish lozimligini anglatadi.

Umuman olganda, bozor infratuzilmasining rivojlanishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning xususiyatlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasi, iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi, ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish salohiyati, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi kabi omillarga bog‘liq. Har bir mamlakatda bozor infratuzilmasining rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish o‘z navbatida mazkur sohani yanada taraqqiy ettirishning asosiy yo‘nalishlarini ochib berishga imkon yaratadi.

Hozirgi kunda respublikada tovar homashyo ishlab chiqaruvchilarning faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida keng qamrovli islohotlar olib borildi. Natijada ularning samarali faoliyati yo‘lga qo‘yildi va ishlab chiqruvchilarning tovarlarini sotish va bu borada importning o‘rnini bosish hamda eksportni rag‘batlantirish ustuvor vazifaga aylantirildi.

Ta’kidlash joizki, xorijiy xaridorlarning ko‘rgazmadagi ishtiroki mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshiradi, xorijiy hamkorlar bilan birga mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash bo‘yicha 2009- yilda Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi vakolatlari sezilarli darajada oshirildi – unga xalqaro ko‘rgazma mavqei berildi. Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish bilan bog‘liq potensial imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va tovarlarni eksportga yo‘naltirish imkonini beradi.

Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birjaning asosiy

maqsadlari va vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

–o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlarni mijozlarga yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar tuzish, mahsulotlarni yetkazib berish, shu jumladan, ularni eksport qilish bo‘yicha buyurtmalar portfelini shakllantirish;

–iqtisodiyotning real sektori korxonalariga qayta ishlangan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarni,tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda va yetkazib berishda uzoq muddatli xo‘jalik aloqalarini o‘rnatishda, shuningdek, tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va xalqaro kooperatsiyani rivojlantirish asosida yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirishda ko‘maklashish;

–sanoat kompleksi uchun hududiy bozorga samarali mahalliy va xorijiy texnologiyalarni, materiallar, uskunalar va jihozlarni olib kirish va targ‘ib qilish;

–xorijiy hamkorlar bilan eksport-import kelishuvlarini ko‘paytirish orqali mahalliy tovarlar va xizmatlarni eksport qilishning bozor prinsiplari va mexanizmlarini rivojlantirish;

–xorijiy xaridorlar va O‘zbekiston Respublikasida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilishni mo‘ljallayotgan potensial xorijiy hamkorlarni jalb qilish. O‘tkazilgan yarmarkalar shuni ko‘rsatdiki, mamlakatimizda sanoat korxonalari kooperatsiyasining mazmun-mohiyati tobora chuqurlashib bormoqda, sanoatning tayanch tarmoqlari va kichik biznes vakillarining o‘zaro munosabatga kirishishi ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish, texnik talablarni o‘rganish va bozorda talab qilinayotgan yangi tovarlarni o‘zlashtirishning keng imkoniyatlarini ochib bermoqda.

Mahsulotlarni xarid qilish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar umumiy soni va qiymatining o‘sib borishi buni tasdiqlaydi.

Rasmdagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja ishtirokchilarining soni, ayniqsa oxirgi yillarda, sezilarli ravishda oshib bormoqda. Jumladan, agar 2007–2009- yillarda ishtirokchilar sonining yillik o‘sishi 23–26%

ni tashkil etgan bo‘lsa, 2010- yilda mazkur ko‘rsatkich 90 % ga teng bo‘ldi. 2010- yilning 26–30- oktyabr kunlari o‘tkazilgan IV Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja ko‘rgazmasida respublikamizning 715 korxonasi ishtirok etib, ekspozitsiyalarning umumiy maydoni 20 ming kv. metrni tashkil qildi. Sanoat tarmoqlari va kichik biznes korxonalarining 48 ta taqdimoti o‘tkazildi, jami 3098 shartnoma tuzilib,ularning umumiy qiymati 2.6 trln. so‘mni tashkil qildi. Buning natijasida bundan oldingi yarmarka ko‘rstkichlari 1,4 baravarga oshirildi.



5.3.1-rasm. Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja ishtirokchilari o‘sishi dinamikasi.

2011- yilda 200 ga yaqin oldin import qilingan mahsulot turlarini o‘zlashtirish bo‘yicha kelishib olindi. Ularning jumlasiga GM, MAN, SAM avtomobil oilalariga mansub yangi modellar uchun butlovchi qismlar, avtomobil motorlari, KLAAS traktorlari, diodli va lyuminetsent lampalar va yoritgichlar, fermer xo‘jaliklari uchun chorvachilik majmualari uskunalari (xonachali batareyalar), terini qayta ishlash mahsulotlarining katta assortimenti, qurilish mollari mahsulotlari va boshqalar kiradi.

2010- yilda yarmarka ishida 51 ta xorijiy mamlakatdan 750 nafar xorijiy kompaniya va tashkilot ishtirok etib, umumiy qiymati

2,7 mlrd. dollar hajmidagi eksport shartnomalari tuzildi. Bu 2009-yil ko'rsatkichlaridan 20% ga ko'pdir.

Yarmarka ishtirokchilari uchun mo'ljallangan O'zbekistonning 600 korxonasi tomonidan ishlab chiqariladigan 6 mingdan ortiq mahsulot turlarini qamrab olgan "O'zbekiston sanoat mahsulotlari" katalogi nashr qilindi.

Hozirga paytda Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja uzluksiz asosda faoliyat ko'rsatib, u ikki bosqichda o'tkaziladi. Yilning birinchi yarmiga to'g'ri keladigan ilk bosqichda hududiy va sanoat yarmarkalari o'tkaziladi. Bu yarmarkalarda, odatda, joriy yil uchun shartnomalar va sanoat mahsulotlarining yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha dastlabki kelishuvlar tuziladi. Ikkinchi bosqichda – Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja o'tkazilishi paytida, yuqorida qayd etilgan kelishuvlar mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnomalarga aylanadi va ishlab chiqaruvchilarning keyingi yil uchun buyurtmalari portfelini shakllantiradi. Bu tadbirlar oralig'ida korxonalar yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish masalalarini hal qiladi, tajriba partiyalari tayyorlanadi va buyurtmachilar bilan kelishib olinadi,

mahsulotning texnik parametrlari talab qilinadigan sifat darajasiga olib chiqiladi. Shu bilan birga, aytib o'tish joizki, maydonlarning cheklanganligini hisobga olgan holda, ikkinchi bosqichda ishtirok etuvchi korxonalarni tanlab olish nomzodlarning birinchi bosqich yakunlari bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirokidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja ishtirokchilari tasarrufida tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun barcha sharoitlar, shu jumladan, "O'zekspomarkaz" milliy ko'rgazma markazining xalqaro darajadagi 4 ta paviloni, ikkita atriumi, 4 ta ochiq maydonchasi, konferens-zallarga ega Xalqaro savdo markazi, mehmonxona majmuasi, jamoat ovqatlanish joylaridan iborat yaxlit infratuzilmasi mavjud. Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja doirasida tuzilgan shartnomalar

yarmarka Direksiyasi tomonidan ro'yxatga olinib, monitoring qilib boriladi. Bu shartomalarning qat'iy bajarilishi uchun qo'shimcha kafolat sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja doirasida asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, qayta ishlangan xomashyo va materiallar sotib olish to'g'ridan to'g'ri shartnomalar asosida, qo'shimcha tenderlarsiz amalga oshiriladi (12.11.2007- yildagi PF-3937). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko'maklashish maqsadida Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja Direktiyasi tomonidan 2011- yildagi Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birjaga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik tavsiyanomalar ishlab chiqildi va tarqatildi.

Ushbu materiallar o'z ichiga normativ-huquqiy baza, prezentatsiyalarni tayyorlash va o'tkazish, ko'rgazmalarda ishtirok etish va mahsulotni katalogga qo'shish uchun turli formalarni to'ldirishdan tortib, korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsion aloqalarni o'rnatish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini faol jalb qilishgacha bo'lgan tavsiyalarni qamrab oldi.



5.3.2-rasm. Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja doirasida tuzilgan mahsulotlarni xarid qilish shartnomalari soni.

Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja doirasida amalga oshirilgan savdolarda tuzilgan shartnomalar soni yildan yilga o'sib borishi kuzatilmoqda. Xususan, 2007- yilda 1611 ta shartnomalar imzolangan bo'lsa, 2010- yilga kelib ushbu ko'rsatkich 3098 tani tashkil etgan. Bu esa mamlakatimizda bozor infratuzilmasining bu ko'rinishi yillar davomida ijobiy o'zgarishlarga erishayotganini bildiradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bir bo'g'ini sifatida bozorlarning samaradorligini oshirish bo'yicha qilingan ishlar natijasi o'laroq Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja savdolari ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Yillar davomida tashkil etilayotgan Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja savodolarida ishtirok etuvchi korxonalar soni ko'payib, ularning savdo hajmlari ham ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja doirasida berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar ham ularning ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda.



5.3.3-rasm. Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja doirasida tuzilgan mahsulotlarni xarid qilish shartnomalarining hajmi (mlrd. so'm)

Shu bilan birga aytish kerakki, Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja davomida amalga oshirilgan savdolar chog'ida tuzilgan shartnomalarning umumiy qiymatlarida ham ijobiy o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bozorlar faoliyati samaradorligining oshishi iqtisodiyotning o'sishini namoyon etuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Shunday ekan, biz ko'rib turgan diagramma ma'lumotlari ko'rsatadiki, 2007- yilda 1068,4 mlrd. so'mlik shartnoma imzolangan bo'lsa, 2010- yilga kelib, bu ko'rsatkich 2620,8 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu esa 2010- yilda 2007- yilga nisbatan 245 foizga o'sganini ko'rsatadi.

O'tgan yildagi kabi, bu yil ham "O'zbekiston sanoat mahsulotlari katalogi" ni nashr etish ko'zda tutilgan. Mazkur katalog bilan ham nashriy ko'rinishda, ham Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja Direksiyasining rasmiy saytida tanishish mumkin bo'ladi. Ishlab chiqariladigan mahsulot haqida ma'lumot qo'shish uchun korxonalar belgilangan tartibdagi formani to'ldirishi va uni Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja direksiyasiga jo'natishi lozim. Namoyish qilinayotgan mahsulotlarni sotib olishga, shu bilan birga, ishlab chiqarishni O'zbekistonda tashkil qilish orqali import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan eng ko'p talab qilinuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha sanoat kooperatsiyasida qatnashishga qiziqish bildirayotgan xorijiy hamkorlarni jalb qilish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. 2011- yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja ishtirokchilarining ushbu toifasiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, ular ijaraga beriladigan ko'rgazma maydonlari uchun haq to'lashdan ozod etiladi, vazirlik va idoralar, banklar, sug'urta kompaniyalari, standartlashtirish va sertifikatlash sohasiga ixtisoslashgan tashkilotlar mutaxassislari ularga tegishli maslahatlar berishadi. Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasida qatnashishga O'zbekiston Respublikasining barcha sanoat korxonalari va xorijiy hamkorlar taklif qilinadi. Shuningdek,

O‘zbekistonda Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi o‘tkazilishi va unda ishtirok etuvchilar grafik asosida tashkil etildi.

5.3.5-jadval

O‘zbekistonda 2011- yilda hududiy sanoat yarmarkalarini o‘tkazish grafigi

T/r	O‘tkaziladigan joy	O‘tkaziladigan kun
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh., 2-akademik litsey	5 aprel
2	Xorazm vil., Urganch sh., Ijodiyot markazi	7 aprel
3	Buxoro vil., Buxara sh., RTXB filiali	9 aprel
4	Navoiy vil., Navoiy sh., Farxod madaniyat saroyi	12 aprel
5	Samarqand vil., Samarqand sh., Olimpia zaxirialari kolleji	14 aprel
6	Toshkent vil., O‘rta Chirchiq, Ma’naviyat va madaniyat markazi	16 aprel
7	Sirdaryo vil., Gulistan sh., Alpomish sport kompleksi	19 aprel
8	Jizzax vil., Jizzax sh., «Yunus Rajabiy» drama teatri	20 aprel
9	Tashkent sh., «Uzko‘rgazmasavdo»	21 aprel
10	Qashqadaryo vil., Qarshi sh., «M.Toshmuxamedov» drama teatri	23 aprel
11	Surxondaryo vil., Termez sh, Tadbirkorlar markazi	26 aprel
12	Andijon vil., Andijan sh., Maishiy xizmat kolleji	28 aprel
13	Farg‘ona vil., Farg‘ona sh., Olimpia zaxirialari kolleji	29 aprel
14	Namangan vil., Namangan sh., Yoshlar markazi	30 aprel

O‘tkaziladigan tadbirlarning maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

–sanoat ishlab chiqarishi barqarorligini va mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish;

–aholi bandligini ta’minlash;

–mahsulotning sotilishida yordam ko‘rsatish va sotish hajmlarini ko‘paytirish;

–mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish;

–ishlab chiqarishga ilm-fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini tatbiq qilish;

–mavjud tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan optimal tarzda foydalanish;

–mavjud ishlab chiqarish quvvatlari rivojlanishiga, yangi quvvatlarning, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining paydo bo‘lishiga ko‘maklashish;

–eksport hajmlarining diversifikatsiyasiga va geografiyasining kengayishiga ko‘maklashish;

–xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birjaga mintaqaviy sanoat yarmarkalari ishtirokchilaridan tanlab olish;

–xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birjada ahdlashuv shartnomalarini tayyorlash.

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birja faoliyati bozor infratuzilmasining muhim elementi sifatidagi faoliyati yillar davomida son va sifat jihatdan yuqori o‘sish tendensiyasiga ega. Shu bilan birga, unda ishtirok etishdagi qulay imkoniyatlar ishtirokchilarning soni va savdo hajmlarining ortishiga olib kelmoqda.

5.4. Bozor infratuzilmasi faoliyati uyg‘unligini ta’minlash va uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, infratuzilma sohasi asosiy tarmoq va sohalarning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur

bo‘lgan shart-sharoitlar bilan ta’minlar ekan, ayni paytda mazkur sohaning o‘zi ham «hayot kechirish» uchun ma’lum sharoitlar bo‘lishini taqozo etadi. Shuningdek, bozor infratuzilmasi tarkibiy qismlarining zarur bo‘lgan barcha ko‘rinishlarining tarkib topishi va talab darajasida xizmat ko‘rsatishi uchun ushbu jarayonni ma’lum darajada davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish zarur bo‘ladi.

O‘zbekistonda bozor infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida fikr yuritilar ekan, birinchi navbatda bu sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlariga to‘xtalish lozim. Zero, bu holat bozor infratuzilmasining iqtisodiy tabiatidan kelib chiqib, uni davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv zarurligi umuman ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat ishtirokining muhim omilga aylanishini taqozo etuvchi quyidagi qoidalar orqali izohlanadi:

– odatda ishlab chiqarish infratuzilmasi sohasidagi talab va taklifni tartibga solib turuvchi bozor mexanizmi tovarlar bozoridagi kabi juda samarali amal qilmaydi;

– ishlab chiqarish infratuzilmasi aksariyat obyektlari xizmatining narxlari moslashuvchan emas, shu boisdan ham ularni pasaytirib, katta quvvatlardan foydalanishga erishib bo‘lmaydi;

– ishlab chiqarish infratuzilmasi xizmatlari bozorining notekis tarkibiy tuzilishi, ya’ni ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molchilarning soni va miqdoriga nisbatan ana shunday tuzilish bozorda muvozanatni yuzaga keltirishni mushkullashtiradi. Faqat davlat aralashuvi bilan bozordagi muvozanat holatini ushlab turish mumkin;

– ishlab chiqarish infratuzilmasi, u ishlab chiqarishga nechog‘li foyda bo‘lishiga qarab rivojlanib boradi. Bu o‘rinda rentabellik qoidasi boshqa bozorlardagi singari katta ahamiyatga ega emas. Mazkur qoidalar ko‘pincha amaldagi chiqimlarning narxlardan ortib ketishiga olib keladi. Shuning uchun ham uni davlat ishtiroki bilangina amalga oshirish mumkin;

–ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibiga kiruvchi ko‘pgina tarmoqlar texnikaviy va iqtisodiy sabablarga ko‘ra bozorning oligopoliya va monopoliya singari shakllaridagina ishlashi mumkin.

Ammo bozor va tadbirkorlik omillaridan foydalanilmay, infratuzilma obyektlariga faqat davlatning egalik qilishi kam samara berishi mumkin.

Agar bozor-raqobat omillaridan foydalanilsa, infratuzilma xizmatini takomillashtirish va investitsiyalar sifatini ko‘tarish borasida katta imkoniyatlar ochiladi.

Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

– infratuzilmadan foydalanishning tijorat qoidalarini qo‘llash;

– xususiy sektordagi firmalar tomonidan raqobatning rag‘batlantirilishi;

– infratuzilma obyektlari faoliyatining zarur darajada tartibga solib turilishi;

– infratuzilma obyektlari xizmatidan foydalanuvchilar va boshqa manfaatdor shaxslarning rejalashtirish, infratuzilma xizmatlarini tashkil etish hamda shu xizmatlar ustidan nazorat o‘rnatishdagi ishtirokini faollashtirish.

Bu chora-tadbirlar faqat siyosatni o‘zgartirishnigina nazarda tutmay, balki infratuzilma ishi tizimini tubdan qayta tuzishni ham nazarda tutadi. Ilmiy manbalarda infratuzilma xizmatini takomillashtirish va bunday xizmat sifatini yaxshilashga, ularning quvvatini oshirishga qaratilgan o‘zgarishlarni amalga oshirishning to‘rtta asosiy varianti ilgari suriladi:

1) davlat mulki va davlat tomonidan ishlatish;

2) davlat mulki va xususiy ishlatish;

3) xususiy mulk va xususiy ishlatish;

4) infratuzilma xizmatining hokimiyat mahalliy idoralari va foydalanuvchilar tomonidan uyushtirilishi.

Mamlakatimiz korxonalarining kooperatsion aloqalarini

kengaytirish bir necha vazifalarni hal etish imkonini beradi (5.4.1-rasm).



5.4.1-rasm. Kooperatsion aloqalarni kengaytirish orqali hal etiluvchi vazifalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007- yil 12-noyabrdagi «Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 3937-sonli Farmoniga ko'ra tashkil etilgan Respublika sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

– tarmoq ichidagi va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish;

–mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilarni mamlakatimizning turli hududlarida ishlab chiqarilayotgan, import qilinayotgan va o'zlashtirilishi istiqbolli bo'lgan tovarlar bilan tanishtirish;

– ishlab chiqaruvchilarga sheriklarni izlab topishda hamda o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni yetkazib berish yuzasidan xo‘jalik shartnomalari tuzishlarida ko‘maklashish;

– mamlakatimiz korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni, shu jumladan, mahalliylashtirilayotgan mahsulotlarni xorijiy foydalanuvchilar uchun qulay bo‘lgan axborot resurslari orqali keng reklama qilish.

2008- yilda Respublika Sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasiga xalqaro maqomi berildi. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish vazifalarini hal eta borib Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi uzoq muddatli xo‘jalik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va kengaytirish uchun zarur qonunchilik bazasi va bozor infratuzilmasini yaratish, tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va xalqaro kooperatsiya doirasida korxonalarga zarur xomashyo va kredit resurslaridan erkin foydalanishlari imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

2009- yil 20–27- oktyabr kunlari o‘tkazilgan Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasining quyidagi natijalari uning yuqori samara berganligini ko‘rsatadi:

– yarmarkada 378 ta mahalliy korxona, 46 ta xorijiy davlatning 600 ta firmasi vakillari ishtirok etdi;

– jami tashrif buyurganlar soni 41 ming kishini tashkil etdi;

– yarmarkada ilgaridan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan birga 124 turdagi yangi tayyor mahsulot, butlovchi qismlar va materiallar namoyish qilindi;

– kooperatsiya birjasi davomida 1,9 trln. so‘mlik, ya’ni 2008-yilga nisbatan 1,4 marta ko‘p hajmdagi shartnomalar imzolandi;

– mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilgan 2,3 mlrd. dollarlik mahsulotlarni eksport qilish bo‘yicha xorijiy firmalar bilan shartnomalar tuzildi va h.k.

Korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish o‘zaro chambarchas bog‘langan jarayonlardir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo

sanoat kooperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish uchun shart-sharoit yaratadi. Bu esa iqtisodiyotda subyektlarning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabini yanada oshiradi. Bu o'rinda esa mamlakatdagi investitsiya imkoniyatlari ularni samarali yo'naltirish muammolarini keltirib chiqaradi.

2009- yil davomida inventarizatsiya natijasida aniqlangan qariyb 2 mingta bo'sh bino kichik tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berildi. Bunda binolarni ijaraga berish tariflari tadbirkorlik subyektlarining qayerda joylashgani va ularning faoliyat turiga qarab 3 barobardan 10 barobarga qadar kamaytirildi. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi imtiyoz va qulayliklar yaratildi:

– mahsulotlarning gigienik sertifikatini amal qilish muddati ilgarigi uch yildan endilikda cheklanmagan muddatga o'tkazildi;

– fitosanitariya xulosalarini berish muddatlari qisqartirildi;

– elektr va issiqlik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni bajarish muddatlari 1 oydan 3 kungacha qisqartirildi;

– binolarni turar joydan noturar joy toifasiga o'tkazish jarayoni soddalashtirildi;

– davlat mulkidagi bo'sh binolar ijara haqlari 10 va undan ko'p barobargacha tushirilishi natijasida ularning 81 foizi (aniqlangan 3650 tadan 2939 tasi) tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berildi;

– tashqi reklamani joylashtirish tariflari o'rtacha 20 dan 30 foizgacha pasaytirildi hamda ayrim hududlarning qishloq joylarida haq olish bekor qilindi. Buning natijasida tashqi reklama beruvchi tadbirkorlarning ulushi 34 foizgacha oshdi;

– tashqi reklamani joylashtirish qiymati Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyatlarining qishloq joylari uchun 50 foizgacha pasaytirildi;

– elektr energiyasining oldi-sotdi shartnomasida belgilangan hajmga nisbatan kam sarflanishi uchun jarimalar bekor qilindi va ortiqcha sarflash bo'yicha jarimalar 50 foizga qisqartirildi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tadbirlari kuchaytirildi. Xususan, 2011-yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 4 trln. 41 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi (5.4.2-rasm).



5.4.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar miqdori (mlrd. so'm).

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo'naltirilayotgan kreditlar miqdori 2001–2011- yillar mobaynida deyarli 24 barobar o'sgan.

O'tgan yillar davomida respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari faoliyati rivojlantirildi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishida unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borishi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda (5.4.1-jadval).

5.4.1-jadval

O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatuvchi mavjud infratuzilma obyektlari (2010- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)

Infratuzilma obyekti nomi	Soni
Tijorat banklari filiallari	1042
Minibanklar	2318
Axborot-maslahat markazlari	262
Konsalting markazlari	327
Auditor firmalari	113
O‘quv markazlari	917
Baholash kompaniyalari	138
Tovar xomashyo birjasining savdo maydonchalari	204
Mikrokredit tashkilotlari	32
Kredit uyushmalari	103
Biznes-inkubatorlar	34
Sug‘urta tashkilotlari	32
Brokerlik idoralari	1424

Jadvaldan ko‘rinadiki, bugungi kunda mamlakatimiz kichik biznes sohasiga o‘ndan ortiq turdagi 8 mingga yaqin infratuzilma muassasalari xizmat ko‘rsatib, faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Ma’lumki, moliyaviy mabalag‘larni mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yuqori likvidli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, iqtisodiyotning real sektorini jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’siridan himoya qilish imkonini beradi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun Prezidentimiz qarorlari asosida respublikada infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va dasturlar qabul qilinib, hayotga keng tatbiq etildi. Xusu-

san, Investitsiya dasturi (2008- yil 2- oktyabrdagi

PQ-969-son), «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi (2009- yil 26- yanvardagi PQ-1046-son), «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish» dasturi (2009- yil 20- yanvardagi PQ-1041-son) hamda «Qo'shimcha infratuzilma obyektlarini qurish» dasturi (2009- yil 17- martdagi PQ-1073-son) shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda 2010- yil uchun amalga oshirish belgilab olingan investitsiya dasturida moliyalashtirishning ahamiyatli qismi korxona mablag'lari (42,6 foiz) hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish (21,3 foiz) orqali amalga oshirilishi rejalashtirilgan (5.4.3-rasm).



5.4.3-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2010- yil uchun belgilangan investitsiya dasturi loyihalarini moliyalashtirish manbalari, mln. so'm.

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, aholi mablag'lari va Tiklanish va taraqqiyot mablag'lari hisobiga 2010-yilda jami investitsion mablag'larning 22,6 foizi to'g'ri kelgan. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy e'tibor korxona mablag'lari va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ko'lamini oshirish va buning natijasida ishlab chiqarishning texnika va texnologik quvvatlarini modernizatsiyalash, mehnat unumdorligini oshirish orqali aholining yuqori daromad olishiga erishish, bularning

oqibatida esa, mamlakat farovonligini yuksaltirish maqsad etib qo'yilgan.

Bu borada to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda ozod qilinadi:

– 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha – 3 yil muddatga;

– 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha – 5 yil muddatga;

– 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga.

Bu yo'nalishda aniq maqsadli ish olib borish nafaqat investitsiyalarni, balki eng avvalo, ilg'or texnologiya va nou-xaularni jalb etishni ko'zda tutadi. Ular esa O'zbekistonga jahon bozorida o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Aytish kerakki, jiddiy xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng istiqbollar va imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari yetakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning mamlakatimizga o'z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta'minlaydi. So'nggi yillarda jalb etilgan hamda izchil va barqaror iqtisodiy o'sish, yangi yuqori texnologiyali ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadi darajasini ko'tarishning ishonchli manbayiga aylangan uzoq muddatli investitsiyalar hajmi 35 milliard dollardan oshdi.

Hozirgi kunda jahon taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo, tashqi savdoning tez o'sishida namoyon bo'ladi. Tashqi savdo xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va boshqa

shakllari (kadrlarni tayyorlash, turizm va h.k.) bilan bir qatordagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakli hisoblanadi.

Har qanday mamlakat tashqi savdosining holatini uning savdo balansi orqali baholash mumkin. Tashqi savdo balansi tovarlarning eksport, import va reeksport operatsiyalari bo'yicha barcha pul tushumi va to'lovlarining nisbatini ifoda etadi. Savdo balansi, o'z navbatida, mamlakat to'lov balansining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. To'lov balansi xorijiy hamkorlar bilan nafaqat tovar, balki pul sohasida ham amalga oshiriladigan operatsiyalarini aks ettiradi (5.4.4-rasm).



5.4.4-rasm. Mamlakat to'lov va savdo balanslarining asosiy mazmuni[34].

[34] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010- yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011- yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. - Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. - 375 bet.

Ijobiy saldoga ega to‘lov-savdo balanslari (xorijiy davlatlardan keladigan pul tushumlari miqdori ularga to‘lanadigan pul to‘lovlari miqdoridan ko‘p bo‘lgan holat) aktiv, manfiy saldo (pul to‘lovlari pul tushumlaridan ko‘p bo‘lgan holat) esa passiv balans deb ataladi. Dunyodagi har bir mamlakat aktiv balansga ega bo‘lishga intiladi, chunki manfiy saldo davlatning oltin-valyuta zaxirasi yoki davlat qarzi hisobidan qoplanadi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar natijasida 2010- yilda tashqi savdo va to‘lov balanslari ham sezilarli darajada mustahkamlandi.

Bugungi kunga qadar davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida eksportning umumiy hajmi 10,8 foiz, tashqi savdo balansining ijobiy saldosi esa 1,8 barobar oshdi va 4 milliard 200 million dollarni tashkil etdi. Mamlakatimizning oltin-valyuta zaxirasi ham shunga muvofiq ravishda ko‘paydi.

2010- yilda mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o‘sish sur’atlari va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ana shu tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamon o‘z ta’sirini ko‘rsatib, aksariyat mamlakatlar milliy ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlarining pasayishiga olib kelayotgan bir sharoitda O‘zbekistonda taraqqiyotning milliy modeli va izchil samarali iqtisodiy siyosatni amalga oshirish asosida salmoqli natijalarga erishilmoqda.

So‘nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e’tibor berilishi hamda qo‘llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2008- yilda bu ko‘rsatkich 48,2 foizni, 2009- yilda 50,1 foizni, 2010- yilda esa 52,5 foizni tashkil etdi yoki 2000- yilga nisbatan 21,5 foizga o‘sdi(5.4.5-rasm).



5.4.5-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi doirasida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

–joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyatiga halaqit berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki qilishi mumkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

–hududdagi bo'sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarning qisqa muddatlarda olinishi hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilishi jarayonlarini samarali tashkil etish;

–kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish borasida har bir hududdagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar etish;

–kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish yo'lidagi har qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

–hududdagi kichik biznes subyektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshqa shu kabi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi jarayonlariga e'tibor qaratish hamda bu boradagi ilg'or tajribalarni qo'llash;

–mahallalarda oilaviy biznesni rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va ularni ro'yobga chiqarish yo'llarini aniqlash, shu asosda oilaviy biznesni tashkil etishning namunaviy shakllarini tavsiya etish va qo'llab-quvvatlash;

–hududda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yo'nalishlari jihatidan tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlarini qo'llash, xususan, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning turli yo'l va choralarini izlab topish;

–hududdagi eksportga mahsulot chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga aniq va ta'sirchan yordam ko'rsatish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish[35].

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim.

---

[35] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010- yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011- yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. - Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. - 375 bet.

Bilimni mustahkamlash bo'yicha nazorat savollari:

1. O'zbekistonda bozor infratuzilmasining shakllanishida fond bozorining ta'siri qanday?

2. Qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan investitsiya muassasalari to'g'risida ma'lumot bering.

3. Toshkent respublika fond birjasining vazifasi nima va bugungi kunda uning faoliyati qanday ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'lmoqda?

4. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimining rivojlanish tendensiyasini izohlab bering.

5. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining tuzilishini ta'riflang.

6. Mamlakatimizda bank faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

7. O'zbekistonda sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari qanday?

8. Mamlakatimizdagi sug'urta bozorining rivojlanish ko'rsatkichlariga baho bering.

9. Xalqaro savdo yarmarkasi va kooperatsion birjaning asosiy maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat?

10. O'zbekistonda bozor infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini izohlab bering.

11. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma obyektlari to'g'risida ma'lumot bering.

12. Mamlakatimizda bozor infratuzilmasi xizmatini yanada takomillashtirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish zarur?

GLOSSARIY

«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki –iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni jadal barpo etish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishga yo‘naltirilgan bank muassasasi bo‘lib, u 2009- yil 30- martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori asosida «Paxtabank» aksiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan.

«Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat banki – qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy-joy sharoitlarini sifatli yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida hamda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga muvofiq 2009- yil 30- martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq «G‘alla-bank» aksiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan. «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat bankining ustav kapitali 150 milliard so‘m miqdorida shakllantirilgan.

«Qishloq qurilish invest» ixtisoslashtirilgan sho‘ba injiniring kompaniyasi –«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturini ijro etish hamda aholi punktlarining bosh rejalar va arxitekturaviy rejalashtirishni tashkil etish loyihalariga muvofiq tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy

qurilishi ko'lamini kengaytirish asosida qishloq aholisining turarjoy sharoitlarini tubdan yaxshilash maqsadida 2009- yil 3- avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008- yil 3- dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi qarori asosida tashkil etilgan. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi –zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishdan iborat.

«Yarmarka» atamasi nemischa "Jahrmarkt" so'zidan olingan bo'lib, «yilda bir marotaba o'tkaziluvchi bozor» ma'nosini anglatadi. Ma'lum belgilangan vaqt davri mobaynida alohida ajratilgan joyda tovar namunalarining ko'rgazmasi yarmarka deb atalib, uning o'tkazilishi vaqtida savdo bitimlari tuziladi, tovarlarning ulgurji sotuvlari amalga oshiriladi.

Osiyo taraqqiyot banki –Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasiga bevosita qarzlar berish hamda texnik jihatdan ko'maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishini rag'batlantirish maqsadida 1966- yilda tashkil etilgan bank.

Aylanma mablag'lar –xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil etuvchi mablag'lar. Aylanma fondlar tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari kiradi. Muomala fondlari tarkibiga tayyor mahsulotlar, pul mablag'lari, hisob-kitobdagi mablag'lar kiradi.

a) Asosiy bo'lmagan siyosiy tashkilotlar.

b) Asosiy siyosiy tashkilotlar.

Auksion lotincha "auctio" – ochiq savdo so'zidan olingan bo'lib, individual xususiyatlarga ega tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil etilgan maxsus kimoshdi savdo bozorlarini anglatadi. Auksion savdo tovarlarning nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha, oldindan e'lon qilingan vaqtda, davriy ravishda, tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumiga va hajmiga qarab o'tkaziladi. Auksion savdosida namuna tovarlar ro'yxatda ko'rsatilgan tartibda savdoga qo'yiladi, xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan kishi tovarni sotib oladi. Auksionlarda san'at asarlari, noyob buyumlar, kolleksiyalar ham sotilishi mumkin. Shuningdek, o'z qarzini to'lash layoqatiga ega bo'lmagan korxonalarning mol-mulklari ham auksion orqali sotilishi mumkin.

Axborot infratuzilmasi – mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o'zaro faoliyatini ta'minlovchi tizimchalar, tashkiliy tarkiblar majmuyi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari – xususiy, umumiy va ishlab chiqarish kommunikatsiyasida axborotlar tayyorlash, qayta ishlash va yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan obyektlar, harakatlar va qoidalar, shuningdek, barcha texnologiyalar hamda sanab o'tilgan jarayonlarni birlashgan ravishda ta'minlovchi sohalar majmuasi. AKT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuter va dasturiy ta'minot, telekommunikatsiyalar ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish, Internetdan erkin foydalanishni ta'minlash, Internetning axborot resurslarini ta'minlash, shuningdek, sanab o'tilgan sohalar bilan bog'liq bo'lgan turli xil hodisalar va bu

faoliyat sohalarini tartibga soluvchi qoidalar (rasmiylari kabi norasmiylari ham) kiradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – davlat tomonidan aholiga barcha hayot kechirish shart-sharoitlarini yaratish uchun maqsadli yo'naltirilgan kafolatlar tizimi.

Aholini ijtimoiy himoyalash – aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlaridan asrash, shu oqibatlarning aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ta'sirini yumshatish.

Aholining real daromadlari – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmuyi. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatbaho qog'ozlari, investitsiyalari, valyuta ko'rinishida bo'ladi.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma'lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo'yilgan bo'sh pul mablag'lari.

Banklarning kredit portfeli – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi: A. yaxshi; B. standart; C. substandart; D. shubhali; E. umidsiz. Tijorat banklarining ma'lum vaqtga qadar ssuda hisobvaraqalarida qolgan pul mablag'lari majmuasi (qoldig'i).

Bank-moliya tizimining barqarorligi – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o'z majburiyatlari yuzasidan talablarga to'la javob bera olishi. Bu likvidlilik kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Bankrot – xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini

bajarishga qodir emasligi.

Barqarorlik – narsa va hodisalarning amal qilishi va rivojlanishdagi o'ziga xos muayyanlik holati.

Biznes –foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi.

Birja – barqaror va aniq sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan ommaviy ishlab chiqarish tovarlari ulgurji savdosi yoki valyuta, ishchi kuchi va qimmatbaho qog'ozlar savdosi bo'yicha muntazam operatsiyaning tashkiliy shakli. «Birja» so'zi lotincha "bursa" – «hamyon» ma'nosini anglatadi. Birjalar XVI asrda tijoratchilarning savdo operatsiyalarini o'tkazish uchun to'planuvchi maxsus joyi shaklida vujudga keldi. Dastlabki birja 1531- yili Antverpenda, keyingilari Londonda (1566- yil) va Nyu-Yorkda (1792- yil) tashkil topdi.

Bozor infratuzilmasi – Iqtisodiy tushunchalar lug'atida «Bozor infratuzilmasi(inglizcha market infrastructure) – asosiy vazifasi tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berishdan iborat bo'lgan tarmoq, kichik tarmoq hamda faoliyat sohalari (transport, ta'minot, mol tarqatish, savdo va h.k.)ning majmuyi» sifatida ta'riflanib, «rivojlangan bozor infratuzilmasi iqtisodiyotdagi mablag'lar aylanishining tezlashuvi, yangidan yaratilgan qiymatning realizatsiyasi jarayoni uchun shart-sharoit yaratadi.

Bozor infratuzilmasining maqsadi – bu cheklangan to'lovga qobil talab sharoitida, bozor ishtirokchilari manfaatlari muvozanatini ta'minlash borasidagi kelishuv asosida foydasini maksimallashtirishdan iborat.

Bozor kon'yunkturasi – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo'lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

Byudjet defitsiti – byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Valyuta bozori – xorijiy valyutalar yoki xorijiy valyutadagi tўlov hujjatlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasi.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Davlat byudjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Daromad solig'i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov (soliq).

Deflyatsiya – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul -kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Diversifikatsiya (lotinchadan *diversus* – har xil va *facere* – qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Diversifikatsiya strategiyasi –korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendensiyalardan biri hisoblanib, u orqali korxonalarni bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo'lgan raqobatbardoshligini oshiradi.

Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo'shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirishi mumkin.

Dividend – aksiyadorlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to'lanadigan qismi bo'lib, u aksiyadorlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to'lanadi.

Jahon banki – 1944- yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946- yil 25- iyundan boshlagan.

Jahon bozori konyunkturasi – jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

Joriy konyunktura –muayyan davrda tovarlarga bo'lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmuyi. Joriy konyunktura ayni davrdagi milliy va jahon iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

Ijtimoiy infratuzilma –aholining turmush faoliyatini, uning farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi turli muassasa va obyektlar majmuyi. Masalan, ta'lim muassasalari, dam olish va davolanish maskanlari, uy-joy, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, tabiiy gaz, ichimlik suvi, elektr energiyasi ta'minoti, yo'lovchi transporti va boshqalar.

Ijtimoiy soha obektlari – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmuyi. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog'liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy-maishiy infratuzilma – bevosita kishilarning ijtimoiy, ma'naviy, madaniy, ma'rifiy, ilmiy va shu kabi faoliyat yo'nalishlaridagi harakatlari, munosabatlari, o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash, rivojlantirishga xizmat ko'rsatuvchi tarmoq va subyektlar majmuyidan iborat bo'lgan iqtisodiyotning alohida bir bo'g'inidir. Ya'ni, ijtimoiy-maishiy infratuzilma aholining turmush tarziga bevosita bog'liq bo'lgan uy-joy qurilish, sog'liqni saqlash, ta'lim va bilim berish, jismoniy tarbiya va sport, madaniy va maishiy, maxsus aloqa va transport, umumiy

ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatish hamda kishilarning har tomonlama rivojlanishiga ta’sir etuvchi boshqa sohalarni o‘z ichiga oluvchi, ularni bog‘lovchi tizim sifatida ifodalanadi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozoridagi o‘z o‘rni va mavqeini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati bo‘lib, quyidagilar orqali belgilanadi: mamlakatdagi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarning mavjudligi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq sohasi bo‘lib, u o‘z ichiga sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi.

Iqtisodiy nochor korxonalar – muayyan miqdorda kapital yo‘qotish, ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo‘lmagan mahsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xomashyo, yonilg‘i, mehnat resurslari sarflaydigan qoloq, samarasiz korxona.

Iqtisodiy o‘sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o‘sishi.

Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko‘maklashadi.

Inventarizatsiya – korxonalar, firmalar, tashkilotlarda naqd mulk va tovarlarni ro‘yxatdan o‘tkazish; natura holidagi boyliklarning mavjudligi yoki holatini, mablag‘larni muntazam tekshirib turish, shuningdek, ularning moddiy boyliklarni hisobga

olish qaydnomalariga muvofiqligini aniqlash maqsadlarida davriy qayta hisobga olish.

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.

Investitsion loyiha – barpo etilayotgan yoki modernizatsiya qilinayotgan obyektlar, texnologik jarayonlar va ular uchun texnik va tashkiliy hujjatlar, moddiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarni yaratish bilan bog'liq tadbirlar va boshqaruv qarorlari bajarilishini o'z ichiga oladigan maqsadlar tizimidir.

Investitsion loyiha dasturi – O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga muvofiq ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda kapital qo'yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatining maqsadga muvofiqligini asoslovchi va investitsiyalarni (biznes-reja) amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyat dasturi.

Investitsion siyosat – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo'llarini tiklashni nazarda tutadi.

Investitsion soliq krediti – soliq majburiyati bo'yicha to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati beriladi, agarda soliq to'lovchida belgilangan tartibdagi asos bo'lsa, u holda soliq to'lovlarini kamaytirilgan holda ma'lum bir vaqt ichida bosqichma-bosqich to'lash mumkin bo'ladi.

Investitsion hamkorlik – xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

Investitsiya – bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatbaho qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda ko'proq investitsiyalar degan sinonim termin qo'llaniladi, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, real investitsiyalar va asosiy kapital kabi terminlar ham qo'llaniladi.

Investitsiya dasturi – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

Investitsiya kompleksi – investitsiya faoliyatini ta'minlovchi tashkilotlar, korxonalar va firmalar majmuasi.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmuyi.

Investitsiya faoliyati – investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyati ishtirokchilari – buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o'z mamlakatidagi qonunchilikka ko'ra investitsiyaviy mulk egalari (tasarrufchilari) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlarni kiritish mumkin.

Investorlar – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari. Investorlar obyektlar va investitsiya

natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo'ladi. Investorlar kreditorlar va xaridorlar rolini bajarishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishlari mumkin. Odatda investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydilar, shartnoma va shartnomalarning shartlarini ishlab chiqadilar va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan – shartnomaor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulotning iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmuyi bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Innovatsiya jarayoni – yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texniq ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud – yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish.

Institutsional infratuzilma – bevosita ijtimoiy xo'jalik yuritish faoliyatini tashkil etish, boshqarishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy va jismoniy shaxslar hamda davlat muassasalarini o'z ichiga oladi. Institutsional infratuzilmaning farqlantiruvchi xususiyati asosan uning mustaqil tarmoq yoki tarmoqning ichki tuzilishi tarzida namoyon bo'lmay, balki ularga tizim osti boshqaruvchi rolida xizmat ko'rsatishi orqali ifodalanadi.

Institutsional siyosat –davlat tomonidan mulkchiliq mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilarini yo'qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo'yicha amalga oshiradigan chora-tadbirlar, hatti-harakatlar.

Intermodal markaz – yuk tashishlar bo'yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

Internet xizmatlari – internet tarmog'i abonentlariga amaliy bayonnomalar tomonidan taqdim etiluvchi funksional imkoniyatlar majmuyi: elektron pochta, fayllarni qabul qilish va uzatish, veb-hujjatlarni o'qish, voqeiy vaqtdagi muloqot (chat), terminal orqali erkin foydalanish, tarmoqda hujjatlarni saqlash va ishlash va h.k.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o'sishi.

Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.

Infratuzilma – bu tovar va xizmatlarning harakatini, oldi-sotdi jarayoniga vosita bo'lib xizmat qiluvchi tashkiliy-huquqiy shakllarning yig'indisi yoki bozorga xizmat ko'rsatuvchi hamda uning amal qilishining normal sharoitini ta'minlash bo'yicha ma'lum funksiyalarni bajaruvchi muassasalar, tizimlar, xizmatlar, korxonalarning majmuyidir.

Ipoteka – bankning garov xat, ko'chmas mulk garovi asosida muayyan muddatga ssuda berishi.

Ipoteka krediti – joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga barpo etiladigan uy-joy garovi ostida beriladigan uzoq muddatli kredit. Ipoteka kreditlari tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik va muddatlilik shartlarida beriladi.

Iste'mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholining iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

Iste'mol krediti – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste'mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

Iste'mol tovarlari – inson ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan iste'mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib

hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish – sotishni amalga oshiruvchi. Shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1997- yil 29- avgustda qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimining jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Kapital qurilish – yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Kapital qo'yilmalar – quvvatlarni takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurishga qaratilgan resurslar va jami ijtimoiy mehnatning qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya. Davlat tomonidan (davlat buyurtmasi), turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar, banklar hamda xususiy shaxslar tomonidan ajratiladigan pul mablag'lari kapital qo'yilmalarning manbalari bo'lishi mumkin. Kapital qo'yilmalar yangi korxonalar qurishga yoki amaldagi korxonalarni qayta ta'mirlashga yo'naltirilishi mumkin.

Kapital ta'mirlash – asosiy vositalarni yirik ko'lamda butkul detallari, qismlarini almashtirish bilan bog'liq qayta ta'mirlash tushuniladi.

Kapital xarajatlar – asosiy kapitalga kiritiladigan mablag'lar

va zaxiralarning o‘sishi.

Kasanachilik – yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish.

Kichik biznes – korxona ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag‘lari miqdori va boshqa jihatlariga ko‘ra imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar. Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

Kichik biznes subyektlari – korxona ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag‘lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko‘rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Kichik korxonalar – mustaqil xo‘jalik faoliyatini olib boruvchi, o‘z balansiga ega bo‘lgan, soliqlar va boshqa to‘lovlarni to‘lagandan so‘ng qolgan foydasini o‘zi taqsimlaydigan korxona.

Kommunikatsiya (lotincha *communicatio* – aloqa, bog‘lanish) – xabar berish va aloqa, axborot almashinuv bo‘yicha bog‘lanish vositalari majmuyi.

Kooperatsiya aloqalari – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma’lum mahsulotni tayyorlash bo‘yicha uzoq muddatli aloqalarni o‘rnatish.

Korxonalarga preferensiya berish – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiriladigan xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar,

shuningdek, asbob-uskunalarni olib kirishda boj to‘lovlari va boshqa jarayonlar bo‘yicha yengilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmuyi.

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma’lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo‘lg‘usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o‘lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko‘rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o‘sish, ishsizlik inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Mahalliylashtirish – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali unga bo‘lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo‘lga qo‘yish.

Maxsus reklama agentliklari, axborot markazlari va ommaviy axborot vositalari agentliklarining bozor infratuzilmasi sifatidagi roli ham ahamiyatli hisoblanadi. Reklama –tovar yoki ko‘rsatiladigan xizmat to‘g‘risidagi xolis axborot, talabni ko‘paytirish maqsadlarida xaridorlarga tovarlarning xossalari, afzalliklari va sotib olish shartlarini yetkazish va oshkor etish vositasi bo‘lib, uni maxsus firmalar ma’lum haq evaziga tashkil etadi yoki bevosita tovarni sotuvchi firmaning o‘zi uyushtiradi.

Mehnat birjasi – bu maxsus tovar sifatidagi ishchi kuchining oldi-sotdi jarayonlarini tashkil etishga ixtisoslashgan birjaning o‘ziga xos turi. Boshqacha aytganda, mehnat birjalari ishga yollovchilar bilan ish qidiruvchilar o‘rtasida vositachi sifatida maydonga tushadi. Bunday birjalarning asosiy maqsadi ish qidirish uchun vaqt sarfini kamaytirish hamda kishilar tomonidan o‘zlari

istagan ishni topish imkonini yaratishdan iborat.

Mikrokredit – qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming barobari miqdoridan oshmaydigan hajmda to'lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'lari.

Mikrokredit – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrokreditlar: A)yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati uchun–eng kam ish haqining 50 barobarigacha; B) mikrofirma va dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 100 barobarigacha; C) fermer xo'jaligiga eng kam ish haqining 200 barobarigacha beriladi.

Mikrolizing – mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan mol-mulk olish hamda unga egalik qilish va foydalanish uchun uni lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmatdir. Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lizing to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Mikromoliyalash – mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan hajmda mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish, shuningdek, mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyati.

Mikrofirma – kichik biznes korxonasining bir turi. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Modernizatsiya – obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga,

sifat ko‘rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliya-bank tizimi – tarixan shakllangan va belgilangan qonun-qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit muassasalari majmuyidir.

Moliyaviy «ko‘piklar» – real qiymatga ega bo‘lmagan pul va obligatsiyalar hajmining ko‘payishi.

Moliyaviy institutlar – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Moliyaviy manbalar – iqtisodiyotning turli darajasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag‘larning kelib chiqish manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarning manbalari, davlat byudjeti mablag‘lari, qarzga olingan mablag‘lar, xorijiy investorlarning mablag‘lari va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Protektsionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

Pudrat – shartnoma yoki xo‘jalik yuritishning bir turi. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko‘ra belgilangan ishni bajarishi to‘g‘risidagi shartnoma.

Pul-kredit siyosati – Markaziy bank tomonidan pul taklifi, kredit resurslari va foiz stavkalari sohasida olib boriladigan siyosat.

Rekonstruksiya (qayta tiklash) – faoliyat yuritayotgan korxonani ma’naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo‘g‘inlar va yordamchi xizmatdagi

nomutanosibliklarni yo‘qotish yo‘li bilan almashtirish yordamida to‘liq yoki qisman o‘zgartirish. Qayta tiklashda eski sexlar o‘rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

REPO – bu birja operatsiyasi jarayoni, moliyaviy mablag‘ga ehtiyojmand bir kompaniya o‘z qimmatbaho qog‘ozini boshqa bir kompaniyaga sotishi bilan belgilanadi. Bunda qimmatbaho qog‘ozni sotib olgan kompaniya boshlang‘ich narxidan ancha yuqori bahoda qaytarib sotadi. Sotish va qayta sotib olish o‘rtasidagi farq REPO bitimi bo‘yicha foizni tashkil etadi. Umuman birinchi kompaniya o‘z qimmatbaho qog‘ozini garovga qo‘yib qarz olgandek va yuqori narxda qaytib sotib olish hisobidan foiz to‘lagan ikkinchi kompaniya esa kreditor sifatida namoyon bo‘ladi. REPO tizimi shunisi bilan qiziqki, ham kredit, ham nokredit tashkilotlariga kreditlash imkoniyatini taqdim etadi.

Samarali iqtisodiy siyosat – davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o‘zaro uyg‘unlashtirilgan chora-tadbirlari majmuyi.

Sektor – institutsion birliklar yig‘indisi bo‘lib, ularning maqsadi, moliyalashtirish manbalari va funksiyalari bir xil bo‘ladi, natijada ularning iqtisodiy huquqi ham o‘xshashib ketadi.

Servis – jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman keng aholi qatlamiga xizmat ko‘rsatish; ishlab chiqarish-texnika maqsadlarida mahsulotlarni, moddiy-maishiy, xo‘jalik va boshqa sanoat mahsulotlarini sotish hamda ularni ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohalari.

Soliq imtiyozi – soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to‘lashdan to‘liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq krediti – byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini ma’lum muddatga kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki soliqni qaytarish shakli.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – kichik biznes subyektlarini rag‘batlantirish maqsadida qo‘llaniladigan soliqqa

tortish tartibi.

Soliq yuki – mablag'larni foydalanish mumkin bo'lgan boshqa yo'nalishlardan olib, soliqlarni to'lash uchun yo'naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo'lib, odatda soliq to'lovchi tomonidan muayyan davrda byudjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasi soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i orqali ifodalanadi.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini birxillashtirish.

Tarkibiy o'zgarishlar – milliy iqtisodiyotning samarali va barqaror tarkibiy tuzilishini ta'minlash maqsadida uning tarmoq va sohalarini izchil ravishda o'zgartirib borish. Tarkibiy o'zgarishlar o'z ichiga yangi tarmoqlarni barpo etish, ba'zilarini kengaytirish, ayrim samarasiz, istiqbolga ega bo'lmagan tarmoqlarni qisqartirish kabi chora-tadbirlarni oladi.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi nodavlat qarzlar – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi savdo – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunda teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

Telekommunikatsion infratuzilma – kompaniyaning telekommunikatsion infratuzilmasi – bu turli axborotlarni: avtomatlashgan boshqaruv tizimlari ma'lumotlari, elektron xabarlar, internet-grafika, turli fayllar hamda «ovoz» va video ko'rinishidagi axborotlarni uzatish vazifasini hal qiluvchi o'zaro aloqador tizimchalar majmuyi.

Telekommunikatsiya – simli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlardan foydalanib signal, belgi, matn, tasvir va tovushlarni yoki boshqa ko'rinishdagi axborotni uzatish, qabul qilish va unga ishlov berish jarayoni. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ma'lumotlarni masofadan uzatish jarayoni.

Tijorat banklari – sanoat va savdoni qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minlash, shuningdek, xususiy mijozlarga har xil turdagi bank xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan banklar.

Tovar birjasi – oldindan belgilangan qoidalarga muvofiq ravishda ulgurji va xalqaro savdoni tashkil etish shakli. Tovar birjasi unda o'tkaziladigan savdoning muntazamligi, uning qat'iy belgilangan joyda amalga oshirilishi, tovar sifati, uni yetkazib berish shartlari va muddatiga bo'lgan asosiy talablarning bir xil shaklga keltirilishi, kelgusida yetkazib berish sharti bilan bitim tuzish kabi belgilari bilan ajralib turadi.

Turmush darajasi – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar kiritish. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

To'lov balansi – muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga to'lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan to'lovlar summalari nisbatini tavsiflaydi. To'lov

turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo'shma korxonalarning chet elga pul o'tkazmalari va boshqalar kiradi.

Uzoq muddatli depozitlar – jismoniy va yuridik shaxslarning tijorat banklariga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan pul ko'rinishidagi jamg'arma va omonatlari.

Unifikatsiya – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta'minlash.

Uyali aloqa–uyali tarmoqqa asoslangan mobil radioaloqaning bir turi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat. Bugungi kunda mazkur fondning jamg'armasi 3,7 milliard dollarni tashkil etadi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

Fond birjasi muntazam ravishda amal qiluvchi qimmatbaho qog'ozlar, aksariyat holda aksiya va obligatsiya bozorini namoyon etib, ularni sotish va xarid qilish bo'yicha bitimlar bir vaqtning o'zida narx belgilash orqali tuziladi. Fond birjalarida qimmatbaho qog'ozlar savdosi auksion, ya'ni nisbatan yuqoriroq narxni taklif etuvchi sotib olish huquqini qo'lga kirituvchi ochiq savdo tamoyili bo'yicha olib boriladi. Fond birjalariga valyuta birjalari yaqin bo'lib, ularda talab va taklif ta'siri ostida qaror topuvchi kurslari

bo‘yicha milliy valyutalarning erkin savdosi amalga oshiriladi. Fond birjalari savdo jarayonlaridagi talab va taklifning o‘zaro ta’siri natijasida qimmatbaho qog‘ozlarning birja kursi o‘rnatilib, u odatda aksiya, obligatsiyalar bozor narxlarining ular nominal qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi. Ba’zida tovar va fond birjalari yagona tovar-fond birjalariga birlashadilar. Dunyoda birinchi fond birjasi 1773- yilda Londonda, keyinchalik 1791- yili Filadelfiya shahrida, 1792- yili Nyu-Yorkda tashkil etilgan.

Fond bozori – qimmatbaho qog‘ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

Franchayzing – yirik kompaniya (franchayzer) hamda kichik firmalar (franchayzi) o‘rtasidagi shartnoma tizimi bo‘lib, unga asosan franchayziga franchayzerning mahsulotlarini uning tovar belgisidan foydalangan holda sotish huquqi beriladi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar – ikki turdagi – ishtirokchilari bevosita davlatlardan iborat hukumatlararo (davlatlararo) hamda tarkibiga ishlab chiqaruvchilar birlashmalari, kompaniya va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqalar kiruvchi nohukumat tashkilotlari.

Xalqaro moliya tashkilotlari – davlatlar o‘rtasidagi valyuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish, kredit ko‘rinishida yordam berish maqsadida davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan tashkilotlar. Bunday tashkilotlar qatoriga Xalqaro hisoblashuvlar banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki, mintaqaviy xalqaro rivojlanish banklari va boshqalarni kiritish mumkin.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatish maqsadida 1944-yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro

valyuta jamg'aramasi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o'z amaliy faoliyatini 1947-yil 1-martdan boshlagan.

Xalqaro tashkilotlar –ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

Xalqaro tranzit – xorijiy yuklarning jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi – ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatidir.

Xususiy tashkilotlar – demokratik davlatlarda, individuallar va xususiy tashkilotlar mustaqil ish yuritishga harakat qiladi. Masalan, ro'znoma va oynomalar xususiy tarzda boshqariladi. Davlat maktablari bilan xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi. Ko'plab korxonalar xususiy tarzda boshqariladi. Britaniya,

Shvetsiya va ko'plab davlatlarda (ya'ni demokratik davlatlarda) sanoat va xizmat ko'rsatishning ayrim tarmoqlariga davlatning o'zi egalik qiladi. Totalitar davlatlarda esa hukumatning o'zi aksariyat uyushmalar va tashkilotlarni shakllantiradi va nazorat qiladi. Bu davlatlarda odamlar davlatning ruxsatisiz biror-bir guruhga birlasha olmaydilar ham.

Shaxsiy daromad – jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

Shaxsiy infratuzilma ham muhim rol o'ynaydi. U o'zining mohiyatiga ko'ra xorij iqtisodiyotida qo'llanilgan tovar xo'jaligining samarali faoliyat yurgizish vositasi bo'lgan «sotsial umumiy kapital» yoki jamiyatda kishilarning ma'naviy (aqliy), tadbirkorlik kasbiy va boshqa faoliyatlarini tashkil etuvchi «inson kapitali» hisoblanadi. Shuning uchun ham shaxsiy infratuzilma mehnat taqsimlangan tovar xo'jaligida ishtirokchilarning, ularning umumxo'jalik faoliyatiga integratsiyalashuvining oshishini ta'minlovchi va ishlarini hisobga olgan holdagi soni va sifati (tayyorgarlik darajasi)ni qamrab oladi.

Shaxsni muntazam kamol toptirish – fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning muhim sharti va tarkibiy qismi. Shaxsni rivojlantirish jarayonlari insonning salohiyat va maqsadlarini ro'yobga chiqarish borasida nafaqat davlat, jamiyat ta'siri, balki shaxsning o'z sa'y-harakatlarini faollashtirishni ham taqozo etadi.

Ekologik infratuzilma – bevosita tabiatni, atrof-muhitni, atmosfera ifloslanishining oldini olish, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, insonning tabiatga o'tkazadigan salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan davlat muassasalari, mahalliy hokimiyat, muhandislik inshootlari, laboratoriyalar va ekologiya bilan bog'liq bo'lgan davlat, xalqaro va ijtimoiy tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Ekologik infratuzilma qishloq jamoasining industrial rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Ushbu infratuzilma bevosita fan-texnika taraqqiyoti natijasida sodir bo'lgan salbiy jarayonlarga chek qo'yish asosida tabiatning cheklangan zaxiralaridan samarali foydalanish

borasida nafaqat alohida hudud, mamlakat, balki xalqaro miqyosda o‘zaro hamkorlikda faoliyat yurgizishni o‘z ichiga oladi.

Eksport – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatbaho qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Erkin industrial -iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to‘lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo‘ladi.

Yagona to‘lov–kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli soliq va yig‘imlar o‘rniga soddalashtirilgan tartibda to‘lanuvchi yagona soliq turi.

Yalpi investitsiya – ma’lum davr ichida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni vujudga keltirish uchun sarflanadigan investitsion kapitalning umumiy hajmi.

BOZOR INFRATUZILMASI NAZARIYASI FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Infratuzilma bu –...

A. Iqtisodiy tizim asosi.

B. Iqtisodiy tizim ichki tuzilmasi.

C. Iqtisodiy tizimning tarkiban joylashuvi.

D. Yuqorida keltirilganlarning barchasi to‘g‘ri.

2. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri infratuzilma tushunchasiga mos emas?

A . Xo‘jalik faoliyatiga xizmat qiluvchi tizimlar majmuasi.

B. Ishlab chiqarish faoliyatini ta’minlash.

C. Ishlab chiqarish faoliyatida bevosita ishtirok etish.

D. Sanoat korxonlarining zarur moddiy-texnikaviy sharoitlarini ta’minlash.

3. Quyidagilarning qaysi biri infratuzilmaga misol bo‘la olmaydi?

A. Ishlab chiqarish infratuzilmasi.

B. Bozor infratuzilmasi.

C. Ekologik infratuzilma.

D. To‘g‘ri javob keltirilmagan.

4. Keltirilganlardan qaysi biri ishlab chiqarish infratuzilmasining funksional xususiyati emas?

A. Mahsulotlarni omborda saqlash.

B. Mahsulotlarni iste’molga yetkazish.

C. Ishlab chiqarish faoliyatini axborot bilan ta’minlash.

D. Xo‘jalik faoliyatining bir maromda ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratib berish.

5. Ijtimoiy-maishiy infratuzilma bu –. . .

A. Ijtimoiy sohadagi infratuzilma.

B. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi infratuzilma.

C. Ilmiy faoliyatni ta'minlashdagi infratuzilma.

D. Barcha javob to'g'ri.

6. Ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning boshqacha nomi bu –. . .

A. Sotsial infratuzilma.

B. Noishlab chiqarish infratuzilmasi.

C. Xizmatlar sohasi.

D. Yuqorida keltirilganlarning barchasi to'g'ri.

7. Ijtimoiy infratuzilmaga tegishli bo'lmagan bandni ko'rsating.

A. Xalq ta'limi.

B. Sog'liqni saqlash.

C. Yo'lovchi transporti.

D. Jismoniy tarbiya.

8. Ijtimoiy-maishiy infratuzilmaga kirmaydigan sohani ko'rsating.

A. Savdo.

B. Sport.

C. Umumiy ovqatlanish.

D. Yuqoridagilarning barchasi maishiy infratuzilmaga kiradi.

9. Institutsional infratuzilma bu –. . .

A. Ijtimoiy xo'jalik yuritish tizimini tashkil etish va boshqa huquq-tartibot muassasalari.

B. Boshqa infratuzilmalarni birlashtirib turuvchi institutsional tizim.

C. Kadrlar tayyorlash bilan bog'liq infratuzilma.

D. Bunday infratuzilma mavjud emas.

10. _____ ekologik infratuzilmaga kirmaydi.

A. Atrof-muhit ifloslanishi oldini olish.

B. Toza ichimlik suvi bilan ta'minlash.

C. Resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

D. Fan-texnika taraqqiyoti uchun shart-sharoitlar yaratib berish.

11. Transport, ta'minot, mol tarqatish, savdo va h.k . . . . .

A. Bozor infratuzilmasi.

B. Ijtimoiy infratuzilma.

C. Shaxsiy infratuzilma.

D. Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

12. Har bir bo'g'inning ishida ixtisoslashuv va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida . . .

A. Samaradorlikka erishish mumkin.

B. Barqarorlikni ta'minlash mumkin.

C. Infratuzilmalar faoliyati yaxshilanishi mumkin.

D. Yuqoridagilarning barchasi to'g'ri.

13. Tovar va xizmatlar muomalasiga, ya'ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi infratuzilma . . .

A. Transport.

B. Aksiyadorlar.

C. Agentliklar.

D. Pul fondlari.

14. Tijorat banklari, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari qanday infratuzilma hisoblanadi?

A. Bozor infratuzilmasi.

B. Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma.

C. Moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma.

D. B va C javoblar to'g'ri.

15. "Birja" so'zi lotincha _____ma'nosini anglatadi.

A. Bozor.
B. Hamyon.
C. Sumka.
D. To'plam.

16. Birjalar dastavval . . . .

A. AQSH da paydo bo'lgan.
B. Angliyada paydo bo'lgan.
C. Germaniyada paydo bo'lgan.
D. Antverpenda paydo bo'lgan.

17. Oldindan belgilangan qoidalarga muvofiq ravishda ulgurji va xalqaro savdoni tashkil etish shakli bu .....

A. Supermarket.
B. Tovar birjasi.
C. Fond birjasi.
D. Mehnat birjasi.

18. Individual xususiyatlarga ega tovarlarni sotish uchun muayyan joy . . . .

A. Supermarket.
B. Yarmarka.
C. Bozor.
D. To'g'ri javob keltirilmagan.

19. Yarmarka so'zining ma'nosi .....

A. Yilda bir marotaba o'tkaziluvchi bozor.
B. Sotilgan tovarlar.
C .O'n yilda bir marotaba o'tkaziladigan bozor.
D. Ma'nosi yo'q.

20. Maxsus kredit muassasalari bo‘lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo‘li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladigan infratuzilma bu ..... .

A. Ipoteka banklari.

B. Auksion.

C. Lombard.

D. Emissiya tizimi.

21. Qimmatbaho qog‘ozlarni saqlash va ularga tegishli bo‘lgan huquqlarning hisobini olib borish xizmatlari bilan shug‘ullanuvchi muassasa qanday nomlanadi?

A. Birja.

B. Kredit uyushmasi.

C. Depozitariy.

D. Savdo palatasi.

22. Soliq idoralarining asosiy vazifasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. Soliq va to‘lovlarni undirish.

B. Soliq, yig‘im va bojlarni to‘g‘ri va to‘liq hisoblash, nazorat qilish.

C. Daromadlarning yashirin holatini aniqlash.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

23. Sug‘urta kompaniyalarining vazifasi ..... .

A. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda shaxsning zararini qoplash.

B. Sug‘urtachiga moddiy yordam ko‘rsatish.

C. Tijorat xavf-xatarlarining oldini olish.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

24. Reklama so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?

A. “Tovar haqida ma’lumot berish”.

B. “Baqirish”, “Qichqirish”.

C. “Axborot”, “Ma’lumot”.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

25. Tovarlar ishlab chiqarish, sotish, eksport qilish bo‘yicha tadbirkorlarga yordam ko‘rsatuvchi muassasa qaysi?

A. Savdo palatasi.

B. Sug‘urta kompaniyasi.

C. Patent idorasi.

D. Savdo uyi.

26. Tijorat ishlarini yurituvchi va ixtisoslashgan savdo-sotiq korxonasi qanday nomlanadi?

A. Savdo palatasi.

B. Savdo firmalari.

C. Savdo uyi.

D. Supermarket.

27. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi qanday nomlanadi?

A. Supermarket.

B. Savdo uyi.

C. Savdo firmalari.

D. Savdo palatasi.

28. Bozor infratuzilmasi amal qilish shakllarining qanday usullari mavjud?

A. Axborot berish.

B. To‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etish.

C. Aralash.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

29. Firmalarning bozor va biznes sohasidagi imkoniyatlarini aniqlab boruvchi, moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilib turuvchi tashkilot bu ..... .

A. Konsalting kompaniyasi.

B. Davlat boshqaruv organlari.

C. Soliq idoralari.

D. Auditorlik idoralari.

30. Birinchi erkin-iqtisodiy hudud qayerda va qachon tashkil etilgan?

A. 1946- yil, Shotlandiya.

B. 1959- yil, Irlandiya.

C. 1950- yil, AQSH.

D. 1963- yil, Germaniya.

31. Biznes-markazning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A. Tadbirkorlar va boshqa bozor subyektlariga servis xizmatlarini ko'rsatish.

B. Bozorga moliyaviy madadlar berish.

C. Bozorni tadqiq etish va o'rganish.

D. Bozor infratuzilmasini ishlab chiqish.

32. "Erkin iqtisodiy hududlar" tushunchasini beruvchi atamalar qaysilar?

A. Erkin savdo hududi.

B. Eksport-ishlab chiqarish hududi.

C. A va B javoblar to'g'ri.

D. Barcha javoblar noto'g'ri.

33. Bozorlarga xizmat qiluvchi universal xarakterga ega bo'lgan umumbozor infratuzilmasiga misol keltiring.

A. Banklar, sug'urta, audit.

B. Supermarket, banklar, konsullik.

C. Savdo uyi, birja, supermarket.
D. Xalqaro bank tijorat banklari, bojxona.

34. Moliyaviy bozor o‘z ichiga qanday bozorlarni oladi?
A. Qimmatbaho qog‘ozlar, valyuta, investitsiya.
B. Ssuda, intelektual tovarlar bozori.
C. Valyuta, investitsiya, xomashyo.
D. Qimmatbaho qog‘ozlar, birja, sug‘urta.

35. **O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy subektlarda moliyaviy infratuzilma bu ..... .**
A. Siyosiy partiya.
B. Sog‘liqni saqlash.
C. Ijtimoiy fondlar.
D. Bank va kredit uyushmalari.

36. O‘zbekiston Respublikasida banklar necha pog‘onali tizimda ishlaydi?
A. 3 pog‘onali.
B. 4 pog‘onali.
C. 2 pog‘onali.
D. 1 pog‘onali.

37. O‘zbekiston Respublikasida bozor infratuzilmasini shakllantirishning birinchi bosqichi nechanchi yillarni o‘z ichiga oladi?
A. 1991–1995- yillar.
B. 1992–1997- yillar.
C. 1991–1994- yillar.
D. 1993–1999- yillar.

38. Bozor infratuzilmasining qanday tamoyillarini bilasiz?

A. Harakatchanlik, moslashuvchanlik.

B. "O'zbek turizm" milliy kompaniyasi.

C. Tadbirkorlar uyushmasi va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish.

D.Davlat soliq qo'mitasi.

39. Bozor infratuzilmasini rivojlantirishning 3-bosqichi qanday nomlanadi?

A. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish.

B. Bozor tizimini shakllantirish.

C. Bank tizimini rivojlantirish.

D. A va B javoblar to'g'ri.

40. O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirishning huquqiy asosi qachon yaratilgan?

A. 1994- yil 24- sentyabr.

B. 1997- yil 20- noyabr.

C.1993- yil 6- may.

D.1995- yil 10- dekabr.

41. Infratuzilma xizmatini takomillashtirish va investitsiyalar sifatini ko'tarish borasida katta imkoniyatlarga ega bo'lish uchun .... .

A. Bozor va tadbirkorlik omillaridan foydalanmay, infratuzilma obyektlariga faqat davlat egalik qilishi kerak.

B. Bozor raqobat omillaridan foydalanishi kerak.

C.Raqobat muhitini shakllantirish kerak.

D.Erkin bozor uchun imkoniyatlar yaratish kerak.

42. Ilmiy manbalarda infratuzilma xizmatini takomillashtirish va bunday xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan variantlarni ko'rsating.

A. Davlat mulki va davlat tomonidan ishlatish; davlat mulki va xususiy ishlatish; xususiy mulk va xususiy ishlatish; infratuzilma xizmatining hokimiyat mahalliy idoralari va foydalanuvchilar tomonidan uyushtirilishi.

B. Davlat mulki va davlat tomonidan ishlatish; davlat mulki va xususiy ishlatish; xususiy mulk va davlat tomonidan ishlatish; xususiy mulk va xususiy ishlatish;

C. Davlat mulki va xususiy ishlatish; xususiy mulk va xususiy ishlatish; xususiy mulk va davlat tomonidan ishlatish.

D. Xususiy mulk va xususiy ishlatish; infratuzilma xizmatining hokimyat mahalliy idoralari va foydalanuvchilar tomonidan uyushtirilishi.

43. Bozor infratuzilmasi subyektlari faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish orqali uning ..... .

A. YalMdagi ulushini ko'paytirishga erishish mumkin.

B. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari daromadlaridagi ulushi ortadi

C.Barcha javoblar to'g'ri.

44. Bozor infratuzilmasi obyektlarini tashkil etish va rivojlantirishdan mahalliy boshqaruv organlari qanday mafaatdor?

A. O'z mahalliy byudjet daromadlarini ortishi, hududdagi aholi turmush darajasining o'sishidan manfaatdor.

B. O'z mahalliy byudjet daromadlarini ortishidan manfaatdor.

C. Manfaatdor emas.

D. Bozor infratuzilmasi va organlar bog'liq emas.

45. Bozor infratuzilmasini rivojlantirishda mahalliy va boshqa organlarining asosiy vazifasi nimadan iborat?

A. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun mahalliy soliqlar va tushumlar bo'yicha imtiyozlar tartibini belgilash.

B. Tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqish.

C. Tadbirkorlar faoliyatini jonlantirish uchun bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

46. Bozor infratuzilmasi muassasasi sifatida kredit bilan ta'minlashda nobank kredit muassasalarining roli nimada?

A. Ularning muayyan maqsadga yo'naltirilganligi.

B. Kam foizli kreditlarni taklif etishi.

C.Ularning faqat bitta sohaga yo'naltirilganligi.

D. Bunday muassasalar davlat tomonidan aynan bozor infratuzilmasini rivojlantirish uchun maxsus tashkil etilgan.

47. O'zaro sug'urtalash jamiyatlari bu –..... .

A. O'z faoliyatini sug'urtalash yo'li orqali muhofazalash maqsadida tuzilgan huquqiy yoki jismoniy shaxslar birlashmasidir.

B. Sug'urta tashkilotlari birlashmasi.

C.Sug'urtalash maqsadida tuzilgan jamiat.

D.To'g'ri javob yo'q.

48. Bozor infratuzilmasining moliyaviy yo'nalishdagi tuzilmalari qatoriga lizing kompaniyalari faoliyati nima uchun zarur?

A. Moliyaviy lizing asbob-uskunalarni sotib olish uchun pul emas, balki aynan uskunaning aynan o'zini taqdim etadiki, bu mablag'ning bevosita maqsadga muvofiq ishlatilishiga kafolat beradi.

B. Lizingning qo'llanilishi taqdim etilgan moliyaviy mablag'larni yo'qotish xavf-xatarini keskin pasaytirish imkonini beradi.

C. Barcha javoblar to‘g‘ri.

D. To‘g‘ri javob yo‘q.

49. Bozor subyektlariga kerakli axborotni berish uchun qanday axborot tizimini yaratish zarur?

A. Axborotlar uzluksiz ravishda yetkazilishi kerak.

B. Axborotlar tezligi muhim.

C. Barcha javoblar to‘g‘ri.

D. To‘g‘ri javob yo‘q.

50. Iqtisodiy subyektlar bozorda muvaffaqiyatli harakat qila olishi uchun qanday xizmatlarni amalga oshiruvchi axborot tizimini yaratish zarur?

A. Bozorni o‘rganishda yordam berish.

B. Bozorni tanlashda yordam berish.

C. Muayyan tovar bo‘yicha maxsus tadqiqotlarni o‘tkazishda yordam ko‘rsatish.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

51. Infratuzilma unsurlarini quyidagi xususiyatlari orqali turkumlashtirish mumkin:

A. Ishlab chiqarish jarayoniga ta’siri darajasi bilan.

B. Hududiy, tarmoq, funksional yo‘naltirilganligi bo‘yicha.

C. Hududiy va tarmoq yo‘naltirilganligi bo‘yicha.

D. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

52. Hududlarning investitsion faolligi quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

A. Yangi qurilishga kapital qo‘yilmalar.

B. Korxona va obyektlarni texnik jihatdan qayta qurollantirish.

C. Korxona va obyektlarni qayta rekonstruktsiyalash.

D. Korxona va obyektlarni kengaytirish.

E. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

53. Hududlarda investitsion faollik – bu:

A. Investitsiya faoliyatining tahlili, to‘g‘ri baholovchi ko‘rsatkichlarni tanlash.

B. Investitsiyaga oid rejalarning ular samaradorligi bilan bog‘liqligini ta’minlash.

C. Korxonalarning hayotiy faoliyatini yaxshilash.

D. Korxonalarning milliy iqtisodiyotning rivojlanishidagi ulushini ko‘paytirish.

E. Noto‘g‘ri javob yo‘q.

54. Hududiy infratuzilmani rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari:

A. Infratuzilmaning samarali amal qilishini ta’minlashda davlat rolining zarurligi.

B. Infratuzilmaning barcha subyektlari majmuasini shakllantirish zarurligi.

C. Infratuzilma unsurlarini rivojlantirish zarurligi.

D. Infratuzilmani alohida emas, balki iqtisodiyotda olib borilayotgan o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq holda olib borish zarurligi.

E. “A” va “D”.

55. Investitsiya fondi faoliyatini litsenziyalash qanday tartibda amalga oshiriladi:

A. O‘zbekiston Respublikasi Mulk Qo‘mitasi belgilab qo‘ygan tartibda.

B. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo‘ygan tartibda.

C. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi belgilab qo‘ygan tartibda.

D. O‘zulgurjibirjasavdo belgilab qo‘ygan tartibda.

56. Mahalliylashtirish – bu...

A. Import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yish.

B. Eksport qilinadigan xomashyo va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan jahon bozorida talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yish.

C. Mamlakatda ishlab chiqariladigan ishlab chiqarish materiallarini ichki iste'mol bozorini to'ldirish orqali unga bo'lgan ichki bozor talabini shakllantirish va eksportini yo'lga qo'yish.

D. Eksport va import qilinadigan iste'mol tovarlari va mahsulotlarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan jahon bozorida talabni ko'paytirish va eksportini yo'lga qo'yish;

E. To'g'ri javob yo'q.

57. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish– bu...

A. Sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar va butlovchi qismlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

B. Sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

C. Sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi mahalliy mahsulotlar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

D. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining turli bosqichlarida mahsulot yetishtirish va xizmatlar ko'rsatish qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar

va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarish va ularni eksport qilishga o'tkazish jarayoni.

E. "A" va "B" javoblar to'g'ri.

